Oksigenoterapiya-nafas olish va kislorod kokteyllari kursidan iborat. Jarayon hujayralarni kislorod bilan ta'minlanishini yaxshilaydi, immunitet tizimini mustahkamlaydi, nafas olish funksiyasini tiklashga va hansirash bilan kurashishga yordam beradi. Terapevtik jismoniy mashg'ulotlar – kurs asta-sekin o'sib boradigan minimal jismoniy mashqlar bilan boshlanadi. Birinchi mashg'ulotlar qon bosimi va saturatsiya nazorati ostida bir necha daqiqa davom etadi. Nafas olish mashqlari. Hozirda nafas mashqlarining har turlar mavjud, ammo ularni amalga oshirishdan oldin pulmonolog bilan maslahatlashish kerak, chunki sun'iy o'pka ventilyatsiyasidan keyin ba'zi usullar xavfli bo'lishi mumkin. Balansli ovqatlanish-kerakli ozuqa moddalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mahsulot jigar va yurak-qon tomir tizimi uchun yumshoq bo'lishi kerak. Bemorlarga dietani tayyorlash bo'yicha tavsiyalar vrach-dietolog tomonidan beriladi. Sanatoriylarda koviddan keyin rehabilitatsiya qilish qo'shimcha ravishda suzish, tuz g'orlarining mikroiklimi bilan davolashni o'z ichiga oladi.

Rehabilitatsiya uchun preparatlar. Aksariyat shifokorlar, tiklanishda minimal miqdorda dori-darmonlarni qo'llash kerak deb hisoblashadi. Infeksiyani (ayniqsa, og'ir shakllarni) davolash uchun juda kuchli va juda toksik preparatlar qo'llaniladi. Shuning uchun, jigar va buyraklarga yukni kamaytirish uchun faqat kerakli minimal dorilarni qoldiring. Bunga quyidagilar kiradi: Antikoagulyant preparatlar; metabolik jarayonlarni normallashtirish uchun vositalar; yengil sedativlar; antidepressantlar, trankvilizatorlar. Virus tanaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo to'g'ri tanlangan rehabilitatsiya usullari deyarli butunlay buzilishlardan xalos bo'lishga imkon beradi. Asosiy shart-kasallikning ta'siridan qat'iy nazar, davolanish tugagandan so'ng darhol to'liq kursni o'tishdir. Bu jiddiy oqibatlar xavfini sezilarli darajada kamaytirishga va qisqa vaqt ichida kuch va energiyani tiklashga yordam beradi.

Bulardan tashqari fitoterapiya bilan rehabilitatsiyani tashkillashtirish qator ijobiy va ustun tomonlarga ega: Shifobaxsh o'simliklar ko'p asrlar mobaynida sinovlardan o'tib kelayotgan omil hisoblanadi, organizmga fiziologik ta'sir ko'rsatadi, chunki tabiatdagi uzluksiz shakllanish tufayli o'simliklar va odam organizmi hujayralarining tuzilishi bir-biriga juda yaqin. Sintez yo'li bilan olingan kimyoviy moddalar esa odam organizmi uchun yot hisoblanadi, ular o'ta faol bo'lib, organizmning murakkab molekulalari tuzilishini buzishi, ba'zan yanada faolroq, hujayralar uchun zaharli yangi birikmalar hosil qilishi mumkin. Ulardan bemorlardagi psixo-

emotsional o'zgarishlarni inobatga olib markaziy asab tizilmasini rag'batlantiruvchi o'simliklar: manchjuriya araliyasi, jenshen, exinopanaks, moxlarsimon levzey, xitoy shizandras, qizilcha o'simligi (efedra) qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Keltirilgan o'simliklarning hammasi markaziy asab tizilmasiga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi. Insonning aqliy va jismoniy mehnat qobiliyatini oshiradi, charchoqni yozadi, stresslarga qarshi ta'sir ko'rsatadi, tana chidamliligini, noqulay sharoitlarga moslanishini (jenshen, eleuterokokk) yaxshilaydi. Ba'zi o'simliklar (kuchala, qizilcha) qon bosimini ko'taradi. Boshqa o'simliklar (eleuterokokk, jenshen) esa miyada qon aylanishini, yaxshilaydi. Bu o'simliklar asab tizilmasi tonusini oshirish uchun, arterial gipotoniyalarni davolashda, nafas markazini rag'batlantirishda ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET –RESURLAR:

1. "ICHKI KASALLIKLAR." Abdig'affor Gadayev-Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020.
2. "Rehabilitation after COVID-19: an evidence-based approach", Oksford universiteti, Oksford, Buyuk Britaniya.
3. "COVID-19 Recovery and Rehabilitation", Buyuk Britaniya milliy sog'liqni saqlash xizmati
4. «Временные методические рекомендации: медицинская реабилитация при новой коронавирусной инфекции (COVID-19)» Rossiya federatsiyasi sog'liqni saqlash vazirligi
5. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-97155-1.html?page=28>

Murtazayeva N.K.

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

OROTATATSIDURIYA VA UNI PATOGENEZI

Annotasiya. Pediatri chaqaloqning siydigida kristall qoldiq borligini ta'kidlaydi, u tahlil qilindi. Siydikdan Oratat kislota kristallari aniqladi. Pediatri chaqalloqqa oratatsiduriya tashisini qo'ydi va Uridinli preparatlar yuborilganida kasallik simptomlari yengillashdi. Ferment yetishmasligi natijada nuklein kislotalar sintezi uchun zarur bo'lgan pirimidin nukleotidlar yetishmovchiligi vujudga keladi, oratat kislota esa, aksincha, to'planadi. Nuklein kislotalar sintezining buzilishi tanadagi B₁₂ vitamini va foliy kislotasining normal miqdoriga qaramay, eritropoezning buzilishiga va megaloblastik anemiyaning rivojlanishiga olib keladi

Kaltit so'zlar: Orotatsiduriya, oratat, UMF-sitetaza, oratat-fosfiriboziltransferaza, allopurinol, oksinurinolmononukleotid.

Chaqaloq tug'ilgandan bir necha kun o'tgach, chaqaloqning megaloblastik ekanligi aniqlangan og'ir anemiya kuzatildi. Gepatomegaliya yoki splenomegaliya kuzatilmadi. Pediatri yangi tug'ilgan chaqaloqni foliy kislota, vitamin B₁₂, "vitamin Bc, va temir" ni o'z ichiga olgan dorilar bilan davoladi ammo tasir qilmadi. Pediatri chaqaloqning siydigida kristall qoldiq borligini ta'kidlaydi, u tahlil qilindi. Siydikdan Oratat kislota kristallari aniqladi. Pediatri chaqalloqqa oratatsiduriya tashisini qo'ydi va Uridinli preparatlar yuborilganida kasallik simptomlari yengillashdi [1].

Orotatsiduriya autosomada retsessiv irsiylanadigan kasallik bo'lib, siydik bilan ko'p miqdorda oratat kislota ajralib chiqishiga oratatsiduriya deyiladi. Irsiy oratatsiduriyada bir kecha-kunduzda 1,5g gacha, ya'ni normadagiga nisbatan 1000 baravar ko'proq miqdorda oratat kislota chiqib turadi. Oratatatsiduriya-bu pirimidin nukleotidlarining almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasalligi bo'lib. Kasallik sababi: Oratat-fosfiriboziltransferaza va/yoki orotidilat dekarboksilazaning (UMF sintezi uchun fermentlar) bir vaqtning o'zida nuqsoni bilan bog'liq, chunki bu fermentlar bitta oqsilning ikkita faol markazidir. Pirimidin nukleotidlari almashinuvi jarayonida oraliq mahsulot bo'lgan oratat kislotalardan UMF sintezlaydigan fermentning irsiy nuqsoni natijasida paydo bo'lib bemor qonida oratat to'planadi [2]. Orotatsiduriya giperammoniemiyapaytida, siydikchil hosil bo'lishi onitin sikli fermentlari funksiyasining buzilishi natijasida ham kuzatiladi. Bunda mitoxondriyalarda hosil bo'lgan karbamoilfosfat siydikchil sintezi uchun sarflanmasdan, balki pirimidinli nukleotidlar sintezi uchun ham

sarflanadi, barcha oraliq metabolitlar, jumladan, orotat kislotasi konsentratsiyasi ortib ketadi. Podagrani davolashda bemorga allopurinol berib turish ham orotasiduriyaga sabab bo'lishi mumkin [3]. Allopurinol organizmda oksinurinolmononukleotidga aylanadi. U orotidilat kislotasi dekarboksillanish reaksiyasining kuchli ingibitori bo'lib, to'qimalarda orotat kislotasi to'planishiga sabab bo'ladi [4].

Patogenezi: Ferment yetishmasligi natijada nuklein kislotalar sintezi uchun zarur bo'lgan pirimidin nukleotidlar yetishmovchiligi vujudga keladi, orotat kislotasi esa, aksincha, to'planadi. Nuklein kislotalar sintezining buzilishi tanadagi B12 vitamini va foliy kislotasining normal miqdoriga qaramay, eritropoezning buzilishiga va megaloblastik anemiyaning rivojlanishiga olib keladi. Orotat kislotaning to'planishiga birinchi reaksiyaning allosterik ingibitori UTFning bo'lmashligi ham olib keladi, chunki hujayralarda UTF va boshqa pirimidin nukleotidlarining konsentratsiyasi doimo juda past. Buning natijasida me'yorga nisbatan orotat kislotaning sintezi katta tezlikda boradi. Orotat kislotasi toksik emas jismoniy va aqliy rivojlanishning buzilishi pirimidin almashinuvining buzilishi bilan bog'liq [6].

Davolash simptomatik va patogenetik, siydik yo'llarida simptomatik davolash amalga oshiriladi. Kasallik hayotning ikkinchi yarmida leykopeniya va gipoxrom megaloblastik anemiya, uyquchanlik, letargiya, aqliy va jismoniy rivojlanishning kechikishi bilan namoyon bo'ladi. Tashxis sovuylgan siydikda ornitinning ignasimon kristallarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Davolanmaganda irsiy orotatsiduriya qaytmas aqliy va jismoniy rivojlanishning ortda qolishiga olib keladi, odatda, bemorlar hayotining birinchi yillarida nobud bo'ladi. Kasallikning ko'rinishlari ko'pincha bola hayotining 3-oyligida aniqlanadi: og'ir anemiya (terining va ko'rinadigan shilliq pardalarning rangsizligi), uyquchanlik, letargiya, jismoniy va psixik rivojlanishda kechikish kuzatiladi. Kasallik ko'pincha o'tkir respirator virusli kasalliklar bilan kechadi [5].

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sabirova R. A. Biokimyo Toshkent 2020 174 bet.
2. Леднева И. О., Петушок Н. Э. ББК 52.57 я73 Л43 Рекомендовано Центральным научно-методическим советом ГрГМУ (протокол № 5 от 26.06. 2020). – 2020.
3. Зборовская И. А. и др. Активность ферментов пуринового и пиримидинового метаболизма при системной склеродермии: энзимный профиль плазмы крови и лимфоцитов //Успехи физиологических наук. – 2019. – Т. 50. – №. 3. – С. 83-91.
4. Линник М. С., Еремина М. С., Воронин Е. А. Влияние дефицита витаминов группы В на здоровье человека //Дневник науки.- 2019. № 7. С. 3-3.
5. Белослудцева Н. В. и др. Исследование механизмов митохондриальной дисфункции при гипертрофической кардиомиопатии у крыс и возможности её коррекции с помощью уридина //Теоретическая и экспериментальная биофизика. – 2021. – С. 15-16.
6. Azim B. et al. Analysis of the selection of the covering material for the treatment of thermal burn of the skin //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2021. – Т. 8. – №. 03. – С. 2021.

Нуриддинов А.С.
Ферганский медицинский институт
Mrdoctorpan@mail.ru

ОСОБЕННОСТИ ВОЗРАСТНЫЕ ИЗМЕНЕНИЕ МИКРОФЛОРЫ ЖЕЛУДОЧНО КИШЕЧНОГО ТРАКТА

Аннотация: Нарушение состава микрофлоры может влиять на состояние здоровья. Существует возрастное изменение микрофлоры кишечника, поэтому

микрофлоры кишечника новорожденных, детей, взрослых и людей пожилого и старческого возраста имеет возрастные особенности. Основными представителями микрофлоры толстой кишки являются: грамположительные анаэробные палочки. Внутриутробном развитии, считается стерильным, это связано тем, что он защищен оболочкой, непроницаемой для микроорганизмов.

Ключевые слова: грамположительные, считается стерильным, симбиоз, анаэробные палочки, микрофлоры кишечника.

Общеизвестно, что симбиоз микрофлоры кишечника играет важную роль в пищеварение и жизнедеятельности человека. Вместе с тем, любое нарушение состава микрофлоры может влиять на состояние здоровье. Однако, состав микрофлоры желудочно-кишечного тракта постоянно меняется. Последняя, зависит как от внешних факторов, так и от физиологических особенностей организма детей. Следует отметить, что существует возрастное изменение микрофлоры кишечника, поэтому микрофлоры кишечника новорожденных, детей, взрослых и людей пожилого и старческого возраста имеет возрастные особенности.

По данным некоторых авторов, наибольшее количество микроорганизмов накапливается в толстой кишке. Так, в 1 г фекалий содержится до 250 млрд микробных клеток. Около 95 % всех видов микроорганизмов составляют анаэробы. Основными представителями микрофлоры толстой кишки являются: грамположительные анаэробные палочки (Бифидобактерий, лакто бациллы,); грамположительные спорообразующие анаэробные палочки (кlostридии, перфрингенс и др.); энтерококки; грамотрицательные анаэробные палочки (бактероиды); грамотрицательные факультативно-анаэробные палочки (кишечные палочки и сходные с ними бактерии сем. Enterobacteriaceae — цитробактер, энтеробактер, клебсиеллы, протей и др.). Бифидобактерий и бактероиды составляют 80—90 % от общего количества микрофлоры кишечника [2].

Плод, при внутриутробном развитии, считается стерильным, это связано тем, что он защищен оболочкой, непроницаемой для микроорганизмов. Следует подчеркнуть, что после разрыва плодной оболочки и при прохождении родовых путей микроорганизмы начинают заселяться вначале на коже ребенка, а в дальнейшем попадают и в желудочно-кишечный тракт [1]. Вместе с тем, у новорожденного желудочно-кишечный тракт стерилен в течение 10–20 часов (асептическая фаза). В первые 2–4 дня жизни происходит заселение кишечника ребенка микробами в связи с грудным вскармливанием.

В течение последующих 2–3 недель жизни качественный и количественный состав микрофлоры изменяется. Постепенно состав микрофлоры к концу первого месяца жизни стабилизируется. В этот период Бифидобактерий преобладают и это связано их содержанием в грудном молоке.

К 3-6 годам происходит возрастное становление микробиоциноза - количество Бифидобактерий уменьшается, изменяется видовой состав, возрастает численность грамположительных аспорогенных микроорганизмов, уменьшается содержание лакто бактерий [1].

Hansson 1981 г показал, что дети, рожденные путем кесарева сечения, имеют значительно более низкое содержание лакто бактерий, чем появившиеся естественным путем. Roberfroid в 2000 г. окончательно доказал, что только у детей, находящихся на естественном вскармливании (грудное молоко), в микрофлоре кишечника преобладают Бифидобактерий, с чем и связал меньший риск развития гастроинтестинальных инфекционных заболеваний [2].

Мы соглашаемся с мнениями авторов, которые утверждают, что процесс старения приводит к изменению практически всех слоев стенок желудка. Изменяется слизистая оболочка, уменьшается количество мышечных волокон и секреторных клеток. Частично нарушается иннервация желудочно-кишечного тракта. Общая длина кишечника с возрастом увеличивается, чаще происходит удлинение отдельных участков толстой

кишки. В стенках кишечника происходят атрофические изменения, приводящие к изменению мембранного пищеварения. В результате нарушается всасывание белков, жиров и углеводов. Микрофлора кишечника с возрастом тоже изменяется: увеличивается количество бактерий: гнилостной группы, уменьшается количество молочнокислых микроорганизмов. Это способствует увеличению количества выделяемых микробами эндотоксинов, в результате чего нарушается функциональная деятельность кишечника [2].

Таким образом, все возрастные группы, новорожденные, дети, взрослые и люди пожилого возраста имеют особенной количественный и качественный состав микрофлоры. Не смотря на то, что дети рождаются стерильными но, постепенно начинается заселение микробов в кишечник, состав которого зависит от возраста и особенностей питания. Микрофлора взрослых людей с возрастом претерпевает изменения, проявляющийся с преобладанием гнилостных бактерий

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.

1. Воробьев А.В., Быков А.С., Пашков Е.П., Рыбакова А.М. Микробиология: Учебник. – 2-е изд., перераб и доп. – М.: Медицина, 2003. – 336с.: ил. – (Учеб. Лит. Для студ. фарм. вузов.) – ISBN 5-225-04411-5.

2. Смагин А.Ю. Пробиотики и пребиотики у новорожденных и детей грудного возраста. «Журнал интенсивная терапия» N2 - 2007 г.- режим доступа: <http://www.icj.ru/2007-02-03.html>

Tog'ayev B.S., Keldiyorova Sh.H.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
sammi@sammi.uz
togayevbehruz771@gmail.com
keldiyorovashohida@gmail.com

JIGAR KASALLIKLARIDA JIGARNING BIOKIMYOVIY O'ZGARISHLARI

Annotatsiya: Jigar organizmdagi eng muhim metabolik organdir. Turli xil kasalliklar bilan uning tuzilishi va funkcionalligi o'zgaradi va bu normal biokimyoviy ko'rsatkichlar o'zgarishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: albumin-globulin koeffisienti, disproteinemiya, protrombin indeksi, jigar komasi, streptoreya, Kumbs sinamasi, paraxoliya.

Eng katta metabolik organ bu jigar. Jigar metabolizmda markaziy-regulyator rol o'ynaydi. Undagi o'zgarishlar metabolizmni ham o'zgarishiga olib keladi. Jarayonning asosiy ishtirokchilaridan biri bu gemoglobinni yo'q qilish natijasida hosil bo'lgan bilirubin. U qon oqimi bilan birga jigarga yetkaziladi, safro bilan bog'lanadi va keyin o't yo'llari orqali ovqat hazm qilish traktiga o'tadi. Bilirubin tanadan asosan najas bilan va oz miqdorda siydik bilan ajralib chiqadi. Agar biron bir bosqich ishlamay qolsa, bu modda qonda to'planib, ichki organlarga salbiy ta'sir qiladi.[5]

Jigarning oqsillar almashinuvidagi vazifasi. Qon zardobidagi umumiy oqsilning miqdoriy o'zgarishlari jigar faoliyatlarining qanday darajada ekanligidan axborot beradi. Umumiy oqsilning sog'lom bolalardagi miqdori 60-80g/l ga teng va og'ir virusli gepatit kasalligida, uning surunkali turlarida umumiy oqsilning qon zardobidagi miqdori kamayadi. Jigar qon zardobidagi 5 xil asosiy oqsillarning sintezida ishtirok etadi. Albuminlar umumiy oqsil miqdorining 55-60% ini tashkil qiladi. Virusli gepatitning og'ir turlarida, jigar sirrozining so'nggi davrlarida, albuminning kamayishi boshqa moddalarning almashinuviga katta ta'sir qiladi, ularning faoliyatining buzilishiga olib keladi. O'tkir gepatitlarda qon zardobidagi oqsillarning umumiy miqdori deyarli me'yorida bo'lishi mumkin, surunkali shakllarida esa anchagina kamayadi. Gepatitning barcha shakllarida albuminlarni kamayishi va globulinlarni ortishi, albumin-globulin koeffitsiyenti bilan tavsiflanadigan disproteinemiya kelib chiqadi.

Albuminlar miqdori anchagina kamaygan elektroforegrammada α_1 - va α_2 -globulin chiziqlari qo'shilib ketadi.[4]

Virusli hepatitlarning og'ir turida va jigar ichidagi xolestaz bilan kechuvchi hepatitlarda protrombin indeksining ko'rsatkichi kamayib ketadi. Bu ko'rsatkichning tez va ko'p miqdorda kamayishi o'tkir hamda surunkali hepatitda jigar komasi boshlanayotganligidan darak beruvchi ishonchli ko'rsatkich hisoblanadi.[3]

Jigarning yog'lar almashinuvidagi ishtiroki. Yog'larning hazmlanishi va so'rilishi uchun o't suyuqligi zarur omil bo'lib, u jigarda ishlab chiqariladi. Odam jigarida bir kecha — kunduzda 500-700 ml o't suyuqligi ishlab chiqariladi. O't tarkibida xolat, dezoksixolat, xenodezoksixolat va ularning glitsin va taurin bilan hosil qilgan juft birikmalari bo'ladi. O't kislotalari va ularning tuzlari sirt tarangligini pasaytiruvchi bo'lib, suv-yog' chegarasidagi taranglik kuchini pasaytiradilar. Shuning uchun o't ta'sirida yog' mayda zarrachalarga parchalanib, ularda o't kislotalari gidrofil qobiqlarni hosil qilib, lipolitik fermentlarning ta'sir qilishiga imkoniyat tug'diradilar va lipazaning aktivligini oshiradi. Demak, jigarda o't chiqarilishining buzilishi yog'larning hazmlanishi, so'rilishini buzilishiga va axlat bilan yog'ning 50% gacha chiqarib yuborilishiga olib keladi. Bunday holat streptoreya deb nomlanadi.[3]

Jigarning pigment almashinuvidagi ishtiroki. O't bilan ajraluvchi pigmentlar unga to'q sariq rang berib turadilar. Insonlarda bilirubin asosan, gemoglobindan hosil bo'ladi. Eritrotsitlarning umri o'rtacha 110-120 kuni tashkil qiladi. 1g gemoglobin parchalanganda 34 mg bilirubin hosil bo'ladi. Gemoglobindan globin va gem, gem dan bilirubin hosil bo'ladi. Gemdan bilirubingacha bo'lgan jarayon EPT membranalarida juda murakkab va uzviy bog'liq reaksiya sifatida amalga oshadi. Undan tashqari 15-25% bilirubin gemni o'zida saqlovchi moddalar (miogloblin, sitoxromlar, peroksidaza va boshqalar)dan hosil bo'ladi.[4]

Sariqlik (icterus) belgisi bu teri, ko'zning oqi va shilliq pardalarning sariq rangga bo'yalishidir. Qondagi bilirubin moddasining ko'payishi va inson a'zolari, to'qimalarida bilirubin moddasining singib qolishi buning sababi hisoblanadi. Kattalardagi sariq kasal patogenez va etiologiyaning har xil turlariga ega hamda tasnifi keng. Ushbu sohadagi kasalliklarning asosiy turlarini ajratib ko'rsatamiz. Sariq kasal quyidagi turlarda bo'ladi:

gemolitik (eritrotsitlarning patologik halokati);

parenximal (jigar);

xolestatik (jigardan tashqari). [5]

Gemolitik sariqlik terida sariqlik belgisi kam rivojlangan bo'lib, to'qsariq darajagacha bormaydi. Bu turdagi sariqlikda jigar shishmaydi, taloq kattalashadi va o'tpufagida toshlar paydo bo'ladi. Shu bilan birga bu sariqlikda eritrotsitlarning rezistentligi kamayadi. Kumbs sinamasi musbat bo'ladi, regeneratsiyaga moyil anemiya ham uchrab turadi. Ammo bu bilan jigarning funksiyasi o'zgarmaydi. Jigar usti sariqligi yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gemolitik kasallik, har xil nasldan-naslga o'tuvchi gemolitik anemiyalar, gemoglobinopatiya, katta qon quyilishlar (qontalash), politsitemiya, dorilar ta'sirida bo'ladigan gemoliz natijasida bo'lishi mumkin.[3]

Jigar faoliyati bilan bog'liq sariqlik turli kasalliklarda faqat jigar to'qimalari shikastlangandagina, ya'ni hepatotsitlarning sitolizi natijasida yoki jigardagi xolestaz natijasida paydo bo'ladi. Ayrim hollarda sariqlikning paydo bo'lishiga jigar to'qimasi sitolizi emas, balki bu to'qimalardagi metabolizmning buzilishi yoki bilirubin transportining buzilishi sabab bo'lishi mumkin. Bu holatlar tug'ma (irsiy) kasallik bo'lgan pigmentli gepatozlarda (Jilber, Krigler-Nadjar 1 va 2 tipi, Dabin-Djonson, Rotor sindromlari), shuningdek gipotireoz, galaktozemiya, Niman-Pik kasalligi va boshqalarda uchraydi. Hepatotsitlarning bilirubinni qamrab olishini sekinlashtiruvchi ba'zi dorilar, gormonlar ham sariqlikka olib keladi. Jigar sariqligining asosida bilirubinni qamrab olinishi, konyugatsiya va ekskretsiya qilinishining buzilishi yotadi. To'qimada bilirubin metabolizmi va transport qilinishining birlamchi buzilish darajasiga qarab hepatotsellulyar, premikrosomal, postmikrosomal va postgepatotsellyulyar sariqliklarga bo'linadi.[5]

Jigar osti sariqligi asosida, jigardan tashqari joylashgan o't yo'llari orqali o't ajralishini buzilishi yotadi. Uning natijasida bosim ortadi. Bu esa gepatotsitlardan o't ajralishiga ziyon qiladi. Bunday holat paraxoliya deyiladi. Bolalarda bunday holatni o't yo'llaridagi tug'ma anomaliyalarda, atreziyalarda, o'tning quyuqlashish sindromida, oilaviy xolestazda, tashqaridan o't yo'llarini siqib qo'yish, o't yo'llarning parezlarida va boshqa hollarda uchramiz.[1]

Teridagi sariqlik belgisi faqat qondagi bilirubinning ko'payishiga bog'liq emas. Ba'zi bir moddalar odam organizmida ko'paysa ham sarg'ayish alomati sodir bo'ladi. Chunonchi, karotin moddasi ko'payganda, akrixin dori sifatida qo'llanilganda, triptoflavin moddasining qonda ko'payishi natijasida va boshqa holatlarda sariqlik bo'lishi mumkin. Lekin bunday holatlarda ko'zning oq pardasi kamdan-kam sarg'ayadi.[2]

Biokimyoviy tekshirishlarda qonda bog'langan bilirubinning ko'paygani siydikning rangi qora choy rangiga o'xshaganida aniqlanib, siydikda bevosita bilirubinning miqdori juda oshib ketadi. Siydikda urobilin uchramaydi, najas oqaradi va sterkobilin moddasi yo'qoladi. Qonda o't kislotalari, xolesterinning miqdori oshadi. Shu bilan bir qatorda qonda ishqoriy fosfatazaning faolligi oshadi, lekin jigarning faoliyatini ko'rsatuvchi funksional belgilari ko'p o'zgarmaydi.[1]

Xulosa: Jigar moddalar almashinuvidagi markaziy organdir. Oziq moddalari orqali qabul qilingan barcha moddalar dastlab jigarga boradi va keyin boshqa organlarga taqsimlanadi. Shuning uchun bu regulyator organ patologiyalari organizmdagi boshqa biokimyoviy jarayonlarni ham o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shu sababli shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, muhim metabolik organga yukni kamaytirish uchun spirtli ichimliklar va nazoratsiz dori-darmonlarni iste'molini cheklash tavsiya etiladi. Sariq kasal va virusli gepatitning oldini olishning samarali usullaridan biri bu emlashdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Y. Nikolayev. "Biologik ximiya" Toshkent-1991-y. 448-462-b
2. E.S. Severen. "Bioximiya". Moskva-2019. 606-614-b
3. R.A. Sobirova, O.A. Abrorov, F.X. Inoyatova, A.N. Aripov "Biologik kimyo". Toshkent-2006-yil. 384-414-b
4. Sobirova R.A., Yo'ldoshev N.M. "Biokimyo" 2-qism. Toshkent-2020. 198-216-b
5. Avitsenna.uz va boshqa internet saytlari.

*Xudayberdiyeva G., Hamidov B., Mamadoliyev I.
Samarqand davlat tibbiyot institute*

QOVOQNING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Xalq tabobatida inson organizmidagi kasalliklarini davolashda qo'llanilayotgan shifobaxsh dorivor o'simliklarni o'rganish.

Kalit so'zlar: mikroelementlar, karotin, pekin moddalar, beta-karotin, serotanin, kamqonlik, varikoz, pnevmoniya, gastrit kasalliklari.

Qovoqning ozuqaviy qiymatdan tashqari ko'plab qimmatli mikroelementlarni o'z ichiga oladi va butun tanaga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Bundan tashqari, nafaqat qovoqning go'shtli joyi va sharbati, balki urug'lari ham foydali xususiyatga ega.

Energiya qiymati va tarkibi

Birinchidan, qovoq – vitaminlar manbai. Uning tarkibida A, C, E, K, T, PP, shuningdek, hazm qilishni yaxshilaydigan va immunitetni mustahkamlaydigan B₁, B₂, B₅ va B₆ vitaminlari mavjud.

Qovoq tarkibida juda ko'p miqdorda qimmatbaho tolalar, karotin va pektin moddalari, shuningdek, turli xil organlar va tizimlarning salomatligini ta'minlaydigan minerallar – kaliy, kalsiy, magniy, rux, mis, temir va fosfor kabi moddalar mavjud. Shuning uchun ham qovoqning organizm uchun foydasidan shubha qilishning keragi yo'q.

Bundan tashqari, qovoq past kaloriyali mahsulot bo'lib, uning 100 grammida taxminan 25 kkal, 1 gr oqsil, 0,1 gr yog', 4,4 gr uglevod va suv mavjud.

Tekshirish natijalari:

1) Vazn tashlashga yordam beradi

Endi avvalgi parhezlar ahamiyatga ega emas, aksincha sog'lom oziq-ovqat tufayli kuch sarflamasdan ham vazn tashlash mumkin. Masalan, qovoq yordamida, u to'laga boy bo'lib, u insonni tez to'ydiradi uzoq vaqt mobaynida to'qlik hisi tark etmaydi. Shuningdek, yuqorida ta'kidlanganidek, mahsulotda kaloriya miqdori past – 100 gramm qovoqda 25 gr kkal. Qovoqdagi kaliy tuzlari tanadan ortiqcha suyuqlikni olib tashlashga yordam beradi, bu esa vazn kamayishiga olib keladi.

2) Ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi

Qovoq tarkibida beta-karotin mavjud bo'lib, u organizmdagi A vitaminiga aylanadi va aynan ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi, shuningdek, yorug'likni yaxshiroq qabul qilishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, uning miqdori oshqovoqda sabzi bilan solishtirganda 5 baravar ko'p. Ayniqsa, kataraktaning oldini olishda qovoq mahsuloti samarali hisoblanadi.

3) Terining yorilishi va ajin tushishidan himoya qiladi

Qovoq karotenoidlarga boy bo'lib, ular nafaqat ko'rish qobiliyatini qo'llab-quvvatlaydi, balki saraton hujayralarining rivojlanishiga ham to'sqinlik qiladi. Shuningdek, E vitamin terini zararli ta'sirdan himoya qiladi, yallig'lanishni kamaytiradi va erta qarishning oldini oladigan antioksidantlar vazifasini bajaradi.

4) Kayfiyatni yaxshilaydi va immunitetni mustahkamlaydi

Oshqovoq takibidagi C vitamin serotonin gormonini ishlab chiqarishni rivojlantiradi va immunitetni mustahkamlashga yordam beradi. Ayniqsa, shamollashning oldini olish uchun foydali, chunki A vitamin yallig'lanish hamda infeksiyaga qarshi kurashadi.

5) Qovoq sharbati

Qovoq sharbati mevali sharbatlardan farqli o'laroq deyarli tarkibida shakari bo'lmaydi va mahsulotning barcha xususiyatlarini o'zida saqlab qoladi.

6) Qovoq urug'i

Qovoq urug'i yurakdagi muammolarni davolovchi ta'sirga ega, u qon bosimini pasaytiradi va qondagi qand miqdorini tartibga solishga yordam beradi. Bunga asosan, fitosterollar, magniy, yog' kislotalari, fermentlar va azot oksidi sabab bo'ladi. Bundan tashqari, qon tomirlarini kengaytiradi va qon aylanishini yaxshilaydi. Oshqovoq tanadagi toksinlarni olib tashlaydi, gemoglobin miqdorini oshiradi, modda almashinuv jarayonini yaxshilab, yurak faoliyatini normallashtiradi.

Tibbiyotda qo'llanilishi

Qovoq dorivor mahsulotlar ichida birinchi o'ringa loyiqdir. Qovoqning go'shtli joyi astma, kamqonlik, varikoz tomirlari, pnevmoniya va shamollashni davolashda qo'l keladi.

Shifokorlar erkaklarga oshqovoq urug'ini quvvatni oshirish, salohiyatni yaxshilash va prostata bezlarini davolashda maslahat beradi.

Qovoq urug'i yog'i ham alohida maqtovg'a sazovordir. Uning tarkibida omega-3 yog' kislotalari, kaliy, kalsiy, magniy va temir ko'p bo'lib, bir qancha jiddiy kasalliklarning oldini olishda samarali hisoblanadi.

Zararlari: Qovoq bir qancha foydalaridan tashqari ayrim kimsalarning iste'mol qilishi taqiqlanadi. Masalan, oshqozon yarasi, kislotaliligi past gastrit yoki qand kasaliga chalingan bemorlar ratsioniga qovoq mahsuloti kiritilishi mumkin emas. Shuning uchun shifokor ko'rigidan o'tib, maslahatlashish zarur.

Xulosa: Qovoq xarid qilinayotganda uning po'stlog'iga e'tibor berish zarur. Unda yoriqlar, pushti dog'lar bo'lmasligi kerak. Iloji boricha o'rta kattalikdagi qovoqlarni tanlagan ma'qul. Juda kattasi qurib qolishi va ichidagi go'shtli joyi achchiq chiqishi mumkin. Qovoqlar quruq va qorong'i joyda saqlanishi kerak. Agar qovoq kesilgan bo'lsa, uni urug'laridan tozalab, usti o'ralgan holda muzlatkichga qo'yilsa, uzoqroq vaqt turishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu ali Ibn Sino Tib qonunlari kitobi
2. hppts//zira.uz~2018.05.10
3. Salomatlik sari gazetasi Toshkent 2019.25.05
4. Dorivor o'simliklar atlası Jo'rayeva M.A Toshkent-2012
5. Birinchi jild Toshkent 2000-yil Toshkent Xolmatov H.X, Habibov Z.H Farmakognoziya (Darslik) 1980
6. Shifobaxsh gıyohlar 1967-yil Nabiyev M
7. Hojimatov Q.M Olloyorov, M Yuldashev H.M, Shogulomov U.Sh,Shifobaxsh gıyohlar dardlarga malham (Fitoterapiya) Toshkent-1995
8. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza qilish, Toshkent-1998 Xoliqov K, Nabiyev M.

Бердиева З.М., Мухамадиев Б.Т.

Бухарский инженерно-технологический институт

БИОХИМИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ АНАЛИЗА БЕЗОПАСНОСТИ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ

Аннотация. Одним из актуальных вопросов сельскохозяйственного производства является качество и безопасность сырья и продукции. Безопасность пищевых продуктов в первую очередь касается биологических, точнее микробиологических объектов, а именно вирусов, патогенных бактерий (сальмонелл, листерий и т.д.) и грибов (микотоксинов), анализ которых требует дешевых, специфических и быстрых методов. Статья актуальна в свете последних событий, а именно вспышек различных эпидемий (например, коронавируса Covid-19).

Ключевые слова: безопасность, ферменты, молекулярная печать, моделирование, анализ рисков.

Тестирование ферментативной активности является одним из распространенных методов, поскольку оно отражает качество пищевых продуктов. Поскольку ферменты являются лабильными белками, они указывают на качество продукта и действуют как маркеры разложения для качества сырья, для технологической цепочки и для безопасности конечного продукта. В этом контексте анализ включает измерение реологических свойств ферментативного субстрата либо путем физического измерения (вязкости), либо путем анализа свойств конечного продукта или побочных продуктов, образующихся в результате активности фермента. Обычно используемые методы включают объемное титрование, гравиметрическое, колориметрическое, поляриметрическое, пламенную фотометрию и атомную адсорбцию спектрометрия. В дополнение к ним недавно были открыты быстрые, точные и дешевые методы (биоанализы), заменяющие классические подходы. Одним из примеров является идентификация с помощью иммуноанализов с использованием иммуноферментного анализа, связанного с иммуноферментным сорбентом [1].

Цель данной статьи - обсудить суть этого метода, его преимущества и важность в контроле сырья и продуктов аграрной производственной цепочки.

Методы молекулярной печати на основе полимеров (MIPS). Альтернативой иммуносенсорам и иммуноаффинным методам является метод молекулярно-печатных полимеров на основе синтетических полимеров, созданных со специфическими "сайтами" в качестве (био) датчиков для специальных целевых (печатных) молекул (PM) (Рисунок 1.).




Рисунок 1. Механизм образования молекулярно ориентированных полимеров (MIPS) и их применение в качестве метода идентификации и измерения различных органических загрязнителей пищевых продуктов.

Процедура включает в себя приготовление “формы” путем окружения функциональных мономеров (M_o) вокруг ПМ (антибиотики, стероиды, токсины и т.д.). Отпечаток молекулы (PM) и полученного комплекса сополимеризуют со сшивающими группами (например, этиленгликолем, диметилакрилатом) в жестком полимере [2].

Затем PM извлекается, что делает поисковые сайты бесплатными. Используя этот метод, “платиновые антитела” создаются в виде специальных MIPS-“форм” в аффинных сайтах для захвата специфических PMS, которые затем становятся способными действовать как биологические антитела.

На практике метод MIP включает в себя следующие этапы.

1. Напечатанная молекула растворяется в порах вместе с мономерами и образует нековалентно растворимый комплекс.

2. Для образования жесткого полимера добавляют инициатор полимеризации.

3. Полимерная масса оседает и обволакивает растворители, образуя частицы размером 20-25 мм (называемые MIP), которые действуют как подставки для SPE (твердофазной экстракции), электрофореза или наносятся на колонку ВЭЖХ.

В принципе, эти тесты напоминают метод ИФА, только отличаются они тем, что вместо ферментов в качестве метки для антител используются радиоизотопы. Оригинальный метод RIA использует радиоактивно меченный антиген который присутствует в немеченом антителе или антигене в тестируемом образце. Затем радиоактивность антигена измеряется с помощью радиоизотопного анализатора. Если анализируемый образец содержит большое количество антигенов, то они улавливаются радиоактивно меченым антителом в месте антигенсвязывающего антитела, и радиоактивность значительно снижается. Обычно используется изотоп $J125$. Использование изотопов имеет некоторые недостатки, такие как нестабильность изотопов, риски для здоровья и проблемы загрязнения окружающей среды. По этим причинам, меченые изотопы используются не очень часто, и были разработаны и внедрены в практику другие альтернативные системы “холодной” маркировки, такие как флуоресценция [3].

При рассмотрении аспектов безопасности пищевых продуктов важно иметь подход к различным потенциальным опасностям, и еще более важно иметь знания о факторах, которые превращают риски в опасности.

Снижение пределов обнаружения опасных веществ, увеличение воздействия на окружающую среду и ответственность за продукцию - это лишь некоторые из многих факторов, которые вынуждают компании углублять свои порой экстремальные меры контроля за безопасностью пищевых продуктов [4]. Поэтому крайне важно, чтобы решения могли приниматься на качественной основе и с объявлением причин, как видно из материалов этой статьи. Поэтому в идеале эксперт по безопасности пищевых продуктов должен обладать знаниями не только о возможных опасностях, но и о том, как их анализировать, и должен быть знаком с соответствующими разделами, такими как

системы обеспечения качества, системы производства пищевых продуктов, моделирование, анализ рисков .

Литература

1. Luning P A et al. 2006 “Safety in the agrifood chain” Wag. Acad. Publ. (Netherlands) 5
2. Mukhamadiev B T 2009 “Food safety analysis by ELISA” 13 th Australian Food Microbiology Conference (Australia)
3. Mukhamadiev B T, Kasimova N A, Mukhamadieva Z.B. 2020 “Effects of the food ingredients glabridine, glisirhizin acid and reteratrols on the replication SARS-coronaviruses” Food Science and Biotect (New York)
4. Berdieva Z H and Mukhamadiev B T 2021 “Innovative technology of cryo-crushing and cryoseparating” Science and Technology Development BITI 1 37

Ш.Ш.Облокулов

Бухоро давлат тиббиёт институти
shavkatoblokulov5@gmail.com

НАРКОТИК МОДДАЛАРНИНГ ОРГАНИЗМДА КЕЧАДИГАН БИОКИМЁВИЙ ЖАРАЁНЛАРГА ТАЪСИРИ.

Аннотация. Инсон наркотик хусусиятга эга бўлган моддани истеъмол қилганида, унинг организмида кечадиган биокимёвий жараёнларга ўз таъсирини ўтказди. Биокимёвий реакциялар боришини бошқарувчи гормонлар ишлаб чиқарилишида ўзгаришлар содир бўлиб, организм ҳаётини фаолиятининг маромини бузади. Ушбу мақолада юқоридаги ҳолатларнинг келиб чиқиши ва оқибатлари тўғрисида фикр юритилади, шунингдек инсониятнинг қадимги даврларда наркотик моддалар хусусиятларини билиб олиши ва фойдаланиши тарихи, наркотик модда сақловчи ўсимликлар ҳақида антик давр олимларининг фикрлари ҳам ўрин олган.

Калит сўзлар: наркомания, каннабис, нейронлар, гормонлар, дофамин, инсон психикаси, депрессив ҳолатлар.

Наркомания- инсон организмнинг таъсирчан моддаларга ўрганиб, қарам бўлиб қолишини англатади. Наркомания ёки гиёҳвандлик – қадим замонлардан буён маълум бўлиб, унинг дастлабки шакллари инсоният ибтидоий жамоа шаклида ҳаёт кечирган даврларда пайдо бўла бошлаган. Дастлаб олов кашф қилинганда одамлар совуқдан исиниш учун ҳар хил ўт ва шох шаббаларни йиғиб, ёқиб, гулхан атрофида тўпланиб ўтиришган ва маълум бир турдаги ўсимлик қисмлари ёқилганда кайфиятни кўтарувчи ва маст қилувчи ҳолатларни келтириб чиқаришини билиб олганлар. Шу тарзда ўсимликларнинг хусусиятларига қараб бир-биридан ажратиб, эйфорияга олиб келувчи ўсимликлар алоҳида ажратиб олинган ва керакли вақтда уларни ёқиб, чиқаётган тутунидан нафас олиб, жамоавий шаклда базмлар уюштирилган. Манбаларда қайд қилинишича, антик даврда ҳар қандай диний маросимларда, қабилалараро урушдаги ғалабаларда, ва бошқа хурсандчилик вақтларда, шунингдек халқ табобатида таркибида наркотик сақловчи ўсимликлар ишлатилган. Бундан тахминан 3300 йил илгари Қадимги Мисрда каннабисдан наркотик модда сифатида кенг фойдаланилганлиги тарихий манбалардан маълум. Бундан ташқари, юнон тарихчиси Геродот “Тарих” асарида Марказий Осиё кўчманчи қабилалари ҳаёти тўғрисида тўхталар экан, шундай лавҳа келтиради: “кўчманчилар катта гулхан атрофида ўтириб оловга наша (каннабис) ташлашар ва унинг ҳидидан, гўёки эллинлар винодан маст бўлганидек, маст бўлишар экан”. Шунингдек, Гиппократ ўз асарларида ҳинд нашаси (ҳинд каннабиси) Европага скифлар томонидан Троян урушигача бўлган даврлардаёқ келтирилганлигини қайд этиб ўтган. Абу Али ибн Сино ўзининг “Тиб қонунлари” асарининг иккинчи жилдида наша (каннабис) нинг салбий жихатларини кўрсатиб ўтган, жумладан, 634-кўрсаткич мақолада “...наша уруғини кўп истеъмол қилинса, эрлик уруғини қирқади” деб ёзади. Шунингдек,

689-мақолада наша аъзоларни сусайтириши, кўзни хиралаштириши, меъдага зарар етказишини кўрсатиб ўтади.

Инсон наркотик хусусиятга эга бўлган моддани истеъмол қилганида, унинг организмида кечадиган биокимёвий жараёнларда ўзгаришлар содир бўла бошлайди. Бош мия нейронларида юзага келадиган ўзгаришлар гормонлар ишлаб чиқарувчи секретция безлари фаолиятига таъсир кўрсатиб, ортиқча миқдорда гормонал моддалар ишлаб чиқарилишига олиб келади. Наркотик моддалар истеъмол қилинганда қонда дофамин миқдори ортади. Ортиқча миқдордаги бу модда инсон психикасига таъсир этиб, депрессив ҳолатларни келтириб чиқаради. Уларни доимий истеъмол қилиш эса, организмда кечадиган биокимёвий жараёнларда наркотик модданинг иштирокини таъминлайди ва бевосита ўша наркотик модда организм учун ҳаётий зарур омиллар қаторига қўшилади. Шу сабабли, наркотикларга ўрганган инсон секин-аста унинг асирга айланиб боради. Наркотик моддалар истеъмол қилинганда, унинг таъсири бир неча минутда сезила бошлайди ва 3-12 соатгача давом этиб, кўзғалиш, сўниш босқичларидан иборат бўлади. Масалан, каннабисни чекиш йўли билан истеъмол қилган одамда биринчи бош айланиши кузатилиб, оғизда камфорасимон таъм сезилиб, сўлак ажралиши баъзида секинлашиши, баъзан эса ортиб, кучли очлик ҳиссини уйғотиши мумкин. Одам ўз фикр-мулоҳазаларини эркин баён эта олмайди ва мантиқсиз-хаёлий, муҳит билан боғланмаган нарса-ҳодисалар кўз ўнгида гавдаланади. Кайфияти кескин ўзгарувчан тус олиб, қаҳ-қаҳа отиб кулишдан аччиқ кўз ёш тўкишга ўтиши, хурсандчилик ўрнини қаттиқ кўрқув эгаллайди. Юқоридагиларга ўхшаш ҳолатлар бошқа турдаги наркотик моддалар истеъмол қилинганда ҳам у ёки бу шаклда юзага келиши мумкин.

Одамда наркомания ривожланишини шартли равишда 3 босқичга бўлиш мумкин:

Бошланғич босқич- адаптация босқичи ҳам дейилади. Бунда организмнинг ёт моддага нисбатан акс-таъсир реакцияси салбийдан ижобийга ўзгара бошлайди ва психик қарамликнинг дастлабки аломатлари кузатилади.

Сурункали (хроник) босқич- бунда наркотик моддага жисмоний қарамлик шаклланиши тўлиқ тугалланади, абстиненция ва психоз ривожланади.

Ўтказиб юборилган ёки наркоманиянинг оғир шакли босқичи- бунда организмдаги барча ҳаётий муҳим органларда амалга ошувчи биокимёвий жараёнлар фақат наркотик моддалар истеъмолига боғлиқ бўлиб қолиб, ўткир психик, соматоген, неврологик ўзгаришларга олиб келади.

Хулоса қилиб айтганда, наркомания қандай шаклда ва турда намоён бўлмасин, у инсон организмида кечадиган биокимёвий жараёнларга ўзининг салбий ва ҳалокатли таъсирини ўтказмасдан қўймайди. Наркомания тузоғига илинган одам оилада ва жамиятда ўз ўрнини йўқотиб боради.

Бу ҳаётда яшаш учун инсонга ақл, онг ва тафаккур берилган. Зеро, инсоният ер юзидаги жамики тирикликнинг гултожи, эволюцион тараққиётнинг энг етук намоёндаси ҳисобланиб, тубанлик ва ҳалокатга етакловчи жарлик сари эмас, балки руҳан ва жисмонан комиллик чўққиси сари илдам одимлаши керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абу Али ибн Сино, “Тиб қонунлари” 2-жилд. 1975 й. Тошкент
2. Авторский коллектив, “Справочник по психиатрии” 1985 г. Москва.
3. М.Д.Машковский, “Лекарственные средства” 1-2 томах. 1988г. Медицина. Москва.
4. С.Южаков. “Современные лекарственные средства”. Словарь-справочник. 2008 г. Москва
5. А.Сергеев и др. “Организация борьбы с наркоманией” 1988 г. Киев
6. М.Набиев, “Гиёҳвандлик умр заволи”. 1989 й. Тошкент.

Ш.Ш.Облокулов

Buxoro davlat tibbiyot instituti

shavkatoblokulov5@gmail.com

ИНСОН ОРГАНИЗМИДА НАРКОТИК МОДДАЛАРГА ҚАРАМЛИКНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ.

Аннотация. Ҳозирги вақтда наркотик хусусиятга эга бўлган баъзи моддалар тиббий мақсадларда ишлатилмоқда. Шунингдек, тиббий мақсадларга боғлиқ бўлмаган ҳолда наркотик воситаларини суистеъмол қилиш ҳолатлари ҳам учраб туради. Ушбу мақолада инсоннинг наркотик моддаларга қарам бўлиб қолиши оқибатлари, уни юзага келтирувчи омиллар ҳамда наркомания турлари ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: гашишизм, тетрагидроканнабинол, опиум, морфин, диацетилморфин, кокаин, кокаинизм.

Ҳозирги вақтда наркотик хусусиятга эга бўлган баъзи моддалар тиббий мақсадларда ишлатилмоқда. Тиббий мақсадларга боғлиқ бўлмаган ҳолда баъзи одамлар томонидан истеъмол қилинадиган турли хилдаги наркотик воситаларига кўра, наркомания ҳам бир неча турларга бўлинади:

-Гашишизм - каннабис ўсимлигидан олинадиган наркотик воситаларга қарамлик. Бунда фаол таъсир этувчи модда каннабис таркибидаги тетрагидроканнабинол ҳисобланади.

Каннабис таркибидаги тетрагидроканнабинол концентрацияси ўсимликнинг навига ва пишиб етилганлик даражасига боғлиқ бўлиб, асосан чекиш йўли билан истеъмол қилинади. Гашишизм наркоманиянинг энг кенг тарқалган тури ҳисобланиб, кўпинча ёшлар орасида учрайди. Инсон характеридаги руҳий тушкунлик ва иродасизлик, қизиққонлик, ўзини омадсиз ҳис қилиш каби ҳолатлар гашишизмга йўлиқишнинг асосий омиллари ҳисобланади.

-Морфин гуруҳи алкалоидларига қарамликдан келиб чиқадиган морфинизм (опиомания).

Морфин опиум таркибида энг кўп учрайдиган модда бўлиб, унинг манбаси кўкнори ўсимлиги шираси ҳисобланади. Морфин биринчи марта немис фармацевти Сертюрнер томонидан опий таркибидан ажратиб олинган. Модданинг хусусиятларини инобатга олиб, Сертюрнер уни қадимги юнонлардаги уйку худоси Морфей шарафига морфий деб атади. Морфин гуруҳи алкалоидларига морфин, кодеин, наркотин, тебаин, папаверин каби йигирмадан ортиқ моддалар киради. Ҳозирги вақтда полусинтетик усулда олинадиган дезоморфин ва диацетилморфин моддаси ҳам кенг тарқалган. Диацетилморфиннинг бошқача номи героин ҳам деб аталади. Героин ўзининг таъсир тезлиги юқорилиги билан опиоидлар ичида алоҳида ажралиб туради.

Морфин қатори алкалоидлари истеъмол қилинганда, 15-30 минутдан сўнг марказий нерв системасига салбий таъсир этиб, секин-аста унинг фаолиятини сусайтириб боради. Қайд қилиш ёки уйку келиши кузатилади. Наркоз ҳолатини пайдо қилиб, оғриқ сезилмаслиги мумкин. Шунингдек, кулоқда кучли шовқин, оғиз қақраши, баъзан эса бадан терисида қонталаш, қичишиш кузатилиб, ҳар хил тошмалар тошади. Бу турдаги наркотиклар билан заҳарланишда, кўпинча нафас олиш ва юрак ритми бузилиб, секинлашади. Кўз қорачиғи кескин қисқаради. Рефлекслар заифлашиб, ошқозон-ичак секрецияси тормозланади. Баъзи ҳолларда эса, тана ҳарорати кескин пасайиб, гипоксия ва цианоз ривожланиши, нафас олиш системаси фалажланиши эвазига ўлим содир бўлиши мумкин.

-Кокаинизм- кокаин ва унинг ҳосилаларига қарамликдан келиб чиқади. Кокаиннинг хлоридли тузи анестезия мақсадларида қатъий чекланган тартибда тиббиётда ишлатилади. Кокаинизм ҳам наркоманиянинг бошқа турлари сингари қадимдан

маълум бўлиб, кокаиндан асосан Марказий ва Жанубий Америка халқлари эйфорияни чақириси, галлюциноген таъсири сабабли фойдаланиб келишган. Кокаиндан заҳарланишда одам тери ранги оқариб кетади. Кўз қорачиқлари кенгайиб, умумий ҳолсизлик, бош айланиши, аритмия, нафас етишмаслиги кузатилади. Оғир ҳолларда организм фалажланиб, ўлимга олиб келиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Наркотик воситалари тўғрисидаги БМТ Ягона Конвенцияси (1972 йилдаги тўлдириш ва қўшимчалар билан) 1961 й. Нью-Йорк.
2. Авторский коллектив “Справочник по психиатрии” 1985 г. Москва.
3. М.Д.Машковский “Лекарственные средства” 1-2 томах. 1988г. Медицина.
<https://uz.drunkentengu.com/>

Д.Ш.Бахтиёрова, Ж.Х. Жумев

*Бухарский инженерно-технологический институт
jabbor.jumayev@mail.ru*

РОЛЬ ПРОИЗВОДНЫХ МОРФОЛИНА В БИОЛОГИЧЕСКОЙ ХИМИИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация Морфолин и его важные производные используются во многих областях. В статье освещена область применения синтезированного авторами вещества. Область применения сравнивается с ранее полученными продуктами.

Ключевые слова: N-морфолинбутадие-2,3, морфолина, 4-бензил-морфолин, 3,4,5-трихлор-2,6-пиридиндикарбонитрил, фармацевтических при-менений, гидропериодид морфолина.

Было установлено, что ряд производных морфолина обладают бактерицидной активностью. Например, соли морфолина полученные в результате ацилирования сульфаниламидов обладают сильными бактериостатическими и бактерицидными свойствами, а в качестве дезинфицирующего средства для воды используется гидропериодид морфолина. В результате реакции морфолина с 3,4,5-трихлор-2,6-пиридиндикарбонитрилом получается продукт, который полезен для борьбы с вредными микроорганизмами [1]. Морфолин так же используется для получения соединений, которые являются отличными гербицидами используемых в сельском хозяйстве для борьбы с сорняками.

Физиологическая активность морфолинового ядра подтверждается количеством найденных для него фармацевтических применений. Гидропериодид подходит для включения в мази для лечения кожных заболеваний, таких как стопа спортсмена [2].

Ряд производных морфолина был описан как анальгетики и местные анестетики. Особенно эффективны 4-бензилморфолины. Например, сообщается, что 4-(4-бромбензил) морфолин токсичен всего на 25% по сравнению с прокаинам, но почти равен ему по активности.


Несколько химических веществ, полученных из морфолина, полезны в качестве респираторных и вазомоторных стимуляторов. N,N'-этиленбис (N-алкил-4-морфолинкарбоксамиды) особенно ценны, поскольку отношение активной дозы к токсической дозе низкое [3]. Производное дибутила, например, проявляет в 12 раз большую активность, чем никетамид.

Другие области фармацевтики, в которых морфолин нашел применение, включают желчегонные, спазмолитические, аналептические и противомаларийные средства. Кроме того, заявлено применение морфолина в качестве пептизирующего агента для получения водных дисперсий фенотиазинов в противоглистных целях. Аналогичным образом, было запатентовано использование морфолина для получения растворимых

солей некоторых сульфаниламидов, и утверждается, что различные производные обладают терапевтической ценностью.

На основании приведенных выше данных нами синтезирован [4] N-морфолинбутадие-2,3.

В общем виде реакцию можно описать следующим образом.



Изучена биологическая активность синтезированных соединений и установлено, что противовоспалительные свойства N-винилморфолина под действием каррагинана не уступают используемому в медицине аспирину, и эти вещества относятся к категории относительно малотоксичных соединений.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. ГАРИ С. и др. Фунгицидные производные 2-пиридилметилкарбоксамидов. – 2010. С-62-69
2. Геворкян К. А. и др. Синтез и изучение антибактериальной активности 2-хинолин-1, 3-диазаадамантов, содержащих пиперидиновую или морфолиновую группу во втором положении хинолинового ядра 2015. – Т. 68. – №. 2. – С. 259-265.
3. Dymock B. W. et al. Sales de adicion de acido, hidratos y polimorfos de la etil-amida del acido 5-(2, 4-dihidroxi-5-isopropil-fenil)-4-(4-morfolin-4-il-metil-fenil)-isoxazol-3-carboxilico, y formulaciones que comprenden estas formas : пат. – 2010.
4. Жумаев Ж. Х., Шарипова Н. У. Влияние растворителей на процесс взаимодействия морфолина с винилацетиленом //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 11-2 (77). – С. 4-7.

Мардонов Ў.М., Ганиев Б.Ш., Сайфуллаев М.С., Музафаров Ф.И.
Бухоро давлат университети
b.ganiyev1990@gmail.com

ГЛУТАМИННИНГ Cu^{+2} ИОНИ БИЛАН КОМПЛЕКСИНИНГ БИОЛОГИК ФАОЛЛИГИНИ ЎРГАНИШ (PASS ТАҲЛИЛИ)

Аннотация: Ушбу мақолада глутаминнинг нейтрал, цвиттер-ион ҳолатлари, $\text{Cu}(\text{II})$ иони билан синтез қилинган комплекс бирикмасининг биологик фаолликларини PASS дастури асосида ўрганиш натижалари келтирилган.


Калит сўзлар: PASS анализ, биологик фаоллик, мукозит, цвиттер-ион, ингибитор, дисульфидредуктаза.

mahammadjonovt@gmail.com*

ONKOVIRUSLAR MAVZUSINI O'QITISHDA SEMINAR MASHG'ULOT DARSLARINING O'RNI


Annotatsiya. Biologik kimyo fanida “Onkogenez” mavzusini o’qitishda kompyuter texnologiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llagan xolda talabaga berilayotgan ma’lumotlarni esda qolishini ta’minlash.

Kalit so’zlar. Biologik kimyo, Onkogenez, Onkovirus, Kanserojen, Radiaktivlik, Gepatit B virusi, Inson papilloma virusi, Gerpes virus, Epshtein-Barr virusi, Poliomasvirus, Sitomegalovirus, T-limfotrop virusi, Gepatit C virusi

Tadqiqot material va usullari. Odamlarda saraton kasalligining paydo bo’lishida yetakchi o’rinni taxminan 80 % atrof-muhit omillari — turmush tarzi, oziq-ovqat mahsulotlari va shu kabilar egallaydi. Qolgan 20% qismni o’smalar rivojlanish xavfini oshiradigan kasalliklar va genomdagi irsiy o’zgarishlar tufayli kelib chiqadi. O’sma paydo bo’lishini stimullaydigan omillar **kanserojenlar** deb ataladi. Ularni katta uch guruhga bo’lish mumkin: **nurlanish, kimyoviy birikmalar va viruslar.** [1]

Onkovirus (shuningdek, onkogen virus, o’sma hosil qiluvchi virus) - bu o’smalarning rivojlanishiga olib keladigan barcha viruslarning umumiy nomi. 1975 yildan 1990 yilgacha retroviruslar oilasining Oncovirinae ham deb nomlangan, ammo hozirgi vaqtda bu tasnif eskirgan. Inson onkoviruslari quyidagilarni o’z ichiga oladi:


Gepatit B virusi gepadnaviruslar oilasiga mansub DNK saqlovchi virus, virusli hepatit B qo’zg’atuvchisi. Dunyoda, hisob-kitoblarga ko’ra, 3-6% odam hepatit B virusi bilan kasallangan. Virusni tashuvchisi kasallik belgilari hepatit bilan kechishi shart emas, lekin virus tashuvchisi boshqa odamlarga yuqtirishi mumkin. Gepatit B 20-25 yilda jigar saratoniga olib keladi



Gepatit B virusi


Inson papilloma viruslari IPV. papillomaviruslar oilasiga mansub viruslar guruhi bo'lib, 5 avloddan (Alfapapilloma virus, Betapapilloma virus, Gammapapilloma virus, Mupapilloma virus va Nupapilloma virus) va 170 dan ortiq turlari (shtammlar) mavjud.

Jinsiy faol aholining taxminan 80% hayot davomida IPV bilan kasallanadi. Dunyoda 660 million odam allaqachon IPV bilan kasallangan (dunyo aholisining 12 %). Dunyoda har yili IPV bilan bog'liq saraton kasalligining 750 ming holati va anogenital so'g'allarning 32 million holati qayd etiladi. Har yili 300 mingdan ortiq odam IPV keltirib chiqaradigan saraton kasalligidan vafot etadi. IPV AQSh, Rossiya va boshqa ko'plab mamlakatlarda jinsiy yo'l bilan yuqadigan eng keng tarqalgan kasallikdir.




Inson papilloma virusi

Herpesvirus. Kaposhi sarkomasi bilan bog'liq Bu hozirda ma'lum bo'lgan sakkizta onkoviruslardan biridir.




Herpes virus

Epshtein-Barr virusi. DNK saqlovchi virus xisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu virus boshqa herpes viruslari bilan birga inson tanasida o'simta hujayralarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Epshtein-Barr virusi Burkitt limfomasi, yuqumli mononuklyozli bemorlarning qonida, leykemiya hujayralarida va sog'lom miya hujayralarida yaxshi ko'payadi. Boshqa herpes viruslaridan farqli o'laroq, u hujayra o'limiga olib kelmaydi, aksincha, ularning ko'payishini faollashtiradi.



Epshtein-Barr virusi

Poliomavirus. Alfapoliomavirus jinsiga mansub poliomavirusning bir turi. Bu teri saratonining agressiv shakli xisoblanadi. Karsinoma keltirib chiqaradigan DNK saqlovchi onkovirusdir. Ushbu turdagi karsinomalarning taxminan 80% Poliomavirus bilan kasallangan. Ushbu virus juda keng tarqalgan bo'lib, ko'pchilik odamlar bolalik va o'smirlik davrida yuqadi, deb ishoniladi.




Poliomavirus

Sitomegalovirus (Sitomegalovirus) jinsiga mansub herpesvirus, Epstein-Barr virusi kabi inson herpesining boshqa turlari bilan birga odamlarga yuqishi mumkin. Virus 1956-yilda kashf etilgan, 1979-yilda Viruslar taksonomiyasi bo'yicha xalqaro qo'mitada ro'yxatga olingan, 2016-yilda u barcha herpesviruslar kabi ilmiy nomini o'zgartirgan.

Inson sitomegalovirus infeksiyasining qo'zg'atuvchisi xisoblanadi. Bu faqat immuniteti past bo'lgan ayrim toifadagi odamlar uchun xavflidir.


Hozirgi vaqtda inson sitomegalovirusining uchta shtammi ma'lum. Virusning rivojlanishi inson fibroblastlarida sodir bo'ladi. Ta'sirlangan hujayralar patogen zarrachalar to'planib, ulkan o'lchamlarga ega bo'ladi. Virusni ko'paytirish jarayoni leykotsitlarda sodir bo'lib, qiz virusli zarrachalarning shakllanishi bilan yakunlanadi, ular zararlangan hujayradan chiqib, yaqin atrofdagi hujayralar retseptorlariga ta'sir qiladi va ularga hujum qiladi. [2]



Sitomegalovirus

T-limfotrop virusi Deltaretrovirus jinsiga mansub bo'lib, odamlarda T-hujayrali leykemiya va T-hujayrali limfoma kabi limfoid va gematopoetik to'qimalarning xavfli o'smalarini keltirib chiqaradi. Voyaga etgan T-limfotrop virusi virusning shtammi bo'lib, asosan kattalarga ta'sir qiladi.


Odamning T-limfotrop virusi genomi diploid bo'lib, bir zanjirli RNKning ikki nusxasidan iborat bo'lib, ularda bir zanjirli, keyin esa ikki zanjirli DNK zararlangan organizmda sintezlanadi. Ikki zanjirli DNK provirus sifatida xost genomiga qo'shimcha ravishda integratsiyalangan.



T-limfotrop virusi

Gepatit C virusi odamlarda va shimpanzelarda hepatit C qo'zg'atuvchisidir. Flaviviridae oilasiga mansub RNK o'z ichiga olgan virus. Xuddi shu turga itlar va otlarda hepatit

C ga o'xshash kasalliklarni keltirib chiqaradigan viruslar kiradi. 1989 yilda infeksiyalangan shimpanzelerde A bo'lmagan, B bo'lmagan parenteral gepatitni keltirib chiqaradigan virusning DNK nusxasini klonlash orqali kashf etilgan. Bu elektron mikroskopik vizualizatsiyadan ancha oldin nukleotidlar ketma-ketligini dekodlash asosida aniqlangan birinchi virusdir. Viruslarning Baltimor tasnifiga ko'ra, u IV sinfga tegishli. Bugungi kunga qadar dunyo aholisining kamida 3 % ushbu virus bilan kasallangan . [3]



Gepatit C virusi

Xulosa. Tibbiyot instituti talabalari yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orqali onkologiya sohasida kasalliklarni aniqlash, tashxis qo'yish va davolash ishlarini amalga oshirishi, kelesakda ish faoliyatida foydalanishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Sobirova R.A., Yo'ldashev N.M. "Biologik kimyo" II qism. 2021 y.
2. <https://ru.wikipedia.org/>
3. dic.academic.ru

K.E.To'ymurodova, Z.K.Qodirova
Buxoro davlat universiteti
qodirovazulfiya@mail.ru

OQSILLAR TARKIBIDAGI AMINOKISLOTALARNI QOG'OZ XROMATOGRAFIYASI USULIDA AJRATISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada Oqsillar tarkibidagi aminokislotalarni gidrolizlab olish, undan so'rim tayyorlash, eritmadan xromatografiya qog'ozida namunalari qo'yib, uning aminokislota tarkibini aniqlash haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Oqsil, aminokislota, xromatografiya, «guvoh» moddalar, taqsimlanish koeffitsienti.

Oqsillar tarkibidagi aminokislotalarni aniqlash uchun avval oqsilni gidrolizlab, erkin aminokislotalarni hosil qilish kerak. Buning uchun o'simlik yoki hayvon oqsilidan so'rim tayyorlash kerak. So'rim tayyorlash uchun oqsilga boy no'xat yoki soya o'simligi donini olish mumkin. Avval 1g no'xat olinib yaxshilab eziladi va 75% li 10 ml qaynoq etil spirti bilan aralastiriladi. Eritmaga o'tgan oqsil filtrlab olinib, filtrat suv hammomida quriguncha bug'latiladi. Qoldiqqa 1 ml 1% li xlorid kislotasi eritmasi qo'shiladi. Bunda kislotasi ta'sirida gidroliz borib, oqsil aminokislotalarga parchalanadi. Eritmadan xromatografiya qog'ozida namunalari qo'yib, butanol-sirka kislotasi-suv (4:1:1) tizimidagi erituvchilar sistemasi bilan xromatografiyalanadi. Aminokislotalarni ochish uchun ningidrinning 1% li eritmasidan foydalanish mumkin. Toza aminokislotalarning namunalari bo'lsa, ulardan guvoh sifatida dog'lar qo'yilsa, o'simlik tarkibida qanaqa aminokislotalar borligini aniqlash qiyin emas. [1]

Ishni bajarish uchun maxsus xromatografiya qog'ozidan (yoki filtr qog'ozidan) eni xromatografiya uchun ishlatiladigan stilindning diametridan bir oz kichik, uzunligi 30-50 sm oralig'ida qirqib olinib, yuqori qismiga 15-20 sm uzunlikda ip o'tkazib bog'lab quyiladi.

Qog'oz lentaning pastki chekkasidan 1-2 sm yuqoriga qora grafit qalam bilan gorizontal chiziq o'tkaziladi. So'ngra qog'ozdagi bu chiziqqa (2-2,5 sm oraliqda) to'rtta nuqta belgilanib, shu nuqtalarga tekshirilayotgan aminokislotalar aralashmasining spirtli eritmasidan va «guvoh» moddalar – valin, glistin, fenilalaninlarning ham spirtli eritmadaridan bir necha tomchidan, (yuqorida bayon qilingan usulda) tomizilib, so'ng havoda quritiladi.

Xromatografiya uchun ishlatiladigan uzun stilindrga fenolning suvdagi to'yingan eritmasi yoki n-butanol-suv-muz sirka kislota (4:5:1) dan iborat erituvchilar sistemasi quyiladi. Tayyorlangan qog'oz lenta ipdan ushlab, 2-3 mm chuqurlikda – erituvchiga botgunicha tushiriladi, qog'ozni stilindr devoriga tekkizmay va aniq vertikal holatda saqlab probka (qopqoq) bilan berkitib quyiladi. Silindr 35-40°C termostatda 1,5-2,0 soatdavomida qoldiriladi. Shu vaqt ichida erituvchi 10-25 sm ga ko'tariladi. Ko'rsatilgan vaqt o'tgandan keyin xromatografik qog'oz stilindrdan olinib, qalam bilan front chizig'i belgilanadi va xromatogramma fenol yoki boshqa erituvchi batomom uchib ketgunicha mo'rili shkafda yoki maxsus quritish kamerasida quritiladi [2].

Erituvchi uchib ketgach, qog'oz lentani olib, shtativga ilib qo'yiladi va unga 0,1-0,2% li ningidrinning spirtli eritmasidan pulverizator yordamida purkaladi yoki kyuvetaga ningidrin eritmasi quyib, unga xromatografik qog'oz botiriladi. Yana 100-110°C li quritgich shkafga 5-6 minut ilib qo'yiladi. Natijada qog'ozning aminokislota to'xtagan joyi, ko'k, ko'k-binafsha rangga bo'yaladi. Tekshirilayotgan aminokislotalar eritmasidan hosil bo'lgan dog'larning taqsimlanish koeffitsienti hisoblanib, «guvoh» moddalar – valin, glistin, fenilalaninlarning taqsimlanish koeffitsienti (R_f) bilan solishtiriladi. Bu aminokislotalarni n-butanol-suv-muz sirka kislota (4:5:1) nisbatdagi sistemasidagi taqsimlanish koeffitsienti R_f , glistin-0,13; valin-0,36 va fenilalanin uchun 0,46 ga teng. Fenolning suvdagi to'yingan eritmasida glistin-0,41; valin-0,76; fenilalanin-0,87.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, qogoz xromatografiyasi usulida moddalarni aniqlash ancha qulay va tejamkordir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S.U. Ubaydullayeva, Q.H.Axmedov Organik birikmalarni xromatografik ajratish usullari. T.: Universitet. 2007. [50-58b]
2. Ergashov M.Y., Qodirova Z.Q. Biokimyodan laboratoriya mashg'ulotlari - Toshkent: Muharrir, 2018. - 180 b.

*Umarova S.M., Xoldarova D.U.
Qarshi Davlat Pedagogika Instituti*

XAVFLI VA ZARARLI OMILLARNI INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI

Annotasiya Zararli va xavfli omillar inson organizmiga salbiy ta'sir qilib, uyqusizlik, vahima, bosh og'rishi, aylanishi, tez –tez yurak urishi, yurak qon-tomir ishini buzilishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: taxikardiya, gemogloblin, vibratsiya, patogen mikroblar, toksinlar, zararli odatlar, tabiiy ofatlar.

Kimyo sanoati korxonalarida olinadigan moddalar, kimyoviy birikmalar changi, zararli gazlar inson salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Havoda uglerod oksidi miqdori ko'paysa bosh aylanishi, yurak tez-tez urishi (taxikardiya), gemoglobin kamayishi, yurak-qon tomir sistemasining buzilishiga olib keladi. Sanoat chiqindilari, kimyoviy korxonalarining ish faoliyati, yadro sinovlari, kosmik parvozlari tabiat muvozanatiga va insonlar hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Kimyo sanoati korxonalarida olinadigan, ishlatiladigan moddalar – ammiak, gazlar, benzin, kerosin, spirtlar, efirlar, kislota va ishqorlar zaharli hisoblanadi. Mehnat qilish jarayonida shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish zarur.

Inson salomatligiga, psixologiyasiga salbiy ta'sir etuvchi zararli odatlar – bu spirtli ichimliklar, sigaret, nos, nasha va hokazolardir.

Spirtli ichimliklarnit muntazam ravishda iste'mol qilish, sigaret, nos, nasha chekish natijasida insonning sog'ligi zaiflashadi, xotira va ish qobiliyati pasayadi, psixologik o'zgarishlar paydo bo'ladi. Tabiiy ofatlar natijasida insonlar ruhiyatida sodir bo'ladigan asosiy o'zgarishlar – bu uyqusizlik, vaxima, kuchli hayajonlanish, kechalari qo'rqib uyg'onish, sarosimaga tushish va boshqalardir.

Baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin bo'lgan psixofiziologik sabablar – bu insonning ish faoliyati davomida psixologik rejimning buzilishi, charchash, kasallik holatlari, oilaviy notinchlik, ish jamoasidagi kelishmovchiliklar va boshqalardir. Ish boshlashdan avval yaxshilab diqqatni jamlash, hamda nima va qanday ish qilishni bilish zarur. Shunda inson kamroq toliqadi va charchash ham deyarli kuzatilmaydi. Aqliy mehnat jismoniy mehnat bilan almashtirib turilsa, inson uzoq vaqt charchamaydi, ishi unumli bo'ladi. Chunki aqliy mehnat vaqtida qo'zqalغان markazlar, jismoniy mehnat vaqtida dam oladi. Shuning uchun yaxshi uxlab turgandan so'ng odamning ish qobiliyati ortadi.

Insonning salomatligiga va psixologik faoliyatiga ijobiy ta'sir etadigan ichimliklar bor. Bular: choy, kofe. Bu suyuqliklar insonni tetik, bardam qiladi, ruhiy, aqliy va jismoniy qobiliyatni kuchaytiradi, yurak ishini jonlantiradi. Insonning samarali mehnat faoliyati uning psixologik holatiga, sog'liqiga, xavfsiz ish sharoitiga bog'liqdir.

Fizikaviy – vibratsiya, elektr magnit to'lqinlari, shovqin, infraqizil nurlar, ultrabinafsha radiatsiyasi. Elektr toki, mashina, mexanizmlar, tepadan narsalarning tushishi, balandlik.

Kimyoviy – ish joyining gazlar bilan ifloslanganligi, ximiyaviy birikmalarning changa, teriga zaharli moddalarning tushishi oshqozon-ichak yo'llariga zaharli moddalarning tushishi. Kislota, ishqorlarning ta'siri.

Biologik – patogen mikroblar va ularning toksinlari. Hayvon, o'simliklar o'rtasidagi yuqumli kasalliklarning tarqalishi.

Psixofiziologik – asab-ruhiy: xodimlar, o'qituvchilar, talabalar mehnati, ijod bilan shug'ullanuvchilar.

Zararli odatlar – sigaret, nos, nasha, spirtli ichimliklarning organizmga salbiy ta'siri.

Avariya, halokatlar, tabiiy ofatlar, fojiiyalar insonlarda emotsional hayajonlanishni keltirib chiqaradi. Natijada inson turli emotsiyaviy kuchlanish xolatlarida bo'lib qoladi. Odamlar sog'ligi yomonlashadi, stress holatlariga tushib qolishi mumkin. Barcha qiyin vaziyatlarda hal qiluvchi rol, insonni psixologik holati va ma'naviy ruhini chiniqtirishga bog'liq. Psixologik va ma'naviy ruhiy chiniqqan inson istalgan keskin paytida tushinib, aniq mo'ljallangan, qat'iy harakatlarga tayyor bo'lib turadi. Ularda yuqori ma'naviy-psixologik barqarorligi, matonat, dadillik talab etiladi. Jabrlanuvchilarga yordam berishga, nobud bo'layotgan moddiy boyliklarni qutqarib qolishga tayyor bo'lishni talab etadi. Tabiiy ofatlar insonni ruhiga salbiy ta'sir etadi.

Ayni hollarda normal fikrlash jarayonini buzilishiga o'z ustidan nazoratni pasayishiga yoki umuman yo'qolishiga olib keladi.

Avariya va halokat, tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etuvchi rahbarlar ko'pincha har tomonlama chiniqqan insonlardan foydalanishiga to'g'ri keladi.

Ular eng xavfli joylarga borishga doim tayyor bo'lib, ongli ravishda, o'ziga ishongan, yurish-turishini boshqarishi va stress faktorlar ta'siriga bardosh bera oladigan insonlar bo'lishi lozim. Shunday insonlar borki favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, ekstremal holatlarida odamlarni qutqarishda dadillik bilan ruhini tushirmasdan harakat qiladilar.

Psixologik tayyorlanmagan, chiniqmagan insonlarni ayrimlarida, qo'rquv tuyg'usi va xavfli joylardan qochib ketishga intilish paydo bo'ladi, boshqalarida esa psixologik shokdan qotib qolish kuzatiladi, fikrlash jarayoni butunlay buziladi.

Asablanish jarayoni (qo'zqalish yoki tormozlanish) turli xilda namoyon bo'ladi. Shunday hodisalar bo'ladiki qattiq qo'rquvdan yurak-tomir sistemasi buzilishi sababli nobud bo'lganlar ham bor. Tabiiy ofatlarni bartaraf etishda ruhiy tushkunlikka tushgan odamlarni ham

ko'rish mumkin, ular uzoq vaqt davomida vayron bo'lgan joylarda maqsadsiz sandiroqlab yurishi mumkin. Insonlarni shu holatga tushib qolishining sabablari quyidagicha: xavfsizlikni to'satdan yuzaga kelishi, uni kelib chiqish sababini bilmasligi va tabiiy ofatni yoki avariyaning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlarini bilmaslik, shu sharoitda o'zini tutish qoidalarini, tajribasi va malakasi bo'lmasligi, ma'naviy-psixologik tayyorgarligini kamligi sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Germaniya, 2007
2. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. –T.: “Tafakkur qanoti”, 2015
3. E.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014
4. O.R. Yuldashev, Sh.G. Djaborova, O.T. Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.: “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014
5. Yormatov G'. Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009.
6. Ramazonova R.A., Sadikova H.A. va boshq. Favqulotda vaziyatlar uchun tibbiy hamshiralar tayyorlash. O'quv qo'llanma. T.: «Yangi asr avlodi». 2006.

*Акбаров А.Т., Холмуродова Д. Қ.
Самарқанд Давлат Тиббиёт Университети
asliddinakbarov19@gmail.com*

ФАРМАЦИЯНИ ЎРГАНИШДА КИМЁНИНГ БИОКИМЁВИЙ ЖАРАЁНЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШДАГИ ВАЗИФАСИ.

Аннотация: Ушбу мақолада фармация йўналишидаги олий ўқув юртларининг талабалари нима учун биокимёни ўрганиши кераклиги, ва бунда тиббий кимёнинг қандай аҳамиятга эга эканлиги ҳақида фикр юритилган.


Таянч сўзлар: фармацевтика, органик кимё, биоорганик кимё, биокимё, интеграция, вазиятли масала.

Халқимиз саломатлигини мустаҳкамлаш, аҳолини сифатли ва арзон дори воситалари билан таъминлаш Президентимизнинг доимий эътиборида бўлиб келмоқда. Бунинг учун фармацевтика саноатини ривожлантириш учун кўпгина қарорлар ва фармойишлар қабул қилинмоқди. Бу соҳани ривожлантириш учун фармацевтика йўналишидаги олий ўқув юртларда, техникумларда таълим сифатини ошириш ҳозирги даврнинг асосий талаби. Четдан кириб келаётган дори воситаларини ўзимизда ишлаб чиқариш ҳозирги замон талаби. Фармацевт, фармацевт-технологларга бўлган талаб ошиб бормоқда. Дори воситаларини ишлаб чиқариш учун авваламбор фармацевт, фармацевт-технолог организмда борадиган биокимёвий жараёнларни ўрганиши шарт. Ўзбекистонда фармация йўналишидаги олий ўқув юртларига кириш имтиҳонларида кимё фанидан саволлар асосий блок ҳисобланади. Олий ўқув юртининг 1-курсиданоқ талабаларга аорганик кимё, органик кимё, физик-коллоид кимё фанлари, 2-курсдан эса биокимё фани ўтилади. Биокимё фани анча мураккаб ва талаба бу фанни ўрганиш учун ўз устида кўпроқ ишлаши керак. Айниқса органик ва биоорганик кимё фанларини яхши ўзлаштириш бўлажак фармацевт учун фармацияга йўл очади.

Биокимё фани - организмда борадиган кимёвий жараёнлар, қандай реакциялар билан бориши, бу реакциялар натижасида организмда қандай ўзгаришлар келиб чиқиши ва бу ўзгаришлар қандай патологик ҳолатларга олиб келишини ўрганувчи фан ҳисобланади. Демак, фармацевт бир дори воситасини яратиш учун унинг таъсир

механизмини билиши шарт экан. Ва албатта биокимё фанини чуқур ўрганиш талаб этилади. Биз биламизки кимё фани биокимё учун фундамент фан ҳисобланади.

Буни 2 фанни интеграцияси мисолида тушунтирмақчиман. Оксиллар тирик организмнинг асоси бўлиб, структура, химоя, ҳаракат, транспорт вазифаларини бажаради. Организмдаги асосий биокимёвий жараёнлар оксиллар иштирокида боради. Лекин, оксилларнинг тузилишини, полипептид занжирлар тузилишини, пептидлар таркибини, пептидлар таркибидаги аминокислоталарнинг тузилиш формулаларини, кимёвий хоссаларини ўрганмасдан организмдаги вазифаларини ўрганиб бўлмайди. Ёки оддий аспирин мисолида кимёни биокимёдаги ўрнини кўришимиз мумкин. Аспирин иситма тушурувчи, оғриқ қолдирувчи, қонни суюлтириш хоссаларига эга.



Лекин, аспиринни тузилишини, кимёвий хоссаларини билиб, организмга таъсирини яъни биокимёвий ҳолатини билмаслик фармацевт учун катта асосий муаммо ҳисобланади.

Демак, фармацевт, фармацевт-технолог кимё билан биргаликда организмда борадиган барча биокимёвий жараёнларни ўрганиши ва бу жараёнлар ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлишлари керак. Шундагина, мухтарам Президентимиз асосий урғуни бераётган фармацевтика саноати ва бунинг асосида Ўзбекистон тиббиёти ривожланиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алимходжаева Н. Т., Таджиева Х. С. Тиббий кимё: дарслик. II – қимс. (Биоорганик кимё).
2. Собиров С, Органик кимё ўқув қўлланма.
3. Хасанов М. М, Органик кимё дарслик.

А.К. Мамырбекова

*Международный казахско-турецкий университет им. Х.А. Ясави,
Туркестан, Казахстан*

E-mail: aigul.mamyrbekova@ayu.edu.kz

ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ПО БИОХИМИИ В ОНЛАЙН-РЕЖИМЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МКТУ ИМ. ХОДЖИ АХМЕДА ЯСАВИ

Аннотация. Рассматриваются актуальные вопросы обучения студентов по биохимии в онлайн-режиме с использованием современных инновационных технологий в Международном казахско-турецком университете им. Ходжи Ахмеда Ясави. Система дистанционного обучения Moodle позволяет преподавателю создать электронный курс, при этом управлять работой курса. Данная система позволяет преподавателю загрузить весь учебно-методический комплекс дисциплины, ход проведения практического занятия с применением онлайн-платформы Zoom, задания для контроля знаний в виде многоуровневых тестов и ситуационных задач различной сложности, а также самостоятельная работа обучающихся. Преимуществом онлайн-формата обучения курса биохимии является возможность для преподавателя и обучающегося повышать уровень

IT-компетенций, креативного мышления и быстрой перестройки и адаптации в цифровом пространстве.

Ключевые слова: Биохимия, дистанционное обучение, инновационные технологии, видеоконференция, интернет-технологии.

Перенос обучения в казахстанских вузах в дистанционный формат в условиях пандемии позволил усовершенствовать механизмы трансляции знаний, обеспечивающих возможность непрерывного обучения студентов в соответствии с потребностями образовательного процесса в целом. Новые информационные технологии, которые связаны с информатизацией в стране в сфере образования, дали развитию методов дистанционного обучения, повысить эффективность онлайн-обучения с применением дистанционных образовательных технологий (ДОТ) [1,2].

На сегодняшний день большая часть учебных заведений различного уровня в Казахстане и за рубежом используют в образовательном процессе дистанционное обучение. В образовательный процесс внедряется большое количество программ и интернет-ресурсов, позволяющие проводить продуктивно и нестандартно занятия в онлайн-формате, такие как системы управления курсами, виртуальная обучающая среда - Moodle, Ilias, ATutor, Claroline, Sakai, TrainingWare Class, а также видеоконференции и вебинары - Zoom, DingTalk Lite, Google Meet, Microsoft Teams, Skype и др. На момент форс-мажорных обстоятельств во время дистанционного обучения используются e-mail, Telegram и WhatsApp [3,4].

В вузах Казахстана обучение в прошлом учебном году проходило в дистанционном формате. В целях подготовки вузов к обучению и обеспечения качества образования Министерство образования и науки Республики Казахстан (МОН РК) разработало методические рекомендации по организации учебного процесса в период ограничительных мер и подготовило чек-листы по подготовке к дистанционному обучению. На основании приказов и рекомендаций МОН РК в Международном казахско-турецком университете им. Ходжи Ахмеда Ясави по направлению «Здравоохранение» в весеннем семестре обучение проходит в смешанном формате с использованием офлайн и онлайн-обучения. Лекции и семинары проводятся онлайн. Лабораторные и практические занятия проходили в очном формате при соблюдении санитарного режима и социальной дистанции.

В вузе действует основная платформа по дистанционному обучению СДО Moodle (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment - модульная объектно-ориентированная динамическая обучающая среда), а также автоматизированная информационная система Platonus, предназначенная для автоматизации учебного процесса в вузе, в частности для организации текущего, промежуточного контроля и итоговой аттестации обучающихся. Система дистанционного обучения Moodle позволяет преподавателю создать электронный курс, при этом управлять работой курса. Данная система позволяет преподавателю загрузить весь учебно-методический комплекс дисциплины, ход проведения практического занятия с применением онлайн-платформы Zoom, задания для контроля знаний в виде многоуровневых тестов и ситуационных задач различной сложности, а также самостоятельная работа обучающихся.

Обучающиеся 2 курса образовательных программ «Общая медицина» и «Стоматология» проходят практические занятия по биохимии один семестр в онлайн-режиме в количестве 5 кредитов ECTS. Учебно-методический комплекс дисциплины «Биохимия» составлен на основании типовых учебных программ, утвержденных Министерством здравоохранения Республики Казахстан для специальностей «Общая медицина» и «Стоматология». Контент дисциплины включает аннотацию курса, сведения о преподавателе, типовую учебную программу (ТУП), рабочую учебную программу (РУП), силлабус дисциплины, Smart-силлабус, глоссарий, методические рекомендации для практических занятий, методические указания для проведения самостоятельной

работы обучающихся (СРО), методические указания для проведения самостоятельной работы обучающихся с преподавателем (СРОП), вопросы рубежного и итогового контроля, карту учебно-методической обеспеченности дисциплины на цифровых и бумажных носителях. Согласно кредитной технологии семестр обучения включает 15 практических занятий, которые отдельно представлены для студентов на платформе вуза tng2.ayu.edu.kz. Каждое занятие включает краткий теоретический материал, презентации, видеоматериал по теме занятия, тестовые вопросы и задачи по текущей теме. Тест на платформе обучающийся сдает в электронном режиме, после сдачи которого можно увидеть сразу результат тестирования и неправильные ответы, допущенные им.

Преподаватели вуза используют все необходимые методы с целью сохранения качества обучения на должном уровне. Постоянный доступ к учебному контенту всех обучающихся на платформе вуза tng2.ayu.edu.kz, взаимодействие между преподавателем и обучающимися, систематический текущий контроль со стороны преподавателя, проверка знаний и свободное управление обучением являются составляющими сохранения качества преподавания на прежнем уровне, повышения эффективности обучения в новом формате и обратной связи между преподавателем и студентами. Практические занятия по биохимии проводятся с применением онлайн-платформы Zoom, позволяющая использовать на занятиях презентации, электронные учебники и интерактивную доску. В общем чате конференции Zoom также можно писать сообщения, передавать файлы всем или одному студенту.

С целью проверки знаний и степени усвоения теоретического материала осуществляется систематический текущий контроль, рубежный контроль. При сдаче экзамена по биохимии применяется прокторинг, введенный с осеннего семестра. Данная электронная система AERO позволяет контролировать студента, находящегося на дистанции при сдаче экзамена, чтобы избежать «онлайн-списывание».

Таким образом, дистанционные образовательные технологии позволяют преподавателю проводить занятия по биохимии, используя электронные ресурсы для онлайн-обучения и создавая условия для усвоения материала. Дистанционная форма обучения биохимии для студентов по медицинским образовательным программам имеет положительные стороны перед традиционным обучением, такие как возможность получения знаний дома с учетом индивидуальных способностей обучающихся, в удобное время, использование электронных библиотек и других информационных технологий. Преимуществом онлайн-формата обучения курса биохимии является возможность для преподавателя и обучающегося повышать уровень ИТ-компетенций, креативного мышления и быстрой перестройки и адаптации в цифровом пространстве.

ЛИТЕРАТУРА

1. Брюханова В. В. Реализация текущего контроля освоения базового курса в системе дистанционного обучения Moodle // Современное образование: содержание, технологии, качество. – 2016. – Т. 2. – С. 57 – 60.
2. Кузнецова О.В. Дистанционное обучение: за и против // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 8-2. – С. 362-364.
3. Фомина А.С. Онлайн-обучение в высшем учебном заведении: методики, контент, технологии // Общество: социология, психология, педагогика. – 2016. – № 1. – С. 101–106.
4. Церюльник А.Ю. Использование дистанционного формата обучения студентов в образовательном процессе // Международный научно-исследовательский журнал. – 2020. – № 6 (96). Часть 3. – С. 93-95.

Norboyeva U.T.
Buxoro Davlat Universiteti

ZIRANING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA ISHLATILISHI

Annotasiya: Maqolada zira o'simligining ta'sir etuvchi moddalari, farmakologik ko'rsatkichlari, xalq tabobatida foydalanilishi, hamda ziraning dorivorlik xususiyatlari, ishlatilishi va kelib chiqishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: zira, tabiiy vosita, xalq tabobati, tibbiyot, zamonaviy tabobat, ziradoshlar, efir moyi, toksinlar, uyqusizlik, qorin dam bo'lishi, gastrit, kolit.

Bugungi kunda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, butun dunyo pandemiyasida insonlar sog'lig'iga alohida e'tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, qarigan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko'rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining va xalqaro bozorlardagi dorivor o'simliklarga bo'lgan talabning keskin ortishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40—47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (ur'ugi), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi [1].

Dorivor o'simliklarni 2 xil tasniflash qabul qilingan: 1) ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab-alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar, 2) farmakologik ko'rsatkichlariga qarab -tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar. Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddalari alkaloidlar, turli glikozidlar (antraglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va boshqalar), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va shilliq moddalar, efir moylari, vitaminlar, bo'yoq moddalar, fermentlar, fitonsidlar, kraxmal, oqsillar, polisaharidlar, azotli moddalar, moy hamda moy kislotalari va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin [1].

Zira birinchi marta Hindistonda paydo bo'lgan. U zira yoki rim zirasi deb ham ataladi. Zira soyabon o'simliklariga tegishli, uning urug'lari arpabodiyon kabi soyabonlarda to'planadi. Quritilgan zira tezda yerga tushganligi sababli, u pishmagan holatda yig'ib olinadi. O'simlik Eron, Lotin Amerikasi, Suriya va boshqalarda etishtiriladi [4;5;]

Zira (*Bunium persicum*) - ziradoshlar oilasiga mansub ko'p yillik xushbo'y ziravor o'simlik. Bo'yi 40-60 sm. Poyasining yarmidan yuqorisi shoxlangan. Ildizi tugunakli. Tupbarglari uzun bandli, poyadagilari bandsiz. Bargi ipsimon bo'laklarga bo'lingan. Gullari oq, mayda, har bir soyabonchada 20-30 tadan. Iyunda gullaydi, urug'i iyulda pishadi. Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo adirlarida, tog' yon bag'irlarida ko'p o'sadi. Urug'i mayda, cho'ziq, qoramtir-jigarrang, sirti taram-taram, juda xushbo'y. Respublikamizda ziraning 9 turi tarqalgan. Angren zirasi, Hisor zirasi, Kapyu zirasi, mo'tadil zira, Ko'hitang zirasi, sho'rtob zira, Zarafshon zirasi, butensimon zira, Fors zira yoki zira[2;5].



1-rasm. Zira o'simligining guli va mevasi.

Ziraning ta'mi va xushbo'y xususiyatlari bilan ajralib turadigan bir nechta turlari mavjud. Eng mashhur va eng yaxshilari: Fors va Kirman zira. Ziravorlar shirin-achchiq ta'mga va sezilarli yong'oq notalari bilan yorqin hidga ega. Umuman olganda, ziraning ikkita asosiy turi mavjud: oq va qora. Birinchi variant mamlakatimizda keng tarqalgan, chunki u yanada nozik ta'm va xushbo'y hidga ega. Zira foydalari uzoq vaqtdan beri ma'lum. Ziravorlardan muntazam foydalanish bilan ish yaxshilanadi ovqat hazm qilish tizimi, toksinlar va toksinlar tanasini tozalash jarayoni faollashadi. Ziravorlar qon holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu anemiya bilan og'rigan odamlar uchun muhimdir. Zira asab tizimining faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu uyqusizlik, stress va charchoqni engishga yordam beradi [3].

O'rta Osiyo xalqlari go'sht tuzlashda, qazi va boshqa ovqatlar tayyorlashda qadimdan keng foydalanib keladi. Xalq tabobatida me'da kasalliklarini davolashda va siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Xalq tabobatida ziraning foydalari haqida buyuk bobokalonimiz Ibn Sino shunday degan: "Unda qizdiruvchi kuch bo'lib, yellarni haydaydi va tarqatadi [6].

Suv bilan aralashtirilganini ichilsa, nafas olish qiyinlashganda yordam beradi. Shuningdek, ziraning oshqozon gastriti, sariq kasal, ishtahani ochishda, uyqusizlikda, kishilar quvvatini oshirishda juda ham katta foydasi bor. Zira - ishtahani yaxshilash uchun hamda oshqozondagi sanchiq, o't pufagi va jigardagi og'riqlar, shuningdek, yo'talga qarshi foydali tabiiy vositadir. Zira tarkibi 3-7 % efir moyi, bundan tashqari unda oqsil 10-23 % va xushbo'y moddalar ham borligi aniqlangan. Zira urug'ining ozuqaviy qiymati (100g mahsulot hisobida) Energetik quvvati 375 kkal 1567 kDj [3].

Zira-mavjud bo'lgan barcha davolash vositalaridan eng yaxshi karminativ (meteorizmga-qorin dam bo'lishiga qarshi) foyda beruvchi tabiiy o'simlik moddasidir. Shu sababdan ham u tabobatda ta'sirchan tabiiy davolash vositasi sifatida mustahkam o'rin olgan. Tabobatda mevalaridan foydalaniladi. Zirani ko'plab dori-darmonlar tarkibida uchratish mumkin, lekin uni ko'pincha hech qanday boshqa narsa qo'shmasdan choy sifatida damlab ichish tavsiya etiladi. Hozirgi zamon shifokorlari ham zira haqida ijobiy baho berib, haddan tashqari to'ralikda, meteorizm (qorin dam bo'lishi)da, oshqozon-ichak yo'llaridagi yengil xastaliklarda, yurak kasalliklarida va emizikli bolalarda ovqat hazm qilish jarayoni buzilganida zirani muayyan tarzda iste'mol qilish nihoyatda foydali ekanini ta'kidlashadi [7].

Emizikli va yosh bolalarda ko'pincha qorin dam bo'lib bezovta qiladi, zira tinchlantiruvchi va yel haydovchi vosita bo'lgani sababli, bunday holatda bolalarga shifokor belgilagan tartibda beriladi. Xalq tabobati mutaxassislari e'tirof etishicha, o'smir qizlarda og'riqli hayz jarayonida zirali choydan foydaliroq boshqa vosita yo'q. Tish va bosh og'rig'ida plitada ehtiyotkorona biroz qizdirilgan xaltachadagi zirani og'riyotgan joyga bosib og'riqni qoldirish xalqimiz orasida keng tarqalgan tabiiy vositadir. Zira zararsiz mahsulotdir. Lekin boshqa har qanday efir moyi bor shifobaxsh vosita kabi uni iste'mol qilishdan ehtiyot bo'lish kerak. Zirani iste'mol qilib bo'lmaydigan holatlarga, oshqozon yarasi, yurak ishemik kasalligi, tromboflebit, gastrit, infarkt, tromboz, qandli diabetda zirani alohida o'zini iste'mol qilish mumkin emas. [7;8].

Zamonaviy medisinada gipoasid gastrit, kolitlarda, shuningdek, o't yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida me'da-ichak yo'li ishini kuchaytirish uchun zira urug'laridan keng foydalaniladi. Zira tarkibida bo'ladigan efir moyi oqsillar almashinuvini ancha o'rniga keltirib,

jigar hamda me'da osti bezi faoliyatini sezilarli darajada jonlantiradi. Ibn Sino qora zira ovqat hazmini yaxshilab, qusishni to'xtatadi, mevalarining qaynatmasi ichak og'riqlarini bartaraf etib, siydik haydaydi, dafna daraxti po'stlog'ining qaynatmasi bilan birga ishlatilsa siydik tosh kasalligida foyda qiladi, deb hisoblagan. Zamonaviy tabobatda qora zira urug'laridan suv va moyda tayyorlangan ekstraktlarning reflektor yo'l bilan meda-ichak yo'li faoliyatini kuchaytirishi tajribalarda aniqlangan [9;10].

Sharq xalqlari azaldan zirani sutli ovqatlardan tashqari barcha taomlarga solib ishlatib kelishadi. Hozirgi kunda zira nafaqat Osiyoda, balki Yevropa Afrika, Amerika va Avstraliyada sevib iste'mol qilinadigan ziravorlaridan biri bo'lib qoldi. Ma'lumki zira urug'idagi efir moyi uchuvchanlik xususiyatiga ega. Shuning uchun suyuq taomlar pishishiga 10-15 minut qolganda, quyuq taomlar masalan palovga guruch solinishidan 5-10 minut oldin solingani ma'qul. Zirani har kuni meyoridan oshiq iste'mol qilish foyda keltirmaydi. Aksincha bunday holda kishining rangi sarg'ayishi mumkin. Shuning uchun zira urug'ini meyorida va ma'lum miqdorda iste'mol qilish lozim [7].

Zira juda nozik o'simlik bo'lib, u tabiiy sharoitlarga talabchidir. Uning voyaga yetishi uchun kamida to'rt yil kerak bo'ladi. U faqat urug'idan ko'payadi. Zira oxirgi paytlarda noyob turlar qatoriga kirib qolmoqda. Zira tuplarini pishmasdan o'rib olinishi, tabiiy maydonlarining chorva mollari tomonidan payhon qilinishi, o'simlik resurslarining qisqarib borishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababdan ham tabiiy o'simlik zaxiralarini asrash, ularni kelgusi avlodga yetkazib berish bizning insoniy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmatov H.X., Habibov Z. H., Farmakognoziya [Darslik], T., 1967.
2. Мурдалаев Ю. “Ўзбекистонда ватан топган доривор ўсимликлар”. Тошкент, “Фан”, 1991.
3. Набиев М. “Сабзавот, резавор мевалар, зираворлар хосияти”. Тошкент, “Меҳнат”, 1990.
4. Саҳобиддинов С. “Ўсимликлар систематикаси”. II том “Гулли ўсимликлар”. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1978.
5. Хамидов А., Набиев М., Одилов Т. “Ўзбекитон ўсимликлари аниқлагичи”. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1987.
6. Ibn Sino. “Tib qonunlari” 2-jild, 1956.
7. Nabiyev M, Shifobaxsh giyoxlar, T., 1980;
8. Hojimatov Q., Olloyorov M. , O'zbekistonning shifobaxsh usimliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;
9. Xoliqov K., O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar, T., 1992;
10. Hojimatov Q.H., Yo'ldoshev K.Y., Shogulomov U.Sh., Hojimatov O.Q., Shifobaxsh giyoxlar dardlarga malham (Fitoterapiya), T., 1995

*Amonova H.I., Sodikova S.Sh.
Buxoro davlat tibbiyot instituti*

BIOKIMYO FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI VAZIYATLAR USULINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotasiya. Mazkur maqolada muammoli vaziyatlar talabada doimiy yangilanib turadigan ma'lumotni mustaqil ravishda o'zlashtirishga imkon beradigan, ta'limni tugatgandan so'ng saqlanib qoladigan va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga erishishga imkon beradigan usul ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Muammoli vaziyatlar, muammoli ta'lim, interfaol usul, muammo, guruh, jamoa, qobiliyat, pedagogik texnologiyalar

Biokimyo fani tirik organizmlar tarkibiga kiruvchi moddalar kimyoviy tarkibini, ularning o'zgarishini, shuningdek bu o'zgarishlarning a'zo va to'qimalar faoliyati bilan

boqliqligini o'rganuvchi fan bo'lib, talabalarda mutaxassislikka oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta aqamiyatga egadir.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalarni o'qish jarayoniga jalb qilib, statik, dinamik, molekulyar va klinik biokimyo asoslari bo'yicha bilimlarga ega bo'lgan, tirik organizmda kechuvchi biokimyoviy jarayonlarni ilmiy asoslarini tushunadigan, olingan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay oladigan mutaxassislarni tayyorlash muqim aqamiyatga ega.

Shu sababli biokimyo fanini o'qitishda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'limda an'anaviy usullar bilan birgalikda "Muammoli vaziyatlar" yoki "Muammoli ta'lim" usulini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'limga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan talabalarining o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadlaridan biri talabalarining shaxsiyatini, uning o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatini, o'z taqdirini o'zi belgilashi, o'z-o'zini tarbiyalash va anglash qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni asosiy kompetentsiyalarni shakllantirishdir.

Muammoli vaziyatlar usuli o'qitishning interfaol usuli bo'lib, talabalarining ijobiy munosabatini qozonmoqda. Bunda nazariy tamoyillarni o'rganishga imkon berib materialdan amaliy foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirishini ta'minlaydi. Talabalarining kasbiy tayyorgarligiga ta'sir qiladi, ularning ulg'ayishiga ko'maklashadi, o'qishga bo'lgan qiziqish va ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Shu bilan birga, bu usul o'qituvchining fikrlash usuli, uning boshqacha fikrlashi va harakat qilishi, ijodiy salohiyatini yangilashga imkon beradigan o'ziga xos paradigmasi kabi vazifasini bajaradi. Bunda beriladigan muammoli vaziyatda ma'lumotlarning ma'lum qismlari bo'lmasligi mumkin. Bu ma'lumotga bo'lgan talabni va bu ma'lumotni olish tinglovchilar vazifalarining asosiy qismi hisoblanadi.

Biokimyo fanini o'qitishda qo'llaniladigan muammoli vaziyatga oid masasalarni keltirish mumkin.

1-muammoli vaziyat.

Fermer kartoshka dalasini zararkunadalarga qarshi kurashish uchun xlorofos insektitsiddan foydalangan. U zaharlanish belgilarini ko'rsatdi: bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, gallyutsinatsiyalar. Xlorofos atsetilxolinesteraza ta'sir qiluvchi organofosfor birikmasi ekanligi ma'lum. Nima uchun u zaharliq

Javobingizni tasdiqlash uchun esda tuting:

1. Fosfororganik birikmalar atsetilxolinesterazaga qanday ta'sir qiladiq
2. Fosfororganik birikmalar fermentning qaysi qismida biriktirilganq

2-muammoli vaziyat.

Adenilatsiklaza tizimining fermentlari: adenilatsiklaza, fosfodiesteraza, protein kinaz, protein fosfataza.

Yuqoridagi fermentlar qaysi sinfga mansubq Javob berish uchun:

1. Fermentlarning tasnifini eslang.
2. Fermentlarni tasniflash nimaga asoslanadiq
2. Nomlangan fermentlarning har biri qanday reaksiyani katalizlaydiq

3-muammoli vaziyat.

Ba'zi bakteriyalar, xamirturush, parazit qurtlarga kislorod kerak emas

. ATP hosil bo'lishining ikkita usulidan qaysi biri bu organizmlar tomonidan energiyani saqlash uchun ishlatiladiq Javob berish uchun esda tuting:

1. Fosforlanish nimaq
2. Substrat va oksidlovchi fosforlanish nimaq
3. Bu fosforlanish turlari bir-biridan qanday farq qiladiq

Bizning fikrimizcha bu usulining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- muammoli o'qitish tamoyillaridan foydalanish

– haqiqiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish, guruhning yagona muammoli maydonda ishlash qobiliyati, shu bilan birga o'quv jarayoni hayotdagi qarorlarni qabul qilish mexanizmlarini imitatsiya qiladi. Ma'lum bir atamalarni yodlab qaytib aytib

berishdan ko'ra hayotiy vaziyatga ko'proq mos keladi. Bunda nafaqat atamalarni bilish va tushunish, balki, ularni ishlatish qobiliyati, muammoni hal qilish uchun mantiqiy sxemalar yaratish, o'z fikrlarini asoslash;

- jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- eng oddiy umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- taqdimot qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- matbuot anjumani, savolni shakllantirish va javobni asoslash qobiliyatiga ega bo'lish.

Shunday qilib, muammoli vaziyatlar talabada doimiy yangilanib turadigan ma'lumotni mustaqil ravishda o'zlashtirishga imkon beradigan, ta'limni tugatgandan so'ng saqlanib qoladigan va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga erishishga imkon beradigan usul deb aytish mumkin.

Adabiyotlar

1. Niyazov L.N., Nikolayev Ye.L., Safarova N.S. Oliy tibbiyot ta'limida kimyo fanlarini o'qitishda keys usulini qo'llash masalalari / Monografiya. – Buxoro. – 2020. – 128 b.
2. Amonova H.I., Niyazov L.N. Biokimyo fanini o'qitishda keys usulini qo'llash masalalari // Ilim ham jamiyet. – 2020. – №3. – B. 54-55.
3. Niyazov L.N. Amonova H.I., Gulamova M.T. Keys texnologiyalarining tabiiy fanlarni o'qitishdagi o'rni / Monografiya. – Buxoro, 2020. – 126 b.
4. Gary Thomas A typology for the case study in social science following a review of definition, discourse and structure. // Qualitative Inquiry. 2011, 17 (6): 511–521 pp.
5. Miles, M. B., & Huberman, A. M. Qualitative data analysis: An expanded source book (2nd ed.). / Thousand Oaks, CA: Sage, 1994. – 338 p.
6. Смолянинова О.Г. Инновационные технологии обучения студентов на основе метода Case Study // Инновации в российском образовании: СПб.; М.: ВПО, 2000.
7. Чикер В. А. Методология и методы социально психологических исследований. – СПб., 2010 – 135 с.
8. Березов Т.Т., Коровкин Б.Ф. Биологическая химия. М.: Медицина, 1998. 704 с.
10. Зельдович Б.З. Ситуационное обучение управленческим дисциплинам — М.: Издательство Экзамен, 2008. — 544 с.
11. Barnes L. B., Chistensen C. R., Hansen A. J. Teaching and the case method — Instructor's Guide. — Harvard Business School Press. — 412 pp.

*Amonova H.I., Sodiqova S.Sh.
Buxoro davlat tibbiyot instituti*

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MODULLI O'QITISH TIZIMI

Annotasiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, shuningdek, jahon andozalari darajasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ochib berilgan, modulli ta'limga alohida e'tibor qaratilib, ushbu ta'lim tizimiga o'tishda muvaffaqiyatlar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, jahon ta'lim standartlari, mukammal rivojlangan shaxs, pedagogik va axborot texnologiyalari, modul tizimi.

Hozirgi kunda jahonda ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida integrallashuv hamda globallashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mazmuni va ilmiy-metodik bazasini mustahkamlash, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalariga aloqida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning zamonaviy industrial dunyoga qo'shilishga intilishi undan tez o'zgarib turuvchi mehnat bozori ehtiyojlariga moslashishga qodir bo'lgan oliy ta'lim tizimini yaratishni qat'iy talab qildi. Oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish va ular tomonidan sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatilishini rag'batlantiruvchi raqobatni kuchaytirish zaruratga aylandi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni asosiy o'rin egallaydi. Belgilangan vazifalar doirasida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, shuningdek xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish ko'rsatib o'tildi.

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanib, talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga juda yaxshi moslashishi bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Modulli o'qitishning nazariy asoslari XX asr 60-70 yillar chegarasida amerikalik mutaxassis olim Kurch Goldshmidt, Rassel va boshqalar tomonidan yaratilgan. Bu kabi olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida "o'qitish jarayonining ilmiy-texnik taraqqiyot darajasidan orqada qolishning asosiy sababi – o'quv dasturi, hujjatlarning fan-texnika yutuqlari va ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashuviga mos ravishda takomillashib bormayotganligidadir", degan xulosaga kelingan. Shu bilan birga, o'quv-dasturiy hujjatlarni modulli qoida asosida tuzish ta'lim jarayonini jadallashtirishning muhim omillaridan biri ekanligi ham ta'kidlangan.

Modulli o'qitish texnologiyalariga qaratilgan N.V. Borodina, I.M. Maxmutov, S.A.Samoylova, V.V.Shogan, G.K. Selevko, N.X. Avliyoqulov L.F, Ibatulina, V.M.Zimin, N.Azixodjaeva, M.Ochilov, B.L.Farberman, V.P.Bespalko, J.q.Yo'ldoshev va S.A.Usmonova, O'.K.Tolipov va M.Usmonboeva kabi pedagog-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida mazkur mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda pedagogik texnologiyalar, modulli o'qitishning mohiyati, tamoyillari va modulli texnologiya asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish usullari kabi masalalar yoritilgan.

Tadqiqotchi V.V.Valetovning fikricha "Modulli ta'lim o'quv materialini aloqida va o'zaro bog'langan o'quv elementlariga rejali ajratish, ularning har birini maxsus ishlab chiqilgan va mos ravishda rasmiylashtirilgan o'quv masalalari bilan ta'minlashni tashkil qilishdir". Bu tizim talabalarning tayyorgarlik darajasini, ularning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olgan holda, o'quv jarayonini individuallantirishga imkon yaratadi.

Tadqiqotchi S.R.Mirzaeva oliy ta'lim muassasalarida modulli o'qitishning o'ziga xosligi, uning boshqa o'qitish tizimlaridan farqini ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha: modulli o'qitish tizimida fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanadi; har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayoni barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rgatiladi; fanning modulli tuzilish tarkibining moslashuvchanligi ta'minlanadi; talabalar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat qilinadi; talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra, tabaqalanishi amalga oshadi; axborotni ixchamlashtirish natijasida o'qitish jarayoni jadallashadi va o'quv vaqti tarkibi, ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar optimallasadi.

Ta'kidlash joizki, modulli o'qitish sharoitida talabalar o'z vaqtlarining katta qismida mustaqil ishlaydilar. Ularning mustaqil ta'lim olishlarining asosiy bazasi o'qituvchi tomonidan tashkillashtiriladi.

"Modul" lotincha so'z bo'lib, "qism" yoki "bo'lak", "blok" degan ma'noni bildiradi. Demak, modul-pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi, tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi

tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik bo'laklardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida modulli o'qitishga o'tishda asosan, quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

Birinchidan, o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;

Ikkinchidan, o'qitishni individuallashtirish;

Uchinchidan, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;

To'rtinchidan, o'qitishni jadallashtirish;

Beshinchidan, fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Shunday qilib, modulli o'qitishda talabalarni o'z qobiliyatiga ko'ra, bilim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi (1998 y.)
3. YuNESKOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" dasturiy hujjati (1995 y.)
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat—T 2006;
5. Azizxo'jaeva N.N. «O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi». - T. 2000.
6. Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» / qo'llanma. - qarshi: Nasaf, 2000.
7. Farberman B.L. «Progressivno`e pedagogicheskie texnologii» - T. 1999.; Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar - T., 2001.
8. Bepalko V.P. «Slagaemo`e pedagogicheskie texnologii». - M. Pedagogika 1989.; Bepalko V.P. «Pedagogika i progressivno`e texnologii» - M. 1995.
9. Yo'ldoshev J.Q., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari—T 2004
10. Tolipov O'.K., Usmonboeva M.. Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari - T., 2006
11. Mirzaeva S.R. Oliy ta'lim muassasalarida modulli o'qitish texnologiyalarining dolzarbligi. //Ta'lim texnologiyalari / Pedagogicheskie texnologii 2017 №5 28-32 b.

С.Б. Муродова, Д.А. Ҳазратова
Бухоро давлат университети
dilshoda.hazratova@mail.ru

ХИТОЗАН БИОПОЛИМЕРИНИНГ ИПАК МАТОЛАРНИ БЎЯШ ЖАРАЁНИГА ТАЪСИРИ

Аннотация. Ушбу мақолада ипак толали матоларнинг фаол бўёвчи моддалар билан бўяш жараёнига хитозан биополимерининг таъсири ўрганилган. Хитозан матонинг ранг сифат кўрсаткичларини ҳамда бўёвчи модданинг фойдаланиш даражасини оширган.

Калит сўз. Хитозан, фаол бўёвчи модда, ранг интенсивлиги

Ҳозирги кунда, бозор муносабатларини ва тўқимачилик материаллари сифати талабларининг ортиши шароитида тўқимачилик корхоналари орасидаги рақобатни ҳисобга олган ҳолда, маҳаллий хом ашёлар иштирокида ресурс тежовчи ва экологик тоза технологияларнинг яратилиш тенденцияси долзарб муаммо ҳисобланади [1].

Тадқиқотлар учун *Apis Mellifera* асалариларидан олинган хитозан, Bukhara Brilliant Silkда ишлаб чиқарилган крепдешин матоси ва "Фаол ёрқин К" (Zhejiang, China) фаол бўёвчи модда ишлатилди [2].


Бўёвчи моддаларнинг бошқа синфларига нисбатан фаол бўёвчи моддалар бир қатор устунликларга эга. Олинган ранглар ҳўл ишловларга ва кимёвий тозалашга юқори бардошликни ҳамда ёруғлик таъсирига мустаҳкамликни намоён қилади. Табиий

ипакнинг фаол бўёқлар билан бўялиши икки босқичли ишқорий усулни ўз ичига олган даврий технология бўйича амалга оширилди.

1-жадвал

№	Кимёвий моддаларнинг номи	Анънавий	Таклиф қилинган таркиб		
		1	2	3	4
1	Краситель, г/л	0,6	0,4	0,4	0,4
2	Натрий карбонат, г/л	2,0	2,0	2,0	2,0
3	Натрий сульфат, г/л	20	20	20	20
4	Хитозан, г/л	-	0,5	1,0	1,5

Синтез қилинган хитозан интенсификатор сифатида кейинчалик крепдешин матосини бўяшда қўлланилди ва матода бўёвчи модданинг толага боғланиш миқдорига хитозаннинг таъсири ўрганилди. (1-расм)



1-расм. Ипак матоларни бўяшда бўёвчи модданинг толага боғланишига хитозан интенсификаторининг таъсири

1-расмдан кўринадики, таклиф қилинган 3-таркиб хитозаннинг 1,0 г/л концентрациясида фаол бўёқнинг фиксация миқдорини 36 г/кг га оширади.

Шунингдек, хитозан билан бўялганда рангнинг физик-кимёвий таъсирларга чидамлилиги яхшиланади. (2-жадвал)

2-жадвал

Ипак матолар рангининг турли физик-кимёвий таъсирларга чидамлилиги

№	Хитозан концентрация СИ	Совунга чидамлилиги 40 ⁰ С	Терга чидамлилиги
1.	0	4/4/5	4/4/5
2.	0,1	4/5/5	4/5/5
3.	0,5	4/5/5	5/4/5
4.	1,0	5/5/5	5/5/5
5.	1,5	5/5/5	4/5/5

2-жадвалда берилган натижалардан кўринадики, интенсификатор сифатида хитозан 1,0 г/л миқдорда қўлланилганда ипак матоларнинг ранги тер ва совунга нисбатан юқори чидамlilik билан характерланади [3].

3-жадвал

Ипак матоларни бўяшда бўёвчи модданинг фиксация даражаси, сингиши ва ранг интенсивлигига хитозаннинг таъсири

Ранг сифат кўрсаткичлари	Интенсификаторсиз бўёвчи модда, г/л	Бўёвчи модда + хитозан 1,0 г/л
Бўёвчи модданинг толага боғланиши, г/кг	20	36
Бўёвчи моддадан фойдаланганлик даражаси, %	68	74

Ранг интенсивлиги, К/S	5.0	6.8
К/S нинг ортиши, %	-	36
Ранг мустаҳкамлиги, балл		
Ювишга	4/4/5	5/5/5
Ишқаланишга:		
хўл	4/5	5/5
курук	5/4	5/5

Шундай қилиб, биопарчаланувчи хитозан полимери фаол бўёқ “Фаол ёркин К” нинг юқори сингиш даражасини ва ранг интенсивлигининг бир текис тақсимланишини таъминлайди. Шу билан бирга 1,0 г/л концентрацияли хитозан қўлланилганда тер ва совунга нисбатан юқори мустаҳкамлик намоён бўлади.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ixtiyarova G.A., Nazratova D.A., Umarov B.N., Seytnazarova O.M. Extraction of chitozan from died honey bee *Apis mellifera* // International scientific and technical journal Chemical technology control and management. -Vol. 2020:Iss.2, Article 3.-P.15-20.
2. Ихтиярова Г., Д. Хазратова, и Муталипова Д. «Интенсификация процесса крашения шелковых тканей активными красителями». *InterConf*, вып. 45, март 2021 г., <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/interconf/article/view/10343>.
3. Хазратова Д. А., Ихтиярова Г. А. Интенсификация процесса крашения шелковых тканей активными красителями с хитозаном // *Universum: технические науки*. – 2021. – №. 4-3 (85). – С. 17-20.

Д.Х. Наимова, З.В. Жахонкулова, Ф. М. Нурутдинова
Бухарский государственный университет
parviz.feruza83@mail.ru

ИЗУЧЕНИЯ СВОЙСТВ БИОПОЛИМЕРОВ ХИТОЗАНА *APIS MELLIFERA*

Аннотация. В статье представлены результаты синтеза биополимеров хитина и хитозана из нового перспективного источника – местного подмора пчел *Apis Mellifera*. В работе исследованы ИК спектры хитина и хитозана, для сравнения изменение при процессе деацетилирования. Изучены степени деацетилирования. С измерением вязкости полимера рассчитали молекулярную массу.

Ключевые слова: хитозан, хитин, подмор пчелы, биополимер, ИК спектроскопия, вязкость, массовая доля.

Полисахаридная природа полимеров как хитина и хитозана обуславливает их сродство к живым организмам, а наличие реакционноспособных функциональных групп обеспечивает возможность разнообразных химических модификаций, позволяющих усиливать присущие им свойств или придавать новые в соответствии с предъявляемыми требованиями.

Перспективно использование хитозана - неядовитого и неаллергенного природного биополимера, биосовместимого с организмом человека. К неоспоримым достоинствам хитозана относится его совершенная безопасность для человека и окружающей среды. В природных условиях он распадается полностью, то есть является экологически чистым продуктом.

Задачей изобретения является найти наиболее доступные для промышленного освоения в Республике Узбекистан хитина-хитозана из местного медоносного пчелиного подмора и изучение их физико-химических свойств [1].

Физико-химические свойства хитина и хитозана, синтезированного из пчелиного подмора *Apis Mellifera* исследованы снятием ИК-спектров на ИК-Фурье, спектрометре Nicolet S 50 (Thermo Fisher Scientific, США).




Рис. 1. ИК- фурье спектры а)- хитина и б) – хитозана, полученных из пчелиного подмора

Также был получен и проанализирован рентгенографическая дифрактограмма хитозана, полученного деацетилизацией хитина. Рентгеноструктурные исследования показывают, что скорость кристаллизации молекул хитозана и хитина снижается, когда деацетилизацию (ДА) проводится с разным процентом (ДА-8 %, 36 %, 57 %, 81 %), особенно когда деацетилизацию достигает 36 %, наблюдалось снижение уровня трехмерного распределения [2].

Из структурно молекулярных и рентгенографических данных можно сделать вывод, что при деацетилизацию хитина превращает форму хитозана, то есть молекулярные структуры, и кристаллы хитозана отличаются от молекулярных структур и кристаллов хитина. Это можно представить как сополимеры хитина и хитозана [3].

Измерение вязкости растворов хитозана проводили в вискозиметре Уббелодде с диаметром капилляра 0,5 мм и использованием в качестве растворителя 0,2 М растворов уксусной кислоты и 0,1 М раствор ацетата натрия в соотношении 1:1 по объему (время истечения растворителя 22 сек) при температуре 30⁰С.

Влажность образцов определяли на установке METTLER TOLEDO LP16 по инструкции эксплуатации прибора. Метод основан на высушивании пробы при нагревании до постоянной массы.

Массовую долю золы определяли сжиганием образца и взвешиванием остатка [4].

В результате проведенных исследований установлено, что количество белка и минеральных веществ в исследованных образцах пчелиного подмора стабильно и не зависит от места происхождения, времени и года сбора, что позволило разработать общую технологию получения из него биологически активных веществ. Отсутствие липидов в исходном сырье дало возможность не проводить процесс обезжиривания.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Нурутдинова Ф.М. Синтез из пчелиного подмора – *Apis Mellifera* хитина и хитозана для использование в медицине// Научный вестник Наманганского государственного университета. № 1. 2020. –С 79-85.

2. Ихтиярова Г.А., Нурутдинова Ф.М. Инновационная технология синтез хитозана из медоносного пчелиного подмора и их применение. III Международная конференция-симпозиум «Внедрение достижений наук в практику и устранение в ней деятельности коррупции» Ташкент 2019. –С. 189-193.

3. Ихтиярова Г.А., Нурутдинова Ф.М., Сафарова М.А., Мажидов А.А., Махатов Ж.Б. Получения биоразлагаемых полимеров хитина и хитозана из подмора пчел *Apis Millefera* для лечения ожоговых ран// Республиканский научный Журнал “Вестник” Казакистан №4 (81) Том 5, 2017.-С. 98-101.

4. Ихтиярова Г.А., Нурутдинова Ф.М., Ахадов М.Ш., Сафарова М.А. Новая технология получения воспроизводимых биополимеров хитина и хитозана из подмора пчел// Кимё ва кимёвий технология. 2017№4. –Б. 31-33.

*Ю.З. Расулова, З.В. Жахонкулова, Ф. М. Нурутдинова
Бухарский государственный университет
parviz.feruza83@mail.ru*

АМИНОПОЛИСАХАРИД ХИТОЗАН ДЛЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В МЕДЕЦИНЕ

Аннотация: В работе представлены результаты синтеза аминополисахаридов хитозана из нового перспективного источника – местного подмора пчел *Apis Mellifera*. Использован до 5-7 % высушенный и размер частиц до 0,1-0,3 мм измельченный подмор. Установлено, количество белка и минеральных компонентов в образцах аминополисахаридов.

Ключевые слова: хитозан, меланин, белок, синтез, аминополисахарид, биологически активный продукт, пчелиный продукт.

Пчелиный подмор, один из биологически активных продуктов пчеловодства, исследован недостаточно. А он является источником получения высококачественного хитозана - аминополисахарида, образующегося в производственных условиях при деацетилировании хитина. Хитозан обладает антибактериальными, противогрибковыми, антиоксидантными, противодиабетическими, противовоспалительными и противораковыми свойствами, а также он способен снижать уровень холестерина в крови. Ему свойственны такие характеристики как биосовместимость, нетоксичность, низкая аллергенность и биоразлагаемость [1].

Молекула хитозана представляет собой длинную цепочку, состоящую из множества гексозных колец, достигающих до десятков миллионов, поэтому данный биополимер не растворяется в воде и не всасывается в кишечнике, а действует как мощный сорбент. Благодаря своим сильным сорбционным свойствам хитозан похож на большой товарный поезд, который выводит из кишечника не только вредные, но и полезные вещества, подвергая организм тотальной чистке. В ряде случаев такая «чистка» имеет смысл, но зачастую причиняет организму человека значительный вред. Таким образом, хитозан – это сорбент, который нерастворим в воде и не участвует в обменных процессах организма в полном объеме [2].

Под действием пищеварительных соков, при применении хитозана происходит его набухание, адсорбция токсинов, продуктов распада.

Хитозан усиливает внутриклеточный синтез витаминов В₁, В₂, В₃, РР, повышает активность щитовидной железы и т.д [3].

Необходимо упомянуть, что в организме пчелы выявлено наличие, как минимум 27 элементов: Ag, Al, As, B, Ba, Be, Ca, Cr, Cu, Fe, Ga, Ka, Mg, Mn, Mo, Na, Ni, P, Pb, Si, Sn, Sr, Ti, U, V, Zn и Zr, что говорит о возможности присутствия их в пчелином подморе. Гепароиды (природные антикоагулянты), входящие в состав пчелиного подмора, способны подавлять воспалительные процессы, несомненна их роль в лечении различных сосудистых и инфекционно-аллергических заболеваний [4].

Объектом исследований явился аминополисахарид хитозан, синтезированный из подмора пчёл. В качестве сырьевого поставщика хитина и хитозана рассматривали медоносную пчелу, которая может обеспечивать большую биомассу хитинсодержащего сырья.

В результате проведенных исследований установлено, что количество белка и минеральных веществ в исследованных образцах пчелиного подмора стабильно и не зависит от места происхождения, времени и года сбора, что позволило разработать общую

технологии получения из него биологически активных веществ. Отсутствие липидов в исходном сырье дало возможность не проводить процесс обезжиривания.



Рис.1. Схема синтеза аминополисахарида хитозана

При получении хитозана в указанных условиях одновременно с реакцией дезцелирования идет деструкция хитина, т.е. разрыв его цепей по глизидным связям, что приводит к уменьшению молекулярной массы хитозана и снижению его вязкости. Высокая устойчивость хитина к дезацелированию объясняется наличием водородной связи между карбонильной группой и азотом амидной группы смежных цепочек хитина в мицелярной структуре.

Таким образом, пчелиный подмор представляется нам перспективным источником получения высококачественного хитозана медицинского, косметического и пищевого назначения, а также ряда побочных продуктов, таких, как кормовой белок и меланин, природный краситель. Мы полагаем, что переработка пчелиного подмора будет налажена нами в ближайшее время.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Нурутдинова Ф.М. Синтез из пчелиного подмора – *Apis Mellifera* хитина и хитозана для использование в медицине// Научный вестник Наманганского государственного университета. № 1. 2020. –С 79-85.
2. Ихтиярова Г.А., Нурутдинова Ф.М. Инновационная технология синтез хитозана из медоносного пчелинного подмора и их применение. III Международная конференция-симпозиум «Внедрение достижений наук в практику и устранение в ней деятельности коррупции» Ташкент 2019. –С. 189-193.
3. Ихтиярова Г.А., Нурутдинова Ф.М., Муинова Н.Б. новый перспективнкй метод получения хитина, хитозана из подмора пчел и его применение// Современные проблемы наук о полимерах: сб. Ст. По матр. междунар. науч.-практ. конф. – Ташкент, 2016. – С. 77-80.
4. Нурутдинов Ф.М. Выделение хитина-хитозана из подмора пчел *Apis Mellifera* и изучение их свойства// Монография. Издательство «Дурдона» 2021.

Н.Ж. Бурханова, И.Н. Нургалиев, С.Ш. Рашидова
 Институт химии и физики полимеров АН РУз
 nilufar-burhanova@mail.ru

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ХИТОЗАН-АМИНОКИСЛОТНЫХ КОМПЛЕКСОВ, ВХОДЯЩИХ В БЕЛОК, ВЫДЕЛЕННЫЙ ИЗ КУКОЛОК ШЕЛКОПРЯДА *BOMBYX MORI*

Аннотация. Настоящее исследование на основе теории функционала плотности (ТФП) посвящено взаимодействию хитозана (ХЗ) с аминокислотами (АК) с образованием

комплексов ХЗ-АК, входящих в белок, выделенный из куколок тутового шелкопряда *Bombyx mori*. Предложены квантово-химические модели взаимодействия ХЗ с АК и механизмы взаимодействий компонентов системы для возможности научного обоснованного создания новых биологически активных препаратов на основе ХЗ и белка, выделенного из куколок тутового шелкопряда *Bombyx mori*.

Ключевые слова: хитозан *Bombyx mori*, белок, аминокислота, моделирование, взаимодействие

Введение. В течение длительного времени были исследованы различные аспекты доставки функциональных белков, и в настоящее время доставка белков остается активной областью исследований благодаря ее широкомасштабному применению в терапии заболеваний, вакцинации и визуализации белковых молекул. Разработка систем доставки белковых лекарственных соединений была одной из основных проблем в фармацевтических и биомедицинских исследованиях из-за различных проблем, таких как неустойчивость белковых молекул, денатурация, сложная структура и высокая молекулярная масса. Природные полисахаридные носители нашли преимущество среди новых систем доставки благодаря своей биоразлагаемости и биосовместимости.прежнему остается серьезным препятствием для создания эффективной системы доставки белка. С учетом этих аспектов настоящее исследование представляет собой попытку проанализировать образование аддуктов между ХЗ и АК (аспарагин, треонин, серен, глутамин, пролин, глицин, аланин, валин, метионин, изолейцин, лейцин, тирозин, фенилаланин, гистидин и лизин) входящих в состав белка, выделенного из куколок тутового шелкопряда *Bombyx mori* [1].

Методика расчета. Расчеты проводили с использованием пакета GAUSSIAN 09 и программы молекулярной визуализации Gaussview 5.0.9 с использованием DFT и Becke-3-Lee-Yang-Parr (B3LYP) со стандартным набором базиса B3LYP/6-31G//PM3. Взаимодействия ХЗ и АК исследовали с помощью дескрипторов реакционной способности [2].

Результаты и их обсуждение.

Теоретические расчеты дали хорошее представление о процессе взаимодействия ХЗ с АК. Исследование подтверждает наличие водородной связи между положительно заряженной аминогруппой, карбоксилат/-ОН группой ХЗ и карбоксилат/-ОН и аминогруппой АК. ХЗ-аддукты обладают большей химической стабильностью, чем АК. Расчетная реакционная способность и стабильность аддуктов ХЗ чувствительны к характеру функциональной модификации, а также к преобладающей среде моделирования (рис.1).




Рисунок. 1 Модель белка *Bombyx mori*, состоящая из 15 аминокислот




Рисунок 2. Взаимодействия граничных орбиталей цепочки протонированного ХЗ с белком *Bombyx mori*.

Следует отметить, что аддукты с гистидином неустойчивы в газовой фазе, но приобретают значительную устойчивость в водных средах. ХЗ проявляет более сильное взаимодействие в неполярной среде и постепенное ослабление с увеличением полярности среды, хотя линейной корреляции между энергией взаимодействия и диэлектрической проницаемостью сред нет. Квантовое моделирование показало, что гистидин обладает большей способностью реагировать с ХЗ. На химическую стабильность аддуктов ХЗ-АК также влияет изменение полярности среды, тогда как термодинамически рассматриваемые аддукты более стабильны в воде. ХЗ показывает большую пригодность в качестве носителя белка. Предполагается, что полное понимание различных аспектов, относящихся к связыванию и доставки АК с помощью ХЗ, представленных в настоящей работе, сыграет важную роль в качестве прогностического инструмента при разработке системы доставки с помощью ХЗ для белка, выделенного из куколок тутового шелкопряда *Bombyx mori*. Использование ХЗ основано на том, что белок *Bombyx mori* характеризуется низкими значениями изоэлектрической точки, а при рН 4,8 имеют отрицательный заряд, благодаря чему способны к ионному взаимодействию с положительно заряженной молекулой ХЗ (рис. 2). Эффективность комплексообразования белков с хитозаном зависит от рН, ионной силы, концентрации ХЗ и его молекулярной массы.

ЛИТЕРАТУРА

1. Авазова О. Б., Рашидова С. Ш. Масло из куколок тутового шелкопряда *Bombyx mori*. Брошюра. Ташкент, 2021, 44 с.
2. Chattaraj P. K., Sarkar U., Roy D. R. Electrophilicity Index // Chem. Rev. 2006, 106, 6, 2065–2091, <https://doi.org/10.1021/cr040109f>

Z.R.Mamadaliyeva
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

VIRTUAL LABORATORIYA USULIDA QONDA XOLESTERIN MIQDORINI BIOKIMYOVIY ANALIZATORDA ANIQLASH

Annotatsiya: Hozirgi kunda odamlarda noto'g'ri ovqatlanishdan kelib chiqayotgan xolesterin bilan bog'liq kasalliklarni uchratib kelmoqdamiz. Hozirgi zamonaviy tibbiyotda bu kasallikni tekshirish, davolash va oldini olish kabi qulay usullar ishlab chiqilmoqda. Qonda xolesterin miqdorining ko'payishi asosan noto'g'ri ovqatlanish oqibatida kelib chiqadi. turli xil kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: Biokimyoviy analizator, qon plazmasi, probirka, dazatrlar, xolestirinni aniqlash uchun reagintlar to'plami, lipoproteinlar.

Tavsifi: Xolesterin qonning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u organizmning ko'plab biologik va kimyoviy jarayonlarida ishtirok etadi va bu birikmasiz insonning normal yashashi mumkin emas. Uning ko'p qismi jigar hujayralari tomonidan sintezlanadi; bu jarayonda ichak, buyrak usti bezlari va boshqa organlar ham ishtirok etadi. Bundan tashqari, inson tanasida mavjud bo'lgan xolesterin miqdorining taxminan 20% har kuni iste'mol qilingan ovqatdan olinishi kerak. Biokimyoda ushbu kimyoviy birikmani qabul qilingan tasnifga muvofiq xolesterol deb atash odatiy holdir. Ushbu komponent ko'p biosintez reaksiyalarini amalga oshirishda ishtirok etadigan asosiy birikmalardan biridir. Barcha organlarning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan ortiqcha xolesterin jigarda va ba'zi boshqa organlarda ishlab chiqariladi. Ushbu moddaning oz qismi iste'mol qilingan oziq-ovqatning bir qismi sifatida tanaga kiradi. Tashqi tomondan kiradigan lipofil spirt endogen, jigarda va boshqa ba'zi organlarda sintezlangan, ekzogen deb ataladi. Inson tanasi o'zi uchun zarur bo'lgan lipofil spirtning 80 foizini mustaqil ravishda ishlab chiqaradi va atigi 20 foizi tashqi muhitdan oziq-ovqat bilan keladi. Kimyoviy birikma deyarli suvda erimaydi, ammo u yog'larda yaxshi eriydi. Barcha sintez reaksiyalari silliq endoplazmatik retikulumda amalga oshiriladi. Ushbu jarayon steroid tabiatdagi boshqa biologik faol moddalarning keyingi shakllanishi uchun zamin yaratadi. Odamlarda erkin xolesterin alkogol molekullari va transportyor oqsillaridan tashkil topgan komplekslarning bir qismidir. Bunday komplekslarga lipoproteinlar deyiladi.

Tajriba: Virtual laboratoriya usulida qonda xolesterin miqdorini biokimyoviy analizatorida aniqlash uchun krakadil dasturidan foydalanib talabar o'zlari laboratoriyamashg'ulotlarini bajaradilar.

Kerakli jihozlar va reagentlar: Biokimyoviy analizator, qon plazmasi, probirkalar, dozatrlar, sentrifuga va xolestirinni aniqlash uchun reagent.

Ishni bajarish tartibi:

1. Uchta probirka olib, birinchi probirkaga blank, ikkinchi probirkaga standart, uchunchi probirkaga abrazis deb nomlanadi. Har bir probirkaga 1 mldan regain-R1 dan solinadi. Birinchi probirkaga blankga 10 mkr/l distirlangan suv solinadi.

2. Ikkinchi probirka standartga –10 mkr/l standart eritmasidan solinadi.

3. Uchunchi probirkaga -10 mkr/l qon na'munasidan solinadi. Har 3 ta probirka ham biokimyoviy analizatorida 10 minut 37 gradusda inkubatsa qilinadi. 10 minutdan so'ng biokimyoviy analizatorida blank, standart, obrazesga ketma-ket qo'yiladi.

Natijada: qonda xolesterin miqdori 10 minutdan so'ng ko'rsatiladi. Qonda xolesterin miqdori biokimyoviy analizatorida normada 5.19-6.19mmol/lda bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Improving The Quality of Learning Through Virtual Laboratory Work Use as Element Z.R. Mamadaliyeva Assistant of the Samarkand State Medical Institute <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/612/534>

OLIV TA'LIMNING PEDAGOGIK JIHLTLARI.

S.B.Jo'raqulova, S.I.Nazarov
Buxoro davlat unversiteti

KIMYO FANINI O'QITISHDA INTERFAOL JADVALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Maqolada talabalarga dars o'tilganda interfaol usuldan foydalanib o'tish samaradorligi o'rganilgan. Jadvallardan foydalanish talabalarga dars o'tishni yanda unumli amalga oshiradi. Boshqa metodlar haqida to'xtalib gibridlanish mavzusi jadval asosida tushintirilgan.

Kalit so'zlar: Gibridlanish; KEYS stadiy, chiziqli, tetraedr, oktaedr, davlat ta'lim standarti

Yurtimizda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaralilib, Davlat ta'lim standarti o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda. Ta'lim tizimidagi asosiy vazifalardan biri o'quv jarayoniga pedagogik innovatsion usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar(AKT)ni joriy qilish orqali zamon talabiga muvofiq ta'lim berish jarayonini keskin o'zgartirish bo'lib, uning asosini ta'lim tizimida o'qitilayotgan fanlarning uslubiy tizimlarini yaratish tashkil etadi. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarda interfaol usullardan uzluksizlik va uzviylik tamoyili asosida foydalanishga katta e'tibor berilmoqda, chunki ta'limning interfaol turi maktabgacha ta'lim bosqichidan to oliy ta'lim jarayonigacha ta'lim oluvchida mustaqil tafakkur hamda tezkor faoliyatni tarkib toptirishga xizmat qiladi [1]. Ta'limning interfaol metodlari darsning har bir bosqichida o'quvchining o'ziga xos psixologik xususiyatlari va tafakkur tarzini hisobga olgan holda foydalanish, aniq bir o'quvchilar auditoriyasining o'ziga xos jihatlari hisobga olish o'qituvchidan katta pedagogik mahoratni talab qiladi.

Interfaol usullar qo'llanilganida ... o'quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o'rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallaydi[2].

Kimyo darslarida interfaol usullardan foydalanish dars samradorligi oshiribgina qolmay, O'quvchilarni ham izlanishga, mustaqil fikrlashga, Qo'shimcha materiallardan foydalanishga undaydi. Qo'shimcha adabiyotlarni varaqlashga majbur qiladi. Shu maqsadda kimyo darslarida qo'llaniladigan interfaol usullarni tavsiya etamiz. Interfaol usullar ... Xususan: «Yelpig'ich», «Baliq skeleti», «Insert», «KEYS stadi», «Debatlar», Kimyoviy lotto», «Uchunchisi ortiqcha», «Baliq ovi», «Krasvordlar tuzish va yechish», «KEYS stadi», «Debatlar», Himoyaga kim chiqadi», «Tez savolga — tez javob», «Tarmoqlar (Klaster)», «Aqliy hujum», «Matnni davom ettir», «Raqamli diktant», «Romashka», «FSMU», «SWOT tahlil», «Venn diagrammasi» Va hakoza... «“Venn diagrammasi” grafik organayzeri. U o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar asosida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Grafik organayzer kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Diagramma o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi [3]. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir. Atomlar orasidagi boglanish odatda har xil energetik holatlarda bo'lgan elektronlar orasida boradi. Atom orbitallarning gibridlanishi quyidagi xulosaga asoslanadi, bunda atomdagi s, p, d elektron bulutlar bir xilda molekula hosil qilganda siljiydi, shuning uchun bu atomlar elektron buluti bir-birini yaxshi qoplaydi. Valent elektronlar buluti bir-birini yaxshi qoplashi kimyoviy bog'ning qutbligiga bog'liq

Gibridlanish	Fazoviy tuzilishi	Burchagi	Misollar
sp	Chiziqli	180 ⁰	BeGal ₂ , BaGal ₂ , CO ₂ , asetilen (C ₂ H ₂), alkin, allen (CH ₂ =C=CH ₂), C (karbin), CS ₂ , N ₂ , MgH ₂ , CO, KrF ₂ ...
sp ²	Teng tomonli uchburchak	120 ⁰	BGal ₃ , AlGal ₃ , SO ₂ , SO ₃ , Cgrafit(geksanal), alken, benzol, stirol, H ₃ PO ₃ , H ₂ SO ₃ , HNO ₃ , HNO ₂ , KrOF ₂ , XeOF ₂ , COF ₂ , O ₂ , O ₃ , H ₂ CO ₃ , aldegidvaketon, HCOOH, CO ₃ ²⁻ , SO ₃ ²⁻ , BO ₃ ²⁻ ...
sp ³	Tetraedr yoki trigonal piramida	109 ⁰ , 28'	CH ₄ , SiO ₂ , Na ₂ SO ₄ , galogenlarning hosil qilgan kislotalari va ularning tuzlari, NH ₃ , NH ₄ ⁺ , H ₃ PO ₄ , alkan, sikloalkan, P ₄ , HMnO ₄ , H ₂ MnO ₄ , KrO ₂ F ₂ , Colmos, H ₂ O, H ₃ O ⁺ , F ₂ O, P ₄ O ₁₀ , POCl ₃ , CCl ₄ ...
sp ³ d	Uchburchakli bipiramida	120 ⁰ va 90 ⁰	PGal ₅ , SbGal ₅ , SF ₄ , ClF ₃ , XeF ₂ ,
sp ³ d ²	Oktaedr	—	SF ₆ , SCl ₆ , Ba ₂ [XeO ₆], K ₄ [FeCN ₆], K ₃ [FeCN ₆], [Cr(NH ₃) ₆]Cl ₃ , [Cu(H ₂ O) ₆]Cl ₂ ...

Mana shu jadvalda qaraydiga bo'lsak soda qilib agar elementning 2 tarafida boshqa element boglanishda qatnashmagan electron bo'lsa sp, 3 tarafida sp², 4 tarafida sp³, 5 tarafida bo'lsa sp³d, kabilar bo'ladi. Shu usulda o'quvchilarga tushuntirganimda ular yaxshiroq o'zlashtirdilar yani sinfda 85% lik natijaga erishdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жуманов А.М. Кимёвий тушунчаларни шакллантиришда фанлараро узвийликни ўрни // Халқ таълими. – Тошкент, 2011. -№6.-Б.58-59.
2. Джураев Р.Х. Умумий ўрта таълимда интеграциялашган таълим - давр талаби // Фанларни интеграциялаб ўқитишнинг педагогик шарт -шароитлари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент. ЎзПФТИ, 2007.– Б.5-8.
3. Жўраев Р.Х., Зуннунов А. Таълим жараёнида ўқув фанларни интеграциялаш. –Т.: Шарк, 2005.–71 б

Karimova Z.M.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

KIMYO FANIDAN “AMINOKISLOTALAR VA OQSILLAR” MAVZUSINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI.

Annotatsiya: Jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligi bayon etilgan. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, texnologiyalar, zamonaviy usul, vositalar, samarali, fizik, kimyoviy, organik kimyo fanini o'qitish jarayoni, oqsil, peptid bog'lari, ayominokislota, innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalar, metod, chorak, semestr, tafakkur, o'stirish, pedagogik, xomashyo, mahsulotlar sifatini nazorati, mexanizm.

O'zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda yoshlar tarbiyasiga, ularni sog'lom qilib o'stirishga, milliy g'oya, milliy mafkura va o'z vataniga sadoqat ruhida

tarbiyalashga bogʻliq boʻlib, bu murakkab jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mustaqil mamlakatning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Hozirgi kunda Mustaqil Respublikamizda barkamol, har tomonlama rivojlangan mutaxassislarni tayyorlash va ularga taʼlim berish jarayoniga oʻqitishning yangi, zamonaviy usul va vositalaridan samarali foydalanilmoqda. Oʻqituvchi bilim olishning yagona manbai boʻlib qolishi kerak emas, balki talabalar mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, oʻquv jarayonining boshqaruvchisi boʻlishi lozim.

Biz yuqorida keltirilgan fikrning tasdigʻi sifatida organik kimyo fanini oʻqitish jarayonida bugungi rivojlangan kun talablariga javob bera oladigan xorij oliy taʼlim muassasalarida keng miqyosda qoʻllaniladigan innovatsion va pedagogik texnologiyalarni taʼlim jarayoniga olib kirish va qoʻllash.


Karboksil va aminoguruhi saqlovchi organik birikmalarga aminokislotalar deyiladi. Oqsillar aminokislotalar qoldigʻidan tashkil topganligi sababli, aminokislotalar juda katta ahamiyatga egadirlar.

Emperik nomenklatura boʻyicha nomlashda aminokislotalar nomi tegishli kislota nomi oldiga amino soʻzi qoʻshib hosil qilinadi. Karboksil va aminoguruhlarining holati α -, β -, γ - kabi harflar bilan ifodalaniladi. Sistematik nomenklaturada esa aminoguruhning holati raqamlar bilan koʻrsatiladi va aminokislotalarning nomi tegishli toʻyingan uglevodorod nomidan hosil qilinadi.


Aminokislotalar tuzilishida bir yoki bir necha karboksil guruhi boʻlishi mumkin. Karboksil guruhi soni, uning asosligini belgilaydi. Aminokislotalarning tarkibida bir yoki bir necha aminoguruhi boʻlishi mumkin. Aminokislotalar izomeriyasi oksikislotalarnikiga oʻxshash boʻladi.

α -aminokislotalar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ularni olishning bir necha usullar ishlab chiqilgan.

Xlor almashgan kislotalarga ammiak taʼsir ettirib, α aminokislotalarni hosil qilish mumkin:



Aldegidlarga ammiak va sianid kislota taʼsir ettirib, α - aminokislotalar olinadi. Bunda dastlab aldemin, soʻngra α - aminokislotalarning nitrili hosil boʻladi. Hosil boʻlgan nitril gidrolizlanganda α - aminokislotalarga aylanadi:



Oqsillar katta molekulyar massaga ega. Masalan, inson qoni zardobi albuminining molekulyar massasi 61500, qon zardobidagi γ -globulinining molekulyar massasi 153000, gemotsianiniki esa 6600000 ga teng.

Maʼlumki mamlakatimiz taʼlim muassasalarida organik kimyo fanini oʻqitish jarayonida innovatsiyalar va ilgʻor xorijiy tajribalarni qoʻllash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. “Avvalo fandagi yangilik nima?”, “Fandagi innovatsiya nima?” degan savollarga javob berish lozim. Yangilik bu fandagi eng soʻnggi yutuqlar, bilimlar, usullar hisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qoʻllanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi. Organik kimyo fanini oʻqitishda bugungi kunda quyidagi innovatsiyalar va taʼlim texnologiyalari qoʻllanilmoqda.

Ular quyidagilar: “Klaster”, “Debat”, “Keys-stadi”, “Aqliy hujum”, “Suhbat”, “Pinbord”, “Muammoli vaziyat”, “Baliq skeleti”, “T-sxema”, “Venn diagrammasi”, “Ikki qismli

kundalik”, “Ruchka stol o’rtasida”, “Rotatsiya”, “Qor bo’ron”, “Asalari galasi”, “Insert”, “Nima uchun”, “B-B-B”, “Zinama-zina” kabilar darsning turidan qat’iy nazar dars sifatini va samaradorligini oshirishga katta xizmat qiladi.

O’qitishni loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi:

Shaxsga yunaltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o’z mohiyatiga ko’ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to’laqonli rivojlanishlarini ko’zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog’liq o’qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashi-lishni nazarda tutadi.

O’qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta’lim, keys-stadi va loyixalash usullari, amaliy ishlar.

O’qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o’zaro o’rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O’qitish vositalari: o’qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o’zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so’rov, oraliq, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o’qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o’quv mashg’uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko’rinishidagi o’quv mashg’ulotlarini rejalashtirish, qo’yilgan maqsadga erishishda o’qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg’ulotlari, balki auditoriya-dan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o’quv mashg’ulotida ham butun kurs davomida ham o’qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Analitik kimyo va uning usullari mavzusini o’qitish jarayoni bo’yicha talabalar bilimni baholash kompyuterda test asosida bajariladi.

Yuqorida ta’kidlanganlarni quyidagicha tasvirlash mumkin?

Ma’lumotli ma’ruza, ko’rgazmali ma’ruza, tugallanmagan so’zlar, tushunchalar tahlili, assessment texnikasi, klaster metodi. Innovatsion texnologiyalar talabalarning faol hayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ularga o’quv jarayonidagi yangi shakldagi interaktiv usullar kiradi.

Adabiyotlar

1. Атоев Э. Х., Аслонов Б. Б., Тураев Ф. Ф. Размышления о стандартизации процедуры дидактического тестирования // Молодой ученый. – 2015. – №. 3. – С. 724-725.

2. M.MKarimov, Z.M.Karimova ; Dispers Sistemalar mavzusini o’qitish orqali talabalarda reflektiv qobiliyatni rivojlantirish. Xorazm ma’mun akademiyasi Axborotnomasi - 9/2021 149-153 betlar.

Sharipova N.O’.

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti,
nsharipova1986@gmail.com*

KIMYO FANINI MAXSUS FANLAR BILAN ALOQADORLIKDA O’TISH USLUBIYOTI

Annotatsiya. Maqolada maxsus fan va kimyo fani aloqadorligini ta’minlovchi ta’lim jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg’or pedagogik va chet el texnologiyalar tajribalarini

o`rganish, darsni turli bosqichlarga bo`lib o`tish o`zining ijobiy natijalarini berishi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: maxsus fan, individual xususiyatlar, optimal metodlar, ko`nikma, malaka, o`quv reja.

Maxsus fanlar bilan kimyo fani aloqadorligini ta`minlash, dars samaradorligini oshirish o`quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg`ulotlarni to`g`ri tashkil etish davr talabidir. Ma`lumki, bunday vazifalarni to`g`ri yo`lga qo`yish o`z-o`zidan bo`lmaydi. Bu qator tadbirlarni ishlab chiqish bilan birgalikda o`qituvchidan ta`lim vositalaridan o`rinli foydalanish zarurligini, optimal metodlarni qo`llash, o`ziga xos izlanish, talabchanlik, tinimsiz mehnat, g`ayrat va shijoat ko`rsatishini talab etadi. O`qituvchining ana shu yo`sinda olib borgan ta`lim-tarbiya ishlari o`z samarasini beradi. O`quvchilarning tushunish qobiliyatlari o`sib, bilim va malakalari kamol topadi.[1]

Maxsus fan va kimyo fani aloqadorligini ta`minlovchi ta`lim jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg`or pedagogik va chet el texnologiyalar tajribalarini o`rganish shuni ko`rsatadiki, darsni turli bosqichlarga bo`lib o`tish o`zining ijobiy natijalarini beradi.

Quyida ana shu bosqichlardan muhimlari haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Birinchi bosqich - o`quvchilarni mutaxassisliklari o`ziga xos xususiyatlari kimyo fani bilan moslashtirishdan iborat bo`lib, ularda kasbiga xayrixoxlik munosabatlarini hosil qilishni, olib boriladigan ishlar bilan tanishtirishni, individual va umumiy jamoa vazifalarni belgilashni tavsiflaydi.

Ikkinchi bosqich - bilim, ko`nikma va malakalarni mustahkamlash bilan bog`liqdir. Bunda o`quvchilarni mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlar doirasini kengaytirishga, mavzuga ijodiy yondashish ko`nikmalarini o`stirishga, g`ayrat va harakat aktivligini takomillashtirishga erishiladi.

Uchinchi bosqich - orqali bilim darajasi aniqlanadi. Shu jarayonda o`quvchilarning idrok etish qobiliyatlari, o`zlashtirishlari tekshirib ko`riladi.

Ko`rinib turibdiki, yuqoridagi har bir bosqich ma`lum maqsad uchun tuzilib, mazmunan bir soatlik dars samaradorligini oshirishga mo`ljallangan.

Kimyo va maxsus fanlar aloqadorligini ta`minlashda quyidagi taklif va tavsiyalarga amal qilinsa, yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi kadrlar tayyorlashga zamin yaratiladi:

- kimyo fanini o`quv rejasida ajratilgan soatni saqlagan holda kichik mutaxassis yo`nalishga bo`lib o`qitish;

- ta`lim tizimidagi izchillik, ketma-ketlik me`yorlariga asoslanib, o`quv dastur va rejalarni qayta ko`rib chiqish;

- kimyo fanidan kichik mutaxassislik yo`nalishlariga moslashtirilgan darslik va qo`llanmalar ishlab chiqishni yo`lga qo`yish;

- har bir kimyo darsini kasbiy yo`nalishga moslab zamon talablari darajasida noan`anaviy usulda tashkil etish;

- kimyo fani o`qituvchilari bilan maxsus fan va ishlab chiqarish ustalari orasidagi fanlararo aloqadorlikni yo`lga qo`yish;

- o`quvchilarning kimyo fanidan olgan bilimlarini o`z kasbiy mutaxassisliklariga qo`llay olishlariga erishish;

- oliy o`quv yurtlarida kimyo fanlarini maxsus fanlar bilan aloqadorligini ta`minlovchi darslar qo`yilsa, ularga qatnashgan talaba mutaxassislik yo`nalishlari bo`yicha ko`nikma va malakaga ega bo`lar edi;

- malaka oshirish markazlari malaka oshirishga kelgan kimyo fani o`qituvchilariga o`z faniga mos maxsus fan yo`nalishlariga doir tushunchalar berishi.[2]

Xulosa qilib aytish mumkinki "O`z-o`zini baholash" usulini qo`llash, talaba qanday bilim, ko`nikma, malaka ega ekanligini o`zi tekshiradi va baholaydi. Bu orqali o`ziga bo`lgan

ishonch va mustaqil fikrlash, kabi xususiyatlarni rivojlantirib ko'proq yangi bilimlarni egallash uchun zarur element va asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Атоев Э. Х., Аслонов Б. Б., Тураев Ф. Ф. Размышления о стандартизации процедуры дидактического тестирования // Молодой ученый. – 2015. – №. 3. – С. 724-725.

2. Савриев Ш. М., Атоев Э. Х. РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ТЕСТОВ В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС // Научно-технический прогресс: актуальные и перспективные направления будущего. – 2015. – С. 26-28.

3. Рамазанов Б.Г. Малакали кадрлар тайёрлаш ва ишлаб чиқариш интеграцияси – долзарб масала. “ЗАМОНАВИЙ КИМЁНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ” мавзусидаги Республика миқёсидаги хорижий олимлар иштирокидаги онлайн илмий-амалий анжумани ТЎПЛАМИ Бухоро, 2020 йил 4-5 декабрь 252-253 бетлар.

Nurilloev Z.I., Nutfilloyeva O.J.

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
Peshku tuman 45-o'rtta umumta'lim maktabi*

O'QUV JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotasiya: Ushbu maqolada o'qituvchi - pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab, ma'suliyatli va dolzarb vazifalarni bajarishda, ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogika, psixologiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborotlar texnologiya.

Bugungi kun uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarni yanada takomillashtirish uchun kompyuter texnologiyasini ta'lim jarayonidagi o'rni, uning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy-tadqiqot misolida yoritish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish darajalarini yana bir bora ko'rib chiqishni talab etadi.

Mustaqil O'zbekistonimiz bugun barcha sohalarda taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Chunki «Biz bugun o'zining kuchi va salohiyatiga ishongan, o'z mehnati, g'ayrat-shijoati bilan xalqaro maydonda obro'-e'tibor qozongan, ertangi kunga g'urur va iftixor, katta ishonch bilan qarayotgan xalqning vakillari, shunday mard va tanti xalqning farzandlarimiz» (O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov). Shu ma'noda bugunning asosiy vazifalaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni ana shu «Mard va tanti xalqqa» munosib inson qilib voyaga yetkazishdir.

Respublikamizda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar ta'lim sohasida ham ma'lum yangiliklar, tubdan o'zgarishlar bo'lishini taqazo etadi. Haqiqatdan ham, chuqur bilimli, keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi pedagoglardan yangicha ishlash prinsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va katta ma'suliyat yuklaydi.

"Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir»

Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

Ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning pedagogik fikrlashida o'rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jarayonida qo'llashga oid tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa hamkorlikka asoslangan, o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan o'quvchilarni boshqalarni fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgaralar

manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish o'zining va boshqalarning "men"ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olishga, ishlatishga qaratilgan "interfaol" o'qitish usullari tez sur'atlar bilan rivojlanib ijobiy samara bermoqda. O'qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar o'quvchilar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, o'quvchilarni harakatchanlikka boshlab ruhlantiradi, natijada o'quvchilar hamkorlikka o'rgana boshlaydi. Har qanday interfaol metod to'g'ri va maqsadli qo'llanilganda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim tizimining ratsional yo'llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi asosiy ma'sul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishidan iboratdir. O'quvchilarni yangiliklarni qabul qilishlari, va bunga moyilliklari hamda fe'l-atvori har-xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mushoxada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Bunda o'quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo'lib, o'qish, mutoala qilish, chizma chizish, proektsiyalarni, formulalarni tushunib, asboblarni ishlata olishi, bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lib, oldilariga qo'yilgan muammolarni yechishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagog oldiga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi, bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini va unga asosan quyidagi asosiy talablarni ifodalaydi:

- ta'lim berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- o'quv tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlarini;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati;

Demak, o'qituvchi - pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab, ma'suliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi;
- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtai nazarda anglashi;
- axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda tadbiiq etishi;
- internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda

foydalana olishi;

- pedagogik mehnatining samaradorligini tahlil etish yo'llarini bilishi va o'ziga o'zi baho bera olishi;

- texnik vositalar va o'quv vositalardan foydalanish yo'llarini bilishi;

- bolalarning barkamol inson bo'lib yetishishida o'zining izlanishlari, ijodkorligi, tashabbuskorligi, hamda betinim mehnatlari orqali ta'lim-tarbiya berish kabilardir.

Yuqoridagi o'qituvchi oldiga qo'yiladigan zamon talablari mazmunini amalga oshirish uchun har bir o'qituvchi yangicha fikrlash tafakkurini o'stirishi, pedagogik texnologiyalari mustaqil o'rganishi, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanlini chuqur bilib olishi kerak.

- ❖ Yangi pedagogik texnologiya nima va biz uni qanday tushunamiz?
- ❖ An'anaviy texnologiyadan farqli jihatlari nimada?

Yangi pedagogik texnologiya darslarining an'anaviy darslardan farqi shuki, bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o'z fikrini erkin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Pedagogik mahorat o'qituvchida yillar davomida shakllanadigan ijodkorlikning oliy namunasi. Ta'lim jarayoni samaraliligini oshirishda o'quvchilarning darslarda faol ishtirokini ta'minlash ham o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. – T.: O‘zbekiston, 1998.-30 b.
2. . Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. –Analiz zarubejnogo opyta. - M.: Znaniye, 1989. - 80 s.
3. Burgan M.S. Innovatsii i novizna v pedagogike - 1999 № 12.
4. Yangi pedagogik texnologiyalar:nazariya va amaliyot; . -T., 2001. -206 b.

G‘afurova G.A.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

KIMYO VA FIZIKA DARSLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya: maqolada kimyo va fizika darslarini o‘qitishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning qulayligi va ayrim muammolari haqida mulohazalar yuritiladi. Hozirgi kundagi fizik kimyo fanini o‘qitishda uchraydigan o‘ziga xos xususiyatlar tahlil qilinadi va zarur tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: endotermik-ekzotermik reaksiyalar, energiyaning saqlanish qonuni, termodinamika qonunlari.

Kimyo va fizika fani o‘qituvchilari o‘rtasida darslar tarkibidagi mavzularni bog‘lovchi doimiy aloqa o‘rnatilishi kerak. Albatta bu aloqa hech vaqt bu fanlarning har birini o‘rganish mantiqini buzmasdan, balki faqat talabalarning mehnat qobiliyatlarini oshirishga, texnik tafakkurlarini rivojlanishiga va aqliy qobiliyatlarini oshirishga imkon berishi nazarda tutilgan. O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlik talabaning o‘qish, o‘rganish, bilimni amalda tadbiq etish faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘rganilayotgan o‘quv fanining umumiy bo‘lgan jarayonlar va hodisalar, nazariyalar va qonunlar, tushunchalari o‘rtasida aloqadorlik ta’minlanadi.

Ma’lumki, oliy o‘quv yurtining ayrim mutaxassisliklarida fizik kimyo fani o‘qitiladi. Bu fan kimyoviy hodisalarni tushuntirish va qonunlarini fizikaning umumiy prinsiplari asosida aniqlab berish bilan shug‘ullanadigan fan sohasi. Kimyoviy termodinamika, kimyoviy kinetika, kataliz, sirt hodisalari, eritmalar, kvant kimyosi haqidagi ta’limotlar, molekularlar, ionlar, radikallarning tuzilishi va xossalari to‘g‘risidagi ta’limotlar fizik kimyoning asosiy bo‘limlari hisoblanadi. Fizik kimyo turli fizikaviy eksperimental tadqiqot usullaridan foydalanib, kimyoviy reaksiyalarning molekular mexanizmini mutassil tushuntirib beradi. [2,4].

Fizik kimyo fanini o‘qitish jarayonida an’anaviy va noan’anaviy metodlardan foydalangan holda talabaga quyidagi fizikaviy tushuncha va bilimlarni berishimiz mumkin. Atom, molekula, elektron bulutlarning energiyasi, moddalarning tuzilishi, elektroliz, Avogadro konuni, Faradey va gaz qonunlari, termodinamika qonunlarini tajribalar va amaliy masalalar yechish orqali amalga oshirish muvofiqdir.

Talabalarga tushuntirish asosida ko‘proq fanga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish va fanlarni genetik bog‘liqligini „Termokimyo va termodinamika asoslari“ mavzusi orqali shakllantiramiz. O‘qituvchi ushbu mavzuni tushuntirish uchun endotermik-ekzotermik reaksiyalar, energiyaning saqlanish qonuni, termodinamika qonunlarini yoritib berishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi darsni savol-javob tarzida olib borishi mumkin. Chunki bu tushunchalar haqida dastlabki ma’lumotlarni maktabning fizika fanida o‘rgangan. Shuning uchun o‘qituvchi mavzuni bayon qilishdan oldin quyidagi muammoli savollarni berishi mumkin:

Nima uchun ekzotermik reaksiyalarda issiqlik ajraladi?

Nima uchun endotermik reaksiyalarda issiqlik yutiladi?

Nima uchun o‘rin almashinish reaksiyasida issiqlik ajralib chiqadi?

Kimyoviy o‘zgarishlarda issiqlik qayerdan kelib chiqadi?

Talabalar o‘qituvchi rahbarligida bu savollarga javob izlab, o‘zaro muhokama qiladilar va kimyoviy misollar yordamida xulosa qiladilar. Fanlararo aloqadorlik muammosi pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib, u ta’lim–tarbiya jarayoniga bo‘lajak

mutaxassislarining o'quv bilish faoliyatini faollashtiradi, bilimlar sifatini oshiradi, ta'limning ilmiyligi, tushunarligi, tizimligi va mobilligini oshirishga xizmat qiladi. [1.3].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, tabiiy fanlarning uzviy bog'langanligidan amalda foydalana bilish kelajakda samarali natijalarga erishishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- 1.. Gaфурова Г. А. Талаба-ёшларда интернет тармоғидан фойдаланиш маданиятини шакллантириш тўғрисида //Интернаука. – 2017. – №. 5-2. – С. 69-70.
2. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari oquv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash to'g'risida. M.I.Sodiqova - Интернаука, 2018 №16-2
- 3.Атоев Э. Х., Гафурова Г. А. Сбалансированность тестовых заданий как один из важных элементов обеспечения их качества //Молодой ученый. – 2016. – №. 3. – С. 775-777.
4. Касб-хунар коллежлари ўқув жараёнида замонавий педагогик технологияларни қўллаш тўғрисида. МИ Содикова - Молодой ученый, 2019

А.А. Амруллоев, Д.А. Ҳазратова
Бухоро давлат университети
dilshoda.hazratova@mail.ru

KIMYO FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablari "Moddalarning xossalari. Fizikaviy va kimyoviy o'zgarishlar" mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlari bayon etilgan. Ushbu metodlardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "T" jadvali, fizikaviy jarayon, kimyoviy jarayon, pedagogik texnologiya, noan'anaviy dars.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir [1]. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda. [2,3]

Umumta'lim maktablarda "Moddalarning xossalari. Fizikaviy va kimyoviy o'garishlar" mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida **B/B/B** va **T** jadvallari hamda shu tushunchalarni mustahkamlash uchun "**uzum pishdi, bog'ga kir**" interfaol usuli qo'llanildi. Mazkur mohiyatan maktab o'quvchilari uchun murakkab mavzularni o'qitishda ta'lim oluvchiga mavzuni o'zlashtirish imkoniyatini beruvchi bir qancha pedagogik usullardan, jumladan, grafik organayzerlardan samarali foydalanish mumkin. [4]


Moddalarning xossalari. Fizikaviy va kimyoviy o'zgarishlar" mavzusini o'qitishda T jadvalidan foydalanish. Mazkur texnologiyadan ma'ruza darslari va amaliy mashg'ulotlarning yakuniy qismida foydalanish qulay. Bunda bir muammo yechimiga turli qarama-qarshi nuqtayi nazarlardan (ijobiy va salbiy, afzallik va kamchilik, foyda va zarar, to'g'ri va noto'g'ri) yondashish imkoniyati paydo bo'ladi.

1.-jadval. (T" jadvali)

+ (ha,ijobiy)	- (yo'q,salbiy)
Shamning yonishi bu - kimyoviy jarayon	Shamning yonishi bu - fizikaviy jarayon
Gazning yonishi - bu kimyoviy jarayon	Gazning yonishi bu - fizikaviy jarayon
Sutning achishi - kimyoviy jarayon	Sutning achishi - fizikaviy jarayon

Muzning erishi - fizikaviy jarayon	Muzning erishi - kimyoviy jarayon
Yodning bug`lanishi - fizikaviy jarayon	Yodning bug`lanishi -fizikaviy jarayon

**Moddalarning xossalari. Fizikaviy va kimyoviy o`zgarishlar” mavzusini o`qitishda
“Uzum pishdi, bog`ga kir” metodidan foydalanish**



1-rasm. “Uzum pishdi bog`ga kir” metodi sxemasi

Bu metodni qo`llash uchun dastlab, terminlarga ilmiy ta`rif berildi. **Fizikaviy hodisa**– modda yoki jismlarning alohida xossalari: modda agregat holati, shakli joylashishi holati o`zgaradi. Fizik hodisalarda yangi modda hosil bo`lmaydi. **Kimyoviy hodisa**- bir moddaning boshqa modda yoki moddalarga aylanishi hodisasi. Bu tushunchalar bo`yicha misollar aytiladi. O`quvchilarga “uzum” shakli chizilgan kartotekalar tarqatildi. Topshiriq: “uzum” asosining o`ng tarafda fizik hodisalar, chap tarafda kimyoviy hodisalarga o`quvchilarning o`zi hayotda duch kelgan voqealar asosida uzum donachalariga hodisalarga misollar yozish.

Ushbu metod 12-13 yoshli o`quvchilar orasida o`tkazildi. 3-jadvalda olingan natijalar qayd etilgan.

2-jadval.

Guruhlar	O`quvchilar soni	Bir xil fikrlarni yozgan o`quvchilar		Yangi fikrlar yozgan o`quvchilar	
		An`anaviy	Noan`anaviy	An`anaviy	Noan`anaviy
1-guruh	28	26	20	2	8
2-guruh	19	15	12	4	7
3-guruh	30	26	23	4	7

Ushbu jadvalda asoslanib shuni xulosa qilish mumkinki, bu usul o`quvchilarni hayotda kompetentligini oshirishda ijobiy ta`sir qiladigan metod hisoblanadi. 3 oydan so`ng shu mavzu haqida yuqoridagi o`quvchilardan so`ralganda, ularning 70-75% qismi qiynalmasdan savollarga javob berdi bundan ko`rinib turibdiki, o`quvchilarda BKM ni shakllanishida o`rinli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Аллаяргов I.A. Дидактические основы актуального обучения: Дис Пед.наук-Тошкент 1997-279 б.
2. Г.А. Ихтиярова, Д.А. Ҳазратова, М. Сафарова. “Кимё фани таълим сифатини оширишда электрон дарсликларни қўллаш истиқболлари” Педагогик маҳорат илмий-назарий ва методик журнал. Бухоро-2017. 170-172 б.
3. D.A. Nazratova. “Kimyo fanini o`qitishda kompyuterlashtirish va unga innovatsion yondashuv” Innovatsiya- modernizatsiyaning konseptual asosi – Respublika ilmiy-amaliy anjuman to`plami. Buxoro -2016, 161-162 b

4. Xoliqova G. Q., Karimov S. S., Karomatov S. A. Akademik litseylarda kimyoni o'qitishdagi pedagogik va psixologik yondashuvlar //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 4.

*Toshmurodov D.A.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
dostonjon.toshmurodov@gmail.com*

BIOKIMYO FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI

Annotatsiya. Jahonda biokimyo fanini o'qitish sifatini yaxshilash, ta'lim jarayoniga innovasion va axborot texnologiyalarini tatbiq etish, integrasiyalash, aralash ta'lim texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish, talabalarning aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyatlari va bilish darajasini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodik ta'minotni yaratishga qaratilgan samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida soha mutaxassislari tomonidan biokimyo fanini innovasion va axborot texnologiyalari asosida o'qitish jarayonini takomillashtirish, nazariy-metodologik va uslubiy asoslariga oid ilmiy ishlanmalarni ta'lim jarayonida qo'llashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kaltit so'zlar: innovasion, axborot texnologiyalari, integrasiyalash, aralash ta'lim texnologiyasi imkoniyatlari.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sanoat davridan axborot texnologiyalari davriga o'tish natijasida ta'lim sohasiga oid axborotlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Bu o'z navbatida har bir biokimyo o'qituvchisi oldiga o'quv reja va dasturlarida belgilangan mavzular doirasidagi bilimlarni egallash bilan chegaralanib qolmasdan, ijodiy faoliyat yuritishi, tadqiqot ishi qilishi, ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga sharoit yaratish muhim vazifalardan ekanligini taqozo qilmoqda [1, 2].

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga yangiliklarni joriy etishda har bir pedagog asosiy rol o'ynaydi. Ta'lim mazmuni qanchalik yangilanmasin, yangi dastur, standartlar yaratilmasin, ularning ta'lim jarayoniga qay darajada tatbiq etilishi, eng avvalo, o'qituvchiga bog'liq bo'lib qolaveradi. Shu bois biokimyo o'qituvchisi o'qitish jarayoniga kundalik axborotlarni uzluksiz ravishda o'rganib, o'z ish faoliyatiga to'liq tatbiq qilib borishi natijasidagina ta'lim-tarbiya jarayonining zamon talablari darajasida bo'lishiga erishiladi [3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan oliy ta'lim muassasalarining Davlat ta'lim standarti, umumixtisoslik va umumkasbiy fanlaridan o'quv-uslubiy majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo'yiladigan umumiy talablar tasdiqlandi. Mazkur Qarorning qabul qilinishi oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu Davlat ta'lim standartlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida fanlarni, jumladan, biologik kimyo fanini o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. Shuningdek, mazkur Qarorda shu sohada olib borilgan tadqiqot ishlarda ham pedagoglarning o'z ustida mustaqil va muntazam ishlashi, o'quv jarayoniga yo'naltiruvchanliklarni shakllantirishning samarali mexanizmi ishlab chiqilmaganligi kabi kamchiliklar mavjudligi ta'kidlangan.

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida multimediali texnologiyalar muhim sanaladi va uning muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirligi hisoblanadi. Kompyuter va multimediali proektorning paydo bo'lishi esa ma'ruzachi nutqini tovush, video va animasiya hamkorligida sifatli tashkil etishning barcha zaruriy jihatlarini o'zida mujassam qilgan ko'rgazmali materiallarni taqdimot sifatida tayyorlash va namoyish etishga imkon berdi.

Multimediali texnologiya - bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animasiya, videotasvir, ovoz va h.k.

So'nggi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy mahsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqalar shular jumlasidan.

Multimedia mahsuloti:

Birinchidan, foydalanuvchiga, albatta, interfaollikni taqdim etadigan, ya'ni inson va kompyuter o'rtasida bo'yruq va javoblar almashinuvini ta'minlab, dialog muhitini yaratadigan dasturiy mahsulot;

Ikkinchidan, turli video va audio effektlar ishlatiladigan muhit.

Macromedia Direktor – taqdimot va multimedia mahsulotlari yaratishga xizmat qiladi. Ushbu dastur MMX-texnologiyalar bilan, shuningdek, tugmalar, slaydlar, klip va animasiyalar bilan ishlashga imkon beradi.

Multimedia ilovalari quyidagilarga bo'linadi:

- taqdimotlar;
- animasion roliklar;
- o'yinlar;
- videoilovalar;
- multimediali galereyalar;
- audioilovalar.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida AKTni ta'lim jarayoniga joriy qilish ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashadi. O'qituvchining AKT dan foydalanib shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil qilishga tayyorligini shakllantirish ta'lim jarayoni samaradorligining ortishiga olib keladi [4].

Bugungi kunda axborot-ta'lim tizimlari hisoblash va kommunikasiya jihozlari, dasturiy ta'minot va xodimlarni o'z ichiga olgan komplekslar bo'lib, ta'lim jarayonidagi barcha qatnashchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ta'lim tizimining dinamik o'zgarishdagi axborot modelini qo'llashni ta'minlamoqda. Gap ta'limning axborot tizimini qo'llash va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida butun ta'limning axborot-ta'lim tizimi haqida bormoqda [5,6].

Keyingi yillarda ilmiy tadqiqot ishlar diqqat markaziga kompyuter, lokal tarmoqlar, shuningdek, Internet global tarmog'ining psixologik-pedagogik imkoniyatlaridan ta'lim tizimida (uning barcha bosqichlarida) foydalanish imkoniyatlari masalalari qo'yilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari (AT) psixologik-pedagogik imkoniyatlarini aynan shu nuqtai nazardan o'rganib, ularni ta'lim jarayoniga joriy qilishning samarador variantlarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Shaxsiy va cho'ntak kompyuterlari, tarmoq resurslari bilish va kommunikasiya imkoniyatlarimizni kengaytiradi [7, 8].

Ta'lim resurslarini tanlash – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan

holda o'qituvchi, talaba va mashg'ulotni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. O'qitish va o'qish strategiyasi – belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim usuli, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sabirova R. A. Biokimyo Toshkent 2020 174 bet.
2. Леднева И. О., Петушок Н. Э. ББК 52.57 я73 Л43 Рекомендовано Центральным научно-методическим советом ГрГМУ (протокол № 5 от 26.06. 2020). – 2020.
3. Safin M.G Biokimyo va molekulyar biologiya. Samarqand SamDU nashri 2021-364b.
4. Бегимкулов У.Ш. ва бошқалар. Педагогик таълимни ахборотлаштириш: назария ва

5. Бегматов Ш.Ш. Методические основы взаимосвязи уроков и внеурочных занятий по химии: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент: Узбекский научно-исслед. институт пед. наук им. Т.Н. Кары-Ниязова. 2003. – с. - 17.

6. Беликов К. Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей химии по развитию креативности учащихся. Дисс. на соис. уч. ст. канд. пед. наук. Самара. 2008.

7. Белов П. С. Формирование химических компетенций обучаемых на практических занятиях по химии. Дисс.на соис. уч. ст. канд. пед.наук. Нижний Новгород. 2012.

8. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: Изд-во Института профессионального образования Министерства образования России, 1995.

Adizova Nargiza Zamirovna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

ORGANIK KIMYO FANIDAN “ OQSILLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI.

Annotatsiya: Ta`lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko`tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustivor yo`nalishiga aylandi.

Kalit so`zlar: Ta`lim, tarbiya, texnologiyalar, zamonaviy usul, vositalar, samarali, fizik, kimyoviy, organik kimyo fanini o`qitish jarayoni, oqsil, peptid bog`lari, ayominokislota, innovatsiyalar, ilg`or xorijiy tajribalar, metod, chorak, semestr, tafakkur,, o`stirish, pedagogik, xomashyo, mahsulotlar sifatini nazorati, mexanizm.

Organik kimyo fanini o`qitish jarayonida bugungi rivojlangan kun talablariga javob bera oladigan xorij oliy ta`lim muassasalarida keng miqyosda qo`llaniladigan innovatsion va pedogogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga olib kirish va qo`llash.

Karboksil va aminoguruhi saqlovchi organik birikmalarga aminokislotalar deyiladi. Oqsillar aminokislotalar qoldig`idan tashkil topganligi sababli, aminokislotalar juda katta ahamiyatga egadirlar.

Emperik nomenklatura bo`yicha nomlashda aminokislotalar nomi tegishli kislota nomi oldiga amino so`zi qo`shib hosil qilinadi. Karboksil va aminoguruhlarining holati α -, β -, γ - kabi harflar bilan ifodalaniladi. Sistematik nomenklaturada esa aminoguruhning holati raqamlar bilan ko`rsatiladi va aminokislotalarning nomi tegishli to`yingan uglevodorod nomidan hosil qilinadi.

Aminokislotalar tuzilishida bir yoki bir necha karboksil guruhi bo`lishi mumkin. Karboksil guruhi soni, uning asosligini belgilaydi. Aminokislotalarning tarkibida bir yoki bir necha aminoguruhi bo`lishi mumkin. Aminokislotalar izomeriyasi oksikislotalarnikiga o`xshash bo`ladi .

Oqsillar yoki proteinlar – murakkab, yuqori molekulyali organik birikmalar bo`lib, o`zaro amid bog` bilan bog`langan aminokislotalar qoldiqlaridan tuzilgan. Bir xil oqsil tarkibiga turli xil aminokislotalar kirishi mumkin. Oqsil to`liq gidrolizgna uchraganda aminokislotalar hosil bo`ladi.

Oqsillar katta molekulyar massaga ega. Masalan, inson qoni zardobi albuminining molekulyar massasi 61500, qon zardobidagi γ -globulinining molekulyar massasi 153000, gemotsianiniki esa 6600000 ga teng.

Ma`lumki mamlakatimiz ta`lim muassasalarida organik kimyo fanini o`qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg`or xorijiy tajribalarni qo`llash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. “Avvalo fandagi yangilik nima?”, “Fandagi innovatsiya nima?” degan savollarga javob berish lozim. Yangilik bu fandagi eng so`nggi yutuqlar, bilimlar, usullar hisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo`llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi.

Organik kimyo fanini o`qitishda bugungi kunda quyidagi innovatsiyalar va ta`lim texnologiyalari qo`llanilmoqda.

O`kuv jarayoni bilan bog`lik ta`lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma`ruzalar o`qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg`or pedagogik texnologiyalardan va mul`timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, uylantiradigan muammolarni ular oldiga qo`yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qiluvchi ko`plab metodlar mavjud.

Ular quyidagilar:

“Klaster”, “Debat”, “Keys-stadi”, “Aqliy hujum”, “Suhbat”, “Pinbord”, “Muammoli vaziyat”, “Baliq skeleti”, “T-sxema”, “Venn diagrammasi”, “Ikki qismlı kundalik”, “Ruchka stol o`rtasida”, “Rotatsiya”, “Qor bo`ron”, “Asalari galasi”, “Insert”, “Nima uchun”, “B-B-B”, “Zinama-zina” kabilar darsning turidan qat`iy nazar dars sifatini va samaradorligini oshirishga katta xizmat qiladi.

O`qitishni loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi:

Shaxsga yunaltirilgan ta`lim. Bu ta`lim o`z mohiyatiga ko`ra ta`lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta`limni loyixalash tirilayotganda, albatta, ma`lum bir ta`lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashi-lishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta`lim texnologiyasi tizimning barcha belgi-larini o`zida mujassam etmog`i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yunaltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifat-larini shakllantirishga, ta`lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyat-lari, tashabbuskorligini ochishga yunaltirilgan ta`limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o`quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollash-tirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta`limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e`tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta`lim. Ta`lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta`lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob`ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo`llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta`minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo`llash-yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llash.

O`qitishning usullari va texnikasi. Ma`ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta`lim, keys-stadi va loyixalash usullari, amaliy ishlar.

O`qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o`zaro o`rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O`qitish vositalari: o`qitishning an`anaviy shakllari (darslik, ma`ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so`rov, oraliq, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o`qitish diagnostikasi.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriklari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Analitik kimyo va uning usullari mavzusini o'qitish jarayoni bo'yicha talabalar bilimini baholash kompyuterda test asosida bajariladi.

Yuqorida ta'kidlanganlarni quyidagicha tasvirlash mumkin?

Ma'lumotli ma'ruza, ko'rgazmali ma'ruza, tugallanmagan so'zlar, tushunchalar tahlili, assessment texnikasi, klaster metodi

Innovatsion texnologiyalar talabalarning faol hayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ularga o'quv jarayonidagi yangi shakldagi interaktiv usullar kiradi.

Organik kimyo kursinining "Oqsillar" mavzusi bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars ishlanmalari talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Рамазанов Б.Г. Малакали кадрлар тайёрлаш ва ишлаб чиқариш интеграцияси – долзарб масала. "ЗАМОНАВИЙ КИМЁНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ" мавзусидаги Республика миқёсидаги хорижий олимлар иштирокидаги онлайн илмий-амалий анжумани Тўплами Бухоро, 2020 йил 4-5 декабрь 252-253 бетлар.

2. Рамазанов Б.Г. Инновацион таълим - бугунги кун талаби. Енгил саноатда фан-таълим ва ишлаб чиқаришнинг инновацион ечимлари республика илмий-амалий анжумани материаллари. Бухоро, 2021, 1-том.

Abdullayeva M., Atoyev E.X.

Buxoro Muhandislik Texnologiyalar Instituti

TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING XUSUSIYATLARI TO'G'RSIDA

Annotatsiya: Maqolada o'quv jarayonida ishlatiladigan pedagogik texnologiyalarning turlari, har bir ta'lim shaklini o'qitishda ishlatilishi mumkin bo'lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash talablari va jihatlari to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, Ideal texnologiya, ideal metodologiya, noan'anaviy texnologiya, pedagogik kvalimetriya.

Ma'lumki, ta'lim sohasidagi har qanday tushunchalar ularni amalga oshirish uchun ma'lum bir faoliyat tizimini yaratishni talab qiladi, ular uslubiy deb ataladi. Ammo kafolatlangan natijaga erishish uchun ularga qattiq algoritmik ketma-ketlik berilsa, ular texnologiya deb ataladi. "Ta'lim texnologiyalari" tushunchasi, ularning keng qo'llanilishiga qaramay, juda shartli. O'quv jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar turlarini ta'lim yoki o'qitish emas, balki pedagogik (PT) deb atash mantiqan to'g'ri keladi.

Texnologiyalar va usullar o'rtasidagi farq muammosi bahsli. Ba'zi olimlar texnologiyani metodologiyani amalga oshirish shakli deb hisoblasa, boshqalari texnologiya tushunchasi metodologiyadan kengroq ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq, bizning fikrimizcha, texnologiya ham, metodologiya ham tizimli (ya'ni, ular ilmiy huquqiy qoidalar tizimiga asoslangan), ammo ideal texnologiya qat'iy belgilangan retseptlar tizimiga ega, degan xulosa, bizning fikrimizcha, eng mumkin bo'lgan narsa. maqsad sari yetaklaydi [1,2].

Boshqa tomondan, metodologiya nazariy qoidalarni amalga oshirishning turli usullarini nazarda tutadi va shuning uchun maqsadga erishish kafolatini nazarda tutmaydi, ya'ni. hatto ideal texnika ham yuqori instrumentallikka ega emas. Ideal texnologiya va ideal metodologiya juda kam uchraydi, har qanday didaktik (pedagogik) tizim o'zining instrumentallik darajasiga qarab, texnologiyaga (yuqori darajadagi instrumentallik) yoki metodologiyaga (pastlik darajasi)

yaqinroq bo'lishi mumkin. PTning instrumentalligi - aniq harakatlarni ishlab chiqish va algoritmlash (maqsadlarni belgilashdan boshlab), maqsadga olib keladigan bosqichlar, bosqichlar, operatsiyalarning aniqligi va ravshanligi. Faqatgina bunday hollarda texnologiyaning takrorlanishi va natijaning kafolati ta'minlanadi. Instrumentallik darajasi didaktik tizimning texnologiyaga yoki metodologiyaga yondashuvining belgisi bo'lishi mumkin.

O'z navbatida, PTni eski, an'anaviy, an'anaviy va yangi, noan'anaviylarga bo'lish mumkin, ularning ko'pi allaqachon ishlab chiqilgan. Shunday qilib, G.K. Selevko zamonaviy ta'limda qo'llaniladigan qirqdan ortiq texnologiyalarni tavsiflab berdi, shuningdek ularning ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini ochib berdi [1].

Noan'anaviy texnologiyalar materialning intensiv taqdimoti, talabalarning faol pozitsiyasi va mustaqilligining yuqori darajasi, doimiy ichki fikr-mulohazalar (o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tuzatish), dialog, muammolilik bilan tavsiflanadi. Ushbu zamonaviy texnologiyalar samarali an'anaviy ta'limning ko'plab xususiyatlarini o'zlashtirgan va ularni rivojlantirishda davom etmoqda. 50-yillarning o'rtalarida PTning birinchi ta'riflaridan biri. O'tgan asrning dasturlashtirilgan ta'limiga taalluqli - bu muqarrar ravishda rejalashtirilgan natijaga olib keladigan pedagogik jarayonning ilmiy tavsifi (vosita va usullar to'plami). Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi bixeviorizm nazariyasiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra o'quv faoliyati printsipi bo'yicha tashkil etilgan: stimul (S) - reaksiya (R) - mustahkamlash (P) [3].

Ko'pgina ekspertlarning fikricha, ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichi an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan (kitoblar, filmlar, televidenie) yangi axborot texnologiyalari - kompyuterlashtirilgan axborotni saqlash tizimlari, optik aloqa kanallari, mikroelektron qurilmalar va boshqalarga o'tish bilan tavsiflanadi.

Bo'lajak o'quv PTni loyihalash - bu o'quv holatlarini, o'quv sub'ektlari faoliyatini dasturlash imkonini beradigan, shuningdek, yuqori ehtimollik bilan istalgan natijalarni kafolatlaydigan tizimli loyihalash faoliyatini anglatadi. PT ning muhim atributlari natijalarning o'lchanishi va takrorlanishidir. Texnologik tizimlarda, agar uni o'lchash va amalda takrorlash mumkin bo'lmasa, biror narsa e'lon qilinmaydi.

Butun o'quv jarayoniga taalluqli o'quv jarayonlarining takrorlanishi haqidagi umumiy g'oya uning "tirik" o'qituvchidan mustaqil bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Agar o'quv kursi to'liq takrorlanadigan o'quv epizodlariga bo'lingan bo'lsa, ideal holda o'qituvchi faqat allaqachon tuzilgan materiallar bilan ishlashga o'rgatilgan tashkilotchi va maslahatchi rolini o'ynaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi "brend" didaktik loyihaning passiv ijrochisi sifatida ishlaydi va ba'zi G'arb texnologlarining fikriga ko'ra, uning shaxsiyati, madaniyati va malakasi alohida rol o'ynamaydi. Bu "texnokratik tafakkur"ning ekstremal ifodasidir, bu o'rganish uchun juda foydali bo'lib, uning insoniylashuviga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта. - М.: "Знание", 2010.
2. Трайнёв В.А., Трайнёв И.В. Информационные коммуникационные педагогические технологии. Учебное пособие. - М.: 2008.
3. Кастелс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. М.: 2000.

И.М.Нурмонова, Холмуродова Д.К
Самарқанд давлат тиббиёт институти
dilyax82@mail.ru

БИОКИМЁ ФАНИНИ ТИББИЁТ ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИДА ЎРГАНИШДА КИМЁНИНГ АҲАМИЯТИ.

Аннотация Ушбу мақолада биокимё фанини ўқитиш жараёнида кимёнинг ўрни, талабаларнинг методик билимлари ва кўникмаларини шакллантириш, илмий ва услубий

омилларнинг бирлигини аниқлаш, бўлажак тиббиёт ходимлари учун биокимёни ўрганишда кимёнинг ўрнини кўрсатиб бериш усул ва воситалари ҳақида фикр юритилган.

Таянч сўзлар: кимё, биокимё, кўникма, малака, ёндашув, ферментлар.

Биокимё фани тиббиётнинг таянч фани ҳисобланади. Шунинг учун ҳам бу фанни талабаларга етказиб беришда кимё фани асос бўлиб хизмат қилади. Биокимёни ўқитиш жараёнида талабаларнинг методик билимлари ва кўникмаларини шакллантириш, ривожлантириш биокимёвий материалнинг ўзига хос сингдирилишига боғлиқ. Шу муносабат билан биокимёвий ва услубий омилларни яхлит услубий тизимга интеграция қилиш учун баъзи механизмларни ишлаб чиқиш зарур. Илмий ва услубий омилларнинг бирлигини аниқлаш учун биокимёни яхлит тизим сифатида ўрганиш керак. Бу эса кимё ва биология фанларини интеграциясига боғлиқ. Ҳар бир биокимёвий методик муаммони ечиш учун кимёнинг маълум кўникмаларини қўллаш талаб этилади. Моделли муаммоли топшириқларни яратиш учун асос бўлиб, ўқитувчи ўз меҳнат фаолиятида дуч келадиган ҳақиқий вазиятлар ифодаланган биокимё, педагогика ва кимёни ўқитиш методикаси бўйича методик нашрлар ва практикумлар материали хизмат қилади. Кимё ўқитувчининг методик кўникмалари тизими: Ўқитувчи фаолияти ва кимёвий мазмун ўртасидаги зиддиятлар талаба-ўқувчи учун одатий бўлган кимёвий мазмунни идрок этиши ва мазкур мазмунни кимё ўқитувчисининг идрок этиши ўртасида тафовутларга асосланган. Биринчидан, талабалар ОТМда ўзлаштирадиган кимё фани ҳажми, мактабда ўқиган фан ҳажмидан анча даражада юқори. Шу сабабли бўлажак тиббиёт ходимлари учун кимёвий мазмунни ўзлаштириш билан бир вақтда, уни танлаш ва структуралаштириш бўйича кўникмаларни эгаллаш муҳим ҳисобланади. Мазкур кўникмалар, ўз навбатида, мазмундаги асосий ғояларни аниқлашга асосланган. Шунинг учун ҳам тиббиёт олийгоҳларида талабаларга 1-курсада тиббий кимё фани ўқитилади. Дастлаб улар кимёни тиббиёт билан боғлаб ўрганганда қийинчиликларни англайдилар. Масалан, тиббий кимё фанида “ферментлар” мавзуси талабалар учун ҳам қизик, ҳам мураккаб ҳисобланади. Чунки, улар мактаб дастурида анорганик катализаторлар мавзусини ўтганлиги учун ферментлар ҳам органик катализатор эканлигини тез англай олишади. Лекин, организмда борадиган асосий биокимёвий жараёнларни бошқарувчи ферментларни хоссалари, ҳолати, вазифалари, қайси фермент қайси реакцияни катализлашини ўрганиш уларга бир қанча қийинчиликлар туғдиради. Тиббий кимё фанида ферментларни ўрганишда нафақат унинг кимёвий тузилишига асосий эътибор қаратиш керак, балки биокимё учун муҳим тараф бўлган ферментлар фаолияти ҳам айнан талабаларга 1-курсиданок тушунтириб борилади. Ва талабалардан ферментларни барча хоссаларини ўрганиш талаб этилади.

Умуман олганда кимё биокимё фани учун асос ҳисобланади. Кимёни ўрганмасдан туриб биокимё фанига кириб бўлмайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бегматов Ш.Ш. Методические основы взаимосвязи уроков и внеурочных занятий по химии.: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Ташкент: Научно-исслед. институт пед. наук РУз им. Т.Н. Кары-Ниязова. 2003

2. Нишонов М., Мамажанов Ш.А. Олий ўқув юртлири «Кимё ўқитиш методикаси» курсининг тузилиши ва мазмунини такомиллаштириш // Педагогик таълим. – Тошкент, 2004.

3. Н.Т. Алимходжайева, Х.С. Таджийева. Тиббий кимё 2- қисм Биоорганик кимё Тиббиёт институти 1-курс талабалари учун дарслик Ижод-принт.- Тошкент 2019.

PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA YUTUQLARI

Annotatsiya: Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligi ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, texnologiyalar, zamonaviy usul, vositalar, fizik, kimyoviy, organik kimyo fanini o'qitish jarayoni, ilg'or xorijiy tajribalar, metod, pedagogik, xomashyo, mahsulotlar sifatini nazorati, mexanizm

O'zbekiston respublikasida uzluksiz ta'lim tizimining bosh maqsadi davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlay oluvchi yetuk kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishni talab qiladi. Respublikamizda ta'lim - tarbiya tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ta'limning uzluksizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari va shart-sharoitlari belgilab berilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish jarayonida o'quvchilarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularda ijodiy va bilish faoliyatini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlashning mavjud tizimi, ahvoli va muammolari tizimli tahlil etilgan bo'lib, uning qayta isloh qilinishi va yangi modelning yaratilish zaruriyati asoslab berilgan. Uning maqsadi yuqori malakali raqobat bardosh kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishdir.

Dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish va mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarga ta'lim tarbiya berish bilan birga, ularning ongini, dunyoqarashini kengaytirish, shu bilan birga yetuk, barkamol, aqli raso inson qilib tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Yosh avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani amalga oshirish uchun o'qituvchi va ustozlar o'z fanining zukkosi, talabchani va o'z faniga o'quvchilarni qiziqitira olishi, zamon bilan hamnafas ta'lim-tarbiya olib borilishi talab etiladi. Hozirgi rivojlanish bosqichida akademik litsey, kasb-hunar kollejlari yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga e'tibor yanada ham kuchaytirildi, dars mashg'ulotlari sifatini yaxshilash, uni jahon andozalari darajasiga yetkazish asosiy maqsadlardan biriga aylandi. Bugungi o'quvchi yoshlar zimmasiga katta mas'uliyat, yurt taqdiri vatan kelajagi taqdiri turibdi. Demak, endigi kadrlar sifati masalasi ko'proq maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim dargohlarida beriladigan ta'lim-tarbiyaning sifatiga, mazmuniga aloqadordir.

Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, o'quvchilarni bilim darajasi yuqori, aqliy faoliyati etuk va mustaqil fikrlay olishi zarur.

Darslarda faqat o'qituvchi aktiv faoliyat ko'rsatmasdan, balki o'quvchilar passiv holatdan darsning asosiy ishtirokchisiga aylanishi, ya'ni mustaqil ishlashlari zarur. Shu sababli ularga chuqur va puxta bilim berish borasida turli xil noan'anaviy uslublardan, yangi pedagogik va texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish muhim ahamiyatga ega va hozirgi kun dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Yangi usullarni ta'lim jarayonlarini tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu holat ta'lim jarayoni ishtirokchilarini bilimlarini kengaytirishga, ijodkorlikka, tinimsiz izlanishga, o'z ustida ishlashga har bir darsni haqiqatdan ham bir san'at asari sifatida taqdim etishga olib kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Атоев Э. Х., Аслонов Б. Б., Тураев Ф. Ф. Размышления о стандартизации процедуры дидактического тестирования // Молодой ученый. – 2015. – №. 3. – С. 724-725.

2. Савриев Ш. М., Атоев Э. Х. Разработка и применения компьютерных дидактических тестов в учебный процесс //Научно-технический прогресс: актуальные и перспективные направления будущего. – 2015. – С. 26-28.

N.M.Amonova, G.A.Xudoynazarova
Buxoro davlat universiteti

O'QUVCHILARGA KIMYOVIY BILIMLARNI BERISHDA NIMA UCHUN? SXEMASIDAN FOYDALANISH

Annotasiya. Ushbu tezisdan umumta'lim o'rta maktab kimyo darslarida "Tuzlar gidrolizi" mavzusini o'qitishda muammoni aniqlash va tahlil qilish vositalaridan "Nima uchun?" sxemasini qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish yo'llari va o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarida faol ishtirok etish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida namunaviy dars ishlanmasi ishlab chiqildi.

Tayanch so'zlar: kimyoviy bilim, grafik organayzer, "Nima uchun" sxemasi, tuzlar gidrolizi, muammoli ta'lim

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga asosan 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **harakatlar strategiyasining IV yo'nalishi - Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bosqichida** uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish; ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish masalariga alohida e'tibor qaratilgan.[1-2] Har bir davlatning kelajagini har tomonlama yetuk, barkamol avlod quradi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimiz kelajagini quruvchi yoshlarni bilimli, yuksak madaniyatli qilib tarbiyalash doimo dolzarb muammo va vazifadir.

Noan'anaviy darslardan foydalanilganda, talabalarning dars mazmunini o'zlashtirib olish imkoniyati kengayadi. Respublikamiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda.


Kimyo fani o'qituvchisi sifatida umumta'lim o'rta maktab kimyo darslarida o'quvchilarga o'tilayotgan mavzu bo'yicha bilimlarni yetkazishda tahliliy ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tahliliy ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usul va vositalari 3 ko'rinishda namoyon bo'lib, ular muammoni aniqlash, tahlil qilish va rejalashtirish; ma'lumotlarni tarkiblashtirish va qayta tarkiblashtirish hamda ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslashdan iboratdir. Quyida "Tuzlar gidrolizi" mavzusini o'qitishda muammoni aniqlash va tahlil qilish vositalaridan "Nima uchun?" sxemasini qo'llagan holda dars uslubiyoti yaratildi. [3-5]

«**Nima uchun**» **sxemasi** – muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

O'quvchilar «Nima uchun» sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. «Nima uchun» so'rog'ini berib, chizma orqali muammoning dastlabki sababi aniqlamaguncha savolga javob yozadilar. Bu jarayonda o'quvchilar kichik guruhlariga birlashadilar, o'zlarining fikrlarni taqqoslaydilar, «Nima uchun» sxemasini to'ldiradilar va umumiy chizmaga keltiradilar. Ish natijalari taqdimot orqali tahlil qilinadi.

11-sinfda “Tuzlar gidrolizi. Tuzlar gidrolizida eritma muhiti va vodorod ko’rsatgichi (pH)” mavzusiga 2 soat vaqt ajratilgan bo’lib, o’qituvchi dastlab 7 sinfda o’tilgan tuzlar haqida ma’lumotlarni so’rash orqali tuzlarning olinish usullari xotiraga keltiriladi. So’ngra tuzlar gidrolizi bo’yicha nazariy ma’lumotlar beriladi va tegishli gidroliz tenglamalari yozib tushuntiriladi. Bunda o’qituvchi **“Nima uchun”** sxemasidan foydalangan holda muammoli ta’limni qo’llash mumkin, ya’ni dastlab o’qituvchi tomonidan o’quvchilarga asosiy muammo qo’yiladi.



Mana shu tariqa metodning boshida qo’yilga muammoli vaziyat bosqichma bosqich yechilib boradi. Demak, kimyoviy bilimlarni berishda **“Nima uchun”** sxemasidan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirish yo’llari va o’quvchilarning o’quv mashg’ulotlarida faol ishtirok etish, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Sh.Miziyoyev. Oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning tamoyillarini joriy etish chora – tadbirlari to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma’rifat gazetasi, 2019 yil 13-iyul, №54
2. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ўзбекистон Республикасининг Президенти Мирзиёев Ш.М. 2017 йил 7 феврал 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича **ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ**. Тошкент. 2017 й. 7 февраль, ПФ-4947-сон
3. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш – Тошкент, 2010.- Б.147
4. Xudoynazarova G.A. Kimyo fanini o’qitishda qo’llaniladigan innavasion texnologiyalar. Uslubiy qo’llanma. Buxoro. “Durdona” 2020. 160 б
5. G.A.Xudoynazarova, Nurmurodova M.A., G.A.Xudoynazarova. Kimyo fanini o’qitishda muammoli ta’lim texnologiyalarini ahamiyati. Pedagogik mahorat. Ilmiy – nazariy va metodik jurnal. 2021. №6 Б.187-191

О.А. Саидов, У.У. Хафизов, Ф. М. Нурутдинова
Бухарский государственный университет
parviz.feruza83@mail.ru

«БИООРГАНИК КИМЁ, ОРГАНИК КИМЁ ВА ФИЗИКАВИЙ КИМЁ» ФАНЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Аннотация: Маколада Биоорганик кимё, Органик кимё ва Физик кимё фанларидан дарсларда инновацион технологиялардан унумли фойдаланиш ва самарадорликни ошириш тўғрисида маълумотлар келтирилган. Олий таълимда ўқитиладиган маъруза ва лаборатория машғулотларини автоматлаштириш мақсадида яратилган электрон дарсликларнинг роли ва аҳамияти тажриба синовлар асосида ёритилган. Биоорганик кимё, Органик кимё ва Физик кимё фанларидан электрон дарслик мультимедия технологияларидан фойдаланиш билан бир қаторда ўқувчи ёки талаба яқка тартибда фойдаланиши учун ҳам қулай бўлиши лозим.

Калит сўзлар: инновацион технологиялар, электрон дарслик, мультимедия, вертуал

Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”да ўқув жараёнининг моддий техник ва ахборот базаси етарли эмаслигига, юқори малакали педагог кадрларнинг етишмаслиги, сифатли ўқув-услубий ва илмий адабиёт ҳамда дидактик материалларнинг камлиги, таълим тизими, фан ва ишлаб чиқариш ўртасида пухта ўзаро ҳамкорлик ва ўзаро фойдали алоқадорликнинг йўқлиги кадрлар тайёрлашнинг мавжуд тизимидаги жиддий камчиликлар сирасига киради, деб кўрсатиб ўтилган. Шунинг билан бир қаторда илғор педагогик технологияларни яратиш ва ўзлаштириш юзасидан мақсадли инновация лойиҳаларини шакллантириш ҳамда амалга ошириш орқали илм-фаннинг таълим амалиёти билан алоқасини таъминлаш чора тадбирини ишлаб чиқиш, илғор ахборот ва педагогик технологияларини амалга ошириш учун тажриба майдончалари барпо этиш орқали эса илмий тадқиқотлар натижаларини таълим тарбия жараёнига ўз вақтида жорий этиш механизмини рўёбга чиқариш, замонавий ахборот технологиялари, компютерлаштириш ва компютерлар тармоқлари негизида таълим жараёнини ахборот билан таъминлаш ривожланиб бориши белгилаб қўйилган.

Электрон дарсликлар бирор фан ёки мавзу ҳақида тўла маълумотларни ўз ичига олган бўлиши ва уни анимация ёки видео тасвирлар ёрдамида, бойитилган ва овоз матнини тўлалигича такрорланмаслиги керак. Электрон дарслик мультимедия технологияларидан фойдаланиш билан бир қаторда ўқувчи ёки талаба яқка тартибда фойдаланиши учун ҳам қулай бўлиши лозим. Бу эса ўқувчи ёки талабаларга тайёр консультация бўлиб хизмат қилиши мумкин. Демак бундан келиб чиқадикки, электрон дарслик узлуксиз ва тартибланган кетма кетликда бўлиши керак. Ҳар қандай танланган мавзу ёки бўлим айниқса амалий машғулотлар ва текшириш (тест) билан яқунланган бўлсагина самарали ва натижали бўлиши мумкин [1].

Биоорганик кимё, Органик кимё фанидан электрон дарслик асосан 5 қисмдан иборат бўлади.

1. Матннинг компютерда кўриниши.
2. Тақдимотли (мультимедиа) ташкилий – бу ерда коллоид кимёга оид анимациялар кўрсатилади.
3. Тест назорати – бунда фандан олинган назарий билимлар баҳоланади.
4. Ҳар бир мавзуга оид таянч иборалар берилади.
5. Кимё фанига ҳисса қўшган олимлар ҳаида маълумот берилади.



1-Расм
дарсликдаги
кимёдан
саҳифаси

Электрон
Биорганик
анимациялар

Талаба яратиладиган электрон китоб орқали қуйидаги имкониятларга эга бўлиши мумкин:

1. Зарурий маъруза ва лаборатория ишларини режа асосида тезда излаш (оддий дарсликда буни топиш қийин);
2. Китоб ва дарсликда бўлмаган аудио, видео кўринишларни: тажрибаларда содир бўладиган ходисаларни – газнинг ажралиши, моддаларнинг ёнишини, чўкманнинг ранги, унинг эришини видеода жонли овоз, ранглитасвир, мусиқа ёрдамида ҳаракат элементларини кўриш ва эшитиш;
3. Мавзуга тегишли реакция тенгламаларини ва тажрибаларни анимацион кўриш;
4. Кимёвий формулалар, схемаларнинг тузилишини, тасвирини анимацион кўриш;
5. Матннинг зарурий лавҳаларини принтер орқали босмадан чиқариш;
6. Маърузада олган билимини мустаҳкамлаш ва тез текшириш (тест, масалаларни ечиши, жадвални тўлдириш каби);
7. Кимё соҳасидаги муҳим тарихий саналарни билиш;
8. Кимё соҳасида изланишлар олиб борган олимлар билан танишиш, уларни кўриш, ҳамда улар хақида маълумотлар олишга муяссар бўладилар.

Демак, талабаларнинг “Коллоид кимё” фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг илғор ва замонавий усулларидадан фойдаланиб, янги инновацион-педагогик технологияларни тадбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эга. Фанни ўзлаштиришда талаба электрон дарслик, мультимедиа ва анимациялардан фойдаланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Нуругдинова Ф.М., Ихтиярова Г.А. Кимё фанида электрон дарсликдан фойдаланиш// Ўзбекистон Республикаси Хотин-қизлар “Олима” уюшмасининг 25 йиллигига ҳамда “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”га бағшланади Инсон манфаати энг олий қадрият. Республика илмий-амалий конференция. Бухоро. 2017. 106-108 б.

Р.А.Рашидова, Г.А.Худойназарова
Бухоро давлат университети.

АНОРГАНИК БИРИКМАЛАРНИНГ ЭНГ МУҲИМ СИНФЛАРИ МАВЗУСИНИ ТУШУНТИРИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Аннотация. Ушбу тезисда умумтаълим ўрта мактаб кимё дарсида “Анорганик бирикмаларнинг энг муҳим синфлари” мавзусини тушунтиришда дидактик ўйинларни қўллаш орқали дарс самарадорлигини ошириш йўллари ва ўқувчиларнинг ўқув

машғулотларида фаол иштирок этиш, мустақил фикрлаш кўникмаларини ривождантириш мақсадида намунавий дарс ишланмаси ишлаб чиқилди.

Таянч сўзлар: анорганик бирикмалар, дидактик ўйинлар, "Ким чаққон?", "Ким кўп ёзади?", "Ким топқир".

Мустақил мамлакатимизда барча соҳалардаги каби таълим тизимида ҳам катта ислохотлар ўтказилмоқда. Бундан асосий мақсад, дунёнинг энг ривожланган давлатларининг таълим соҳасидаги ютуқларини ўрганиш ва юртимиз таълим тизимини ҳам замон талаблари даражасига кўтаришдир. Таълим тизими келажак авлодни тарбиялаб берувчи энг катта омиллардан бири бўлганлиги учун бу йўналишлардаги ишлар давлат сиёсати даражасига кўтарилган.

Таълим самарадорлигини ошириш, мутахассисларнинг касбий компетентлик даражасини ривожлантириш, педагог кадрларни инновацион фаолиятга йўналтириш, олий таълим муассасаларидаги ўқув жараёнига инновацион таълим ва ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш, илғор хорижий тажрибаларни ўзлаштириш ва мақсадли йўналтириш олий таълим тизимини модернизациялашдаги долзарб вазифалар сифатида белгиланди. Қуйида умумтаълим ўрта мактабларнинг 7 синф кимё дарсида "Анорганик бирикмаларнинг энг муҳим синфлари" мавзусини тушунтиришда дидактик ўйинларни қўллаш усуллари ҳавола этилди.

Дидактик ўйинлардан амалда фойдаланиш орқали бошқа усуллар ёрдамида эришиш қийин бўлган таълим – тарбиявий мақсадларини амалга ошириш кўзда тутилади. Турли ўқув фанларига оид дидактик ўйинлар мавжуд бўлиб, улар шу фанларни сифатли ўргатиш мақсадларига хизмат қилади, яъни ўқувчиларни содда илмий изланиш услублари билан таништириш, ўқув материалларни ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари ва билим даражасига мос келиши; ҳар бир синфда ўрганиладиган ва ўзлаштирилган билимлар олдингилари билан узвий боғланганлигини таъминлаш; зарурий кимёвий билимлар мазмунини ҳар бир синф учун бўлимлар бўйича аниқлаш; кимёвий назарий ғояларни баён этишда унинг экспериментал фан сифатида ўқитишга имкон яратиш керак.

Ўқув жараёнида дидактик ўйинлар ўқувчиларнинг олдида қўйган мақсадидан келиб чиқиб:

1. Янги мавзулар тушунтиришдан олдин (бунда ўйин муаммоли вазият сифатида)

2. Янги мавзунини тушунтириш вақтида (ўқувчиларнинг диққатини жалб қилиш мақсадида)

3. Мавзунини мустаҳкамлашдан олдин, ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакасини текшириш вақтида (ўқувчиларни ўзига ҳос ўйинга жалб этиб, кичик гуруҳлар ҳосил қилиш ва рақобатни юзага келтириш) қўллаш мумкин.

Юқоридаги фикрлар асосида кимё фанидан дидактик ўйинлар ишлаб чиқиш ва имкон қадар компютер ўйинлари тарзида яратиш, дарс жараёнида фойдаланиш ўқувчиларнинг қизиқишини орттиради. Кимё фанидан яратилган ўйин дастурлари ўқувчиларда ўқув мотивациясини шакллантиришга, ижодий фикрлашга, мустақил ишлаш ва билим бойлигини оширишга хизмат қилади

Ўқувчилар билан биргаликда "**Ким чаққон?**" ўйини ўйналади. Бунда ўқитувчи ҳар бир гуруҳ сардорига анорганик бирикмаларнинг энг муҳим синфлари бўйича моддалар формуласи ёзилган қоғозларни тарқатади ва 3 дақиқа вақт белгилаб, берилган моддаларни синфлар бўйича ажратиш лозимлигини айтади. Қайси гуруҳ чаққонлик билан биринчи бўлиб топшириқни бажарса, шу гуруҳ сардори 5 балл олиш имконияти яъни рағбатга эга бўлади.

"Ким кўп ёзади?" ўйини: Ўқитувчи ўқувчиларга анорганик бирикмаларнинг энг муҳим синфлари бўйича 1 минут вақт ичида модда формуласини ёзишни топширади, ким кўп ва тўғри ёза олса, ғолиб бўлади.

"Ким топқир" ўйини: Бу ўйинда ўқитувчи анорганик бирикмаларнинг энг муҳим синфларига доир 4 та модданинг номини оғзаки айтади, ўқувчилар эса ўқитувчи

томонидан айtilган моддаларни формуласини доскага ёзади ёки модда формулалари ёзилган тўпламдан излаб топиб кўрсатиши керак. Кўрсатилган модданинг структура формуласини ёзиш таклиф этилади.

Демак, юқори тавсия этилган дидактик ўйинлар кимё дарсларининг исталган босқичида амалга оширилиши ўқувчиларнинг кимёвий билимларини сифатли ўзлаштирилишига ҳамда муаммоли вазият яратиб уларнинг диққатини жалб қилишга қилишга эришиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Sh.Miziyoyev. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning tamoyillarini joriy etish chora – tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma'rifat gazetasi, 2019 yil 13-iyul, №54

2. Р.Ишмухаммедов., М.Юлдашев Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.(таълим тизими ходимлари, методистлар, ўқитувчилар тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув кўлланма) – Т.: 2013–278 б

3. Xudoynazarova G.A. Kimyo fanini o'qitishda qo'llaniladigan innavasion texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. Buxoro. "Durdona" 2020. 160 б

4. Худойназарова Г.А., Ганиев Б.Ш., Нурмухаммедова М.А., Рашидова Р.Ў. Ўқувчиларга кимёвий билимларни ўзлаштиришда дидактик ўйинларнинг роли. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. Халқаро илмий-методик журнал.2021й.№6. 268 – 274 бетлар

N.J. Jamolova, A.K. Niyozov

*Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti,
alisher_25@list.ru*

ANORGANIK KIMYO FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI

Ta'limda interfaol metodlarni qo'llashning asosiy maqsadi talabalarni faol ta'lim olish jarayoniga jalb qilish, ularda bilish hamda izlanish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, fanga bo'lgan qiziqishni oshirishdan iboratdir.

Interfaol metodlar o'qituvchi bilan talabning faol munosabati, bir-birini to'liq tushunishga asoslanadi. Bu metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning asosiy maqsadi - darsda ustoz bilan shogirdning hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. O'qituvchi darsida tegishli muammolarga talabalarni jalb etishi, ularning harakatini faollashtirishi va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak bo'ladi. Kimyo darslarida talabalarining erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda "Muammoli vaziyat" ta'lim texnologiyasidan foydalanish samarali natija beradi. Chunki bu fanning har bir mavzusi muammoli savollarga boy.

"Muammoli vaziyat" ta'lim texnologiyasini qo'llashdan maqsad talabalarni o'quv fanining mavzusidan kelib chiqqan holda turli muammoli masala yoki vaziyatlarning echimini to'g'ri topa olishlariga o'rgatish hamda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va ayni muammoni yechishga mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatishdir. Bunda o'qituvchi muammoni kelib chiqish sabablarini va ularni echishdagi hatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga e'tibor beradi.

Bu ta'lim texnologiyasi qo'llanilayotganda o'qituvchi talabalarga mashg'ulotni o'tkazish tartib qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya'ni u mashg'ulotni bosqichli bo'lishini va har bir bosqich ulardan diqqat e'tiborni talab qilishini, mashg'ulot davomida auditoriyada kichik guruhlarda va jamoa bo'lib ishlashlarini aytib o'tadi. Shu tariqa boshlangan dars talabalarining berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va uni bajarishga talabalarda qiziqish uyg'otadi. Shundan so'ng mashg'ulot jarayoni boshlanadi. "Muammoli vaziyat" ta'lim texnologiyasi o'quv materialining mazmuniga bog'liq. Buni kimyoviy hodisalar,

qonunlar, amaliy tajribalar va nazariyalarni o'rganish misolida ko'rish mumkin. Ta'lim jarayonida kimyoviy hodisalarni muammoli o'qitishni quyidagicha tashkil etish mumkin.

1. Kimyoviy hodisani kuzatish va uning xarakterli xususiyatlarini aniqlash.

2. Kuzatilayotgan kimyoviy hodisalarni boshqa, oldindan o'rganilgan kimyoviy hodisalar bilan aloqadorligini aniqlash va uning o'xshash yoki farqli jihatlarini ajratish.

3. Kimyoviy hodisalarni amaliyotda qanday qo'llash mumkinligini mulohaza qilish va tadbiq etish yo'llarini taklif etish.

Kimyoviy hodisalarni o'rganishning barcha bosqichlarida muammoli o'qitish metodidan foydalanish mumkin. Lekin muammoli o'qitishning imkoniyatlari ayniqsa hodisani mohiyatini aniqlashda ochiladi. Misol tariqasida elektroliz mavzusini muammoli o'qitishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun avvalo uning asosiy mohiyatini yaqqol ko'rsatib beruvchi "tayanch" tajriba kerak. Bunday tajriba sifatida elektrolit eritmasidan elektr tokini o'tishini, toza kristall modda yoki distillangan suvda elektr toki o'tmasligini ko'rsatuvchi tajribani olish mumkin.

Tajribadan hodisaning asosiy xususiyati yaqqol ko'rinadi: birinchi navbatda kristall modda yoki distillangan suv solingan elektrolizyor o'zgarmas tok manbaiga ulaganda elektrodalarda o'zgarish bo'lmasligi, ikkinchi navbatda elektrolit eritmalar solingan elektrolitizyor o'zgarmas tok manbaiga ulaganda elektrodalarda ya'ni katod va anodlarda moddalarni ajralib chiqishi kuzatiladi. Birinchi qarashda talabalarga kuzatilayotgan hodisa ya'ni kristall modda yoki distillangan suvda elektr tokining o'tmasligini-elektrodalarda o'zgarish bo'lmasligi va eritmada elektr tokining o'tishi-elektrodalarda ya'ni katod va anodlarda moddalarni ajralib chiqish sabablarini aniqlash muammo sifatida qo'yiladi. Demak – birinchi muammoli vaziyat yuzaga keldi. Paydo bo'lgan vaziyatning muhokamasi quyidagicha o'tadi.

Savol: Nima sababdan kristall modda yoki distillangan suvda elektr toki yuzaga kelmaydi?

Javob: kristall modda yoki distillangan suvda erkin zaryad tashuvchilarning yo'qligi sababli.

Savol: Distillangan suvga tuz solinganda tokni paydo bo'lishligini sababini izlab ko'raylik.

Javob: Buning asosiy sababi tuz eritilganda manfiy va musbat ionlarning hosil bo'lishidir.

Savol: Bizning tajribamizda elektrodalarda ya'ni katod va anodlarda moddalarni qanday hosil bo'ladi?

Bu savol talabalarni yana o'ylashga - fikrlashga majbur qiladi. Shu tarzda quyidagi savollar ham muammolar tarzida qo'yilib talabalar bilan hamkorlikda ma'nosi ochib boriladi.

1. Elektrodlar nima?

2. Elektrolitlar nima?

3. Elektroliz hodisasi qanday jarayon?

4. Faradey qonunlari to'g'risida nimani bilasiz.

5. Elektrolizning qo'llanilish sohalari.

6. Faradey qonunlari asosida hisoblab topish formulalarini keltirib chiqaring [1-3].

"Muammoli vaziyat" ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan dars jarayonlari natijasida talabalar qaysidir muammoni echimini topishdan avval uning sabablari aniqlanishi kerakligini sabab va oqibat o'rtasidagi bogg'liqlikni izlash, keyin esa ularni o'rganish va bartaraf etish uchun zarur bo'lgan uslub va usullarni tanlash lozimligini hamda muammoni hal etishda o'z harakatlarini aniq belgilab olishlari kerakligini anglab etadilar. Bu tarzda echimini topgan muammolar esa ularni xotiralarida uzoq vaqt saqlanadi. Kelajakda yangi kimyoviy hodisalarni o'rganayotganlarida yanada ziyraklik va zehn bilan ish yuritishlariga yordam beradi. Talabalar

mustaqil, ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o‘rganib boradilar. O‘z-o‘zini fikrlashga majbur etib, muammoli vaziyatni hayotiy va amaliy topshiriqlar asosida echishga o‘rganadilar. Ularni tashkilotchilikka undaydi, guruh bo‘lib ishlashda o‘zgalar fikrini fikrini eshitish va o‘zini ularga etkaza olish xislatlarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.A.Parpiyev, A.G.Muftaxov, X.R.Raximov. Anorganik kimyo: darslik. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, – 2003. -492 b.
2. Q.Axmerov, A.Jalilov, R.Sayfutdinov. Umumiy va anorganik kimyo: darslik.– Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, – 2003. -462 b.
3. N.G‘.Rahmatullaev, H.T.Omonov, SH.M.Mirkomilov. Kimyo o‘qitish metodikasi: darslik.– Toshkent: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, – 2013. -320 b.

A.K. Ниёзов, Д.М.Муродов

Педагогический институт

Бухарского государственного университета

alisher_25@list.ru

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ БУДУЩИХ ХИМИКОВ

В последние годы в процессе обучения становятся актуальной вопросы формирования функциональной грамотности как основа учебно-познавательной компетентности обучающихся.

Обучение химии имеет развивающий характер, предполагает формирование различных умений, мыслительной деятельности, познавательного интереса самостоятельности, творческих способностей и т.д.

И в этом процессе самостоятельная работа студентов является одной из важных частей учебного процесса. Правильная организация самостоятельной работы, в частности, будущих учителей-химиков школы добывать самостоятельно знания, хорошо обученных к самостоятельной работе - это залог успешной и качественной подготовки учителя и эффективности достижения высокого уровня самореализации.

Ранее и в настоящее время, когда в учебный процесс успешно внедряется кредитная технология обучения, число аудиторных часов сравнительно с линейной системой обучения значительно сокращается, актуальность самостоятельной работы в процессе обучения привлекает многих преподавателей-исследователей, и в этом:

задача учителя – организовать самостоятельную работу таким образом, чтобы ученики были задействованы в работе, увлечены и в результате получали не только предметные знания, но личностные удовлетворения.

Установлено, что в памяти человека запечатлевается до 90% того, что он делает сам, до 50% того, что он видит и только 10% того, что он пишет.

Важным условием развития ученика относится их обучение на конкретном материале курса химии.

Формирование метапредметных умений посредством различных дидактических приемов позволяет решить следующие задачи:

- улучшить интерес к изучаемому предмету, разбудить их любознательность, способность принятию учащимися заданий для их выполнения;
- облегчить нахождение способов выполнения заданий;
- уменьшить вероятность неправильного выполнения заданий, актуализировать необходимые задания.

Самостоятельная работа обучающихся рассматривается с различной позиции.

Самостоятельная работа делится на обязательную и специальную. Обязательные формы обеспечивают подготовку к текущим аудиторным занятиям. Специальные формы

самостоятельной работы направлены на углубление и закрепление знаний, развитие аналитических навыков по проблематике учебной дисциплины.

В случае, что целью преподавателя является развитие самообразовательной деятельности обучающегося под непосредственным руководством и контролем преподавателя. В связи с этим им разработана система формирования самостоятельной работы студентов.

В данной статье изучено, что самостоятельная работа студента – это индивидуальная работа обучающегося по заранее полученным общим указаниям. И основная цель самостоятельной работы для обучающегося является приобретения навыков планирования и организации собственного учебного процесса.

Условия кредитной технологии предполагают наряду с самостоятельной работой студента (СРС) и самостоятельную работу студента с преподавателем (СРСП).

Для эффективной реализации учебного процесса в рамках учебного плана для каждой дисциплины разрабатывается учебно-методический комплекс дисциплины (УМКД), который позволяет заранее планировать весь процесс обучения.

Структура СРСП и СРС определяется целями и задачами по каждой конкретной теме, где выделяются вопросы, которые будут рассмотрены на лекциях, лабораторных занятиях, СРС и СРСП.

Самостоятельная работа студента с преподавателем предусматривает как лабораторные работы студента под руководством преподавателя, так теоретическую, практическую работу, к которой студент по заранее выданному заданию самостоятельно ведет подготовку. Для выполнения лабораторной работы студент получает задание согласно учебному плану.

Для выполнения лабораторной работы студент должен самостоятельно освоить теоретические вопросы, на которых базируется данная работа, в рамках учебной программы.

В качестве примера можно рассмотреть дисциплину «Общей и неорганической химии» на 1 курсе по специальности «Химия» образовательного направления. Для обучения отводится 4 кредита, из которых 24 часов лекций, 26 лабораторных занятия, 4 практических, 20 СРСП и 46 СРС.

Для подготовки выполнения лабораторных работ приводится описание работ, в которых обозначены цель, задачи, какие вопросы он должен усвоить, какие понятия, определения, теоретические закономерности он должен усвоить, для успешного выполнения. Далее определяется, чему он должен научиться: правильно провести опыты; провести вычисления; уметь сопоставить с теоретическими расчетами; рассчитать погрешности, построить графики; обосновать и объяснить полученные экспериментальные данные, установить закономерности и описать, написать отчет.

Приобрести навыки подготовки постановки и проведения эксперимента. Все это в совокупности приводит к формированию функциональной грамотности по данному предмету.

Наряду с этим по учебному плану предусматривается проведения дополнительной работы студента с преподавателем.

Это часть СРСП выполняется нами в нескольких формах. Это могут быть занятия, посвященные отчетам по экспериментально выполненным работам, где студент дает отчет по выполненной работе, приводит расчеты, графики и дает полный анализ, полностью проговаривая свою работу.

Другая форма самостоятельной работы студента с преподавателем проводится по теоретическому материалу, на СРСП обсуждаются вопросы, не вошедшие в лекционный материал. Эта работа может выполняться, двояко либо студенту дается дополнительное разъяснение к самостоятельной работе, ответы на более сложные вопросы по теоретическому материалу.

СРСП может проводиться по методикам овладения навыками решения задач и упражнений, которые предлагает программа.

Учебная программа предусматривает выполнение таких самостоятельных работ как написание рефератов, которые выдаются заранее, подготовка докладов и презентаций, которые в последующем обсуждаются на СРСП.

Учитывая, что ведется подготовка учителя-химика, обучающийся должен не только уметь решать задачи и упражнения, но объяснить методики их решения. Поэтому на СРСП студенты разясняют, как решали ту или иную задачу.

Основным условием эффективности выполнения СРС и СРСП является систематический контроль преподавателем за выполнением СРС и его оценка.

Каждый вид работы студента направлен на формирование определенных компетенций. Умения: различать и учитывать особенности научного, публицистического текста в процессе поиска и отбора информации; работать с текстом использовать ресурсы глобальных сетей (интернет), использовать статистические и математические методы в работе с информацией; в письменной форме правильно сформулировать результаты своей деятельности, приобретать навыки концентрации внимания и тренировки внимания; приобретать навыки запоминания, самоанализа изученного материала; приобретать навыки рационального распределения времени, навыки исследования, применения методов исследования (от реферирования до постановки эксперимента) и его анализа; разяснять различные методики решения профессиональных задач.

Все эти составляющие формируют функциональную грамотность будущего учителя-химика.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Митрохина, А.С. Подготовка к производственно-технологической деятельности будущих химиков: учеб.-метод. пособие / А.С. Митрохина // Рязань: Ряз. гос. ун-т им. С.А. Есенина, 2020. – 56 с.
2. Митрохина, А.С. Моделирование процесса формирования производственно-технологической компетенции химиков в условиях научно-исследовательской деятельности / А.С. Митрохина // Психолого-педагогический поиск. – 2020. – № 3 (55). – С. 46-51.

F.Sh.Ergasheva, G.A.Xudoynazarova
Buxoro davlat universiteti

KIMYO DARSLARDA KEYSLAR FOYDALANISH

Annotasiya. Ushbu tezisda umumta'lim o'rta maktab kimyo darslarida Keys-stadi metodidan foydalangan holda o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qilshi va ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan bo'lib o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarida faol ishtirok etish, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal eta olish ko'nikmalarini rivojdantirish maqsadida namunaviy dars ishlanmasi ishlab chiqildi.

Tayanch so'zlar: Keys-stadi metodi, muammoli vaziyat, kimyoviy bilim, muammoli ta'lim

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga

sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi-o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. SHundan kelib chiqib, ta‘lim jarayonida ham dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ta‘lim texnologiyani qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Shunday usullardan biri Keys – stadi texnologiyasi bo‘lib, bu texnologiya ta‘lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta‘lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli echishni vositali tarzda ta‘minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iboratdir.

Quyida 10 sinf kimyo darsida “Kimyoviy ishlab chiqarish istiqbollari. Atmosfera va gidrosferani muxofaza qilish” mavzusini o‘tishda Keys – stadi texnologiyasini qo‘llash uslubiyoti tavsiya etiladi. Bunda o‘qituvchi dastlab mavzu bo‘yicha umumiy ma‘lumotlarni berib, muammoli vaziyatni yaratadi.

Muammoli vaziyat

1. XXI asrga kelib insoniyatni tashvishga soluvchi global muammolar yuzaga keldi. Kimyo zavodlaridan atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli chiqindilar muammosi, qishloq xo‘jaligini kimyolashtirish, hosildorlikni oshirish maqsadida turli kimyoviy o‘g‘itlardan foydalanish va uning zararli ta‘siri, kimyo komplekslaridan chiqarib tashlanayotgan zararli oqova suvlar atrofda o‘simlik va hayvonot dunyosi uchun xavfliligi, insoniyat uchun zarur bo‘lgan ichimlik suvi muammosini keltirib chiqarmoqda.

2. Bugungi kunda 1 milliard tonnadan ortiq ishlab chiqarish va maishiy xo‘jalik chiqindilari yig‘ilib qolgan. Masalan, faqat Olmaliq va Samarqanddagi kimyo zavodlarida 60 million tonnadan ortiq fosfogips chiqindici to‘plangan. Respublikamizda har yili 30 million tonna maishiy-kommunal chiqindilar, chorvachilik kompleksida 20 million tonnaga yaqin chiqindilar vujudga keladi. Ular er usti suvlarini ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi.

3. Qishloq xo‘jaligini kimyolashtirish, hosildorlikni oshirish maqsadida turli kimyoviy o‘g‘itlarning zararli oqibatlarini tasavvur qilmay turib qo‘llash jiddiy salbiy ekologik muammolarni keltirib chiqardi. O‘g‘itlarning qo‘llash chegarasi va zararli ta‘sirini anglamaslik, yiliga 1ga erga 20-25 kg gacha, ayrim viloyatlarda esa 40-45 kg gacha zaharli kimyoviy moddalar, 400-450 kg gacha mineral o‘g‘itlar solinishiga olib keldi. Hozirda respublikamizda mavjud xo‘jaliklar yiliga 1,3-1,4 million tonna mineral o‘g‘itlar va 80-85 ming tonna pestitsid ishlatmoqdalar

4. Mineral o‘g‘itlar tarkibida, masalan, fosforitda ko‘p miqdorda fluor, og‘ir metallar mavjud. Zaharli kimyoviy moddalar va mineral o‘g‘itlar taxminan 20-25 yil davomida nazoratsiz ishlatilib kelindi. Aniqlanishicha, pestitsidlarning faqat 0,1% maqsadli ishlatiladi, qolganlari suv, tuproq, havoni ifloslantiradi, hayvonot va o‘simliklar dunyosini beayov yo‘qotadi, inson va hayvonlardagi zararli irsiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

5. Tuproqqa solingan mineral o‘g‘itlarning 30-40%i o‘simliklar mahsuldorligi uchun foydali bo‘lib, qolgan qismi tuproqni parchalaydi, natijada tuproqning hosildorligi yil sayin pasayib boraveradi. Bulardan tashqari, mineral o‘g‘itlar, pestitsidlarni tashish va saqlashda ham jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi kuzatilmoqda.

O‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan muammolarni o‘quvchilar tahlil qilib, uning kelib chiqish sabablarini aniqlashi, mustaqil ravishda taklif qilingan yechimlarini berishni va quyidagi jadvalni to‘ldirish topshiriladi.

№	Muammoni tasdiqlovchi dalillar	Muammolarning kelib chiqish sabablari	O‘quvchi tomonidan taklif qilingan yechim

Demak, Keys-stadi texnologiya asosan yangi bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga emas, o‘qituvchi va o‘quvchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan, ya‘ni o‘quvchilarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o‘zlashtirishda hamda amaliy

ko'nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo'lish imkoniyatini berishda asosiy rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ўзбекистон Республикасининг Президенти Мирзиёев Ш.М. 2017 йил 7 феврал 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича **Харакатлар стратегияси**. Тошкент. 2017 й. 7 февраль, ПФ-4947-сон

2. Р.Ишмухаммедов., М.Юлдашев Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.(таълим тизими ходимлари, методистлар, ўқитувчилар, тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув кўлланма) – Т.: 2013–278 б

3. Xudoynazarova G.A. Kimyo fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovation texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. Buxoro. "Durdona" 2020. 160 б

H.I.Amonova, S.Sh.Sodikova
Buxoro davlat tibbiyot instituti

KEYS USULINING BIOKIMYO FANINI O'QITISHDAGI O'RNI

Annotasiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, jahon andozalari darajasida amalga oshirishga e'tibor qaratilib kelinayotganligi, Keys usulini an'anaviy usullar bilan birgalikda ham qo'llab biokimyo fanini o'qitishda yuqori natijalarga erishish mumkinligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, keys texnologiyasi, Ta'lim keyslari, muammo, yechim, vaziyat, kontekst, Klassik ta'lim keysi, Qisqartirilgan ta'lim keysi, ijodiy qobiliyat

Tarixdan ma'lumki, ta'lim turli jamiyatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Insoniyatning rivojlanishi davomida ta'lim asta-sekin markaziy masalaga aylanib kelmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi kuchaygan sayin ta'lim sanoat, siyosat, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish, intellektual resurslar va inson kapitali hamda inson potensialining shakllanishi manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bunday keskin o'zgarishlar, albatta, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu o'rinda keys texnologiyasi, usulining o'ziga xosligini qayd etish lozim. Keys o'quvchi, talaba va tinglovchilarni real voqealar —ishtirokchisilga aylantirib, ularni ma'lum bir muammoga yechim topishlari sari yetaklaydi. Ular yechimni topish maqsadida bilim, ko'nikma va malakalarini ishga solishadi. Keys usulini an'anaviy usullar bilan birgalikda ham qo'llab yuqori natijalarga erishish mumkin. Mazkur tadqiqotning maqsadi ta'limiy keys turini biokimyo fanini o'qitishda joriy etishdan iborat.

Ma'lumki, biokimyo fanini odatda ikkinchi bosqich talabalariga o'qitiladi. Bu fan keng miqyosdagi ilmiy sohani, hayotning barcha jabhalarini bazaviy va molekulyar darajada qamqab oladi; oliy tibbiyot ta'limida biokimyo tirik organizmlarni tashkil etuvchi moddalarning kimyoviy tabiati, ularning o'zgarishi, shuningdek, bu o'zgarishlarning hujayralar, to'qimalar va umuman tananing faoliyati bilan o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur hosil qiladi.

Odatda keyslarning bir necha turlari mavjud. Biz asosan ta'limiy keysga to'xtalib o'tamiz. Ta'lim keyslari – bu ta'lim maqsadlariga erishish vositasi hisoblanadi. Bu kasbiy amaliyotdan kelib chiqadigan ishning tavsifi bo'lib, mutaxassis qarorlar qabul qiladigan, harakat qiladigan va ushbu harakatlarning oqibatlariga duch keladigan vaziyatdir.

Har qanday matn ham ta'lim keysi sifatida qabul qilinmaydi. Matn keys bo'lishi uchun kamida to'rtta muhim tarkibiy qismdan iborat bo'lishi zarur: muammo, yechim, vaziyat va kontekst. Ta'lim keyslari muammoga asoslangan bo'lib, hal qilinishi kerak bo'lgan muhim

kasbiy vaziyatdir. Muammoning murakkabligi va miqyosi har xil bo'lishi mumkin: ma'lum bir xodimga ish haqini to'lash tizimini ishlab chiqishdan boshlab korporativ strategiyani ishlab chiqishgacha. Matnda aniq ko'rsatilmagan muammo ishning mohiyatini tashkil etadi va uni mazmun bilan to'ldiradi. Muammo ustida ishlash – uni aniqlash, tahlil qilish, tarkibiy qismlarga ajratish va yechimlarni taklif qilishdan iborat bo'lib, o'rganilayotgan nazariya va modellarni yangilaydi, tahliliy va munozarali ko'nikmalarni rivojlantiradi, tadqiqot mavzusi va ob'yekti to'g'risida o'zaro bog'liq fikrlarni shakllantiradi va o'rganishga kerakli turtki yaratadi. Muammoga qo'shimcha ravishda, keysda yechim, ya'ni, tasvirlangan vaziyatdagi ishtirokchilarning tanlovi, fikrlari va hatti-harakatlarini tavsiflash elementlarini bo'lishi kerak. Keysni yechish jarayonida har doim ham to'g'ri qaror qabul qilib bo'lmaydi, ammo, u har doim o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi va bu ma'lum bir shaxsning (yoki guruhning) ma'lum bir maqsad va qadriyatlar asosida harakatlanadigan qarori hisoblanadi.

Ta'lim keyslari bir necha shakllarda taqdim etilishi mumkin: yaxlit tuzilgan matn, tanlangan hujjatlar, audioyozuv, videoyozuv va shaxsiy tajriba.

Klassik ta'lim keysi – 20-30 sahifadan iborat izchil ketma-ketlikda tayyorlangan matn bo'lib, vaziyatning asosiy tarkibiy qismlarini, qarorlarni va kontekstni o'z ichiga oladi. Bun kabi keysni ishlash uchun kamida 4 soat mustaqil tayyorgarlik, kamida bir soat kichik guruhlarda muhokama qilish va o'qituvchi bilan bir yoki bir nechta dars mashg'ulotlari talab etiladi. Hajmi va ko'p qirraliligi tufayli, bunday keyslar turli xil mavzularga tegishli bir nechta mavzularni qamrab olishi mumkin.

Qisqartirilgan ta'lim keysi – 3-5 sahifali matn, biroz qisqartirilgan va soddalashtirilgan, vaziyat va yechimni ifodalaydi va deyarli hech qanday kontekstga ega emas. Bunday keyslar qisqa muddatda bir yoki ikkita mavzu bo'yicha guruh muhokamasini tashkil qilish uchun qulaydir.

Keyslarning uchinchi turi bu mini-keyslar hisoblanadi. Kichik hajmda (0,5 dan 2 betgacha), ular kontekst va vaziyat haqida juda kam ma'lumot beradi, muammo va uning yechimini aniq ifodalaydi. Ushbu keyslar birinchi navbatda muammoni yechish yoki dars davomida ajratib tashlangan individual qoidalar yoki modellarni tasvirlash uchun mo'ljallangan.

Keyslarni taqdimot shakllarini uyg'unlashtirilishi mumkin. Bir nechta shakllarni uyg'unlashtirish (tuzilgan matn, hujjatlar tanlovi, audio, video va shaxsiy tajriba) o'quv materialini boyitishi va o'quv vazifalari doirasini kengaytirishi mumkin. Shunga qaramay, keys doirasida turli xil shakllarga berilib ketish tavsiya etilmaydi, chynki, ortiqcha yuklangan shakllar muqarrar ravishda tarkibni chalg'itadi; talab qilingan materialni tushunish va u to'g'risida zarur bilimlarni shakllantirishning o'rniga, talabalar faqat shakllar va qismlarni eslay olishadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, keys shunchaki dastlabki o'quv materialini bo'lib, tahlil qilish va muhokama qilish uchun yordamchi vositadir. Aynan shu jarayon ta'lim maqsadlariga erishishning muvaffaqiyati va sifatini belgilaydi. Biokimyo fanini o'qitish jarayonida keys usulidan foydalanish o'qitishda stereotiplardan xalos bo'lishga, kasbiy vaziyatlarga yangicha yondashishni va talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Niyazov L.N. Amonova H.I., Gulamova M.T. Keys texnologiyalarining tabiiy fanlarni o'qitishdagi o'rni. / Monografiya. –Buxoro: 2020. 126b.
2. Gary Thomas A typology for the case study in social science following a review of definition, discourse and structure. //Qualitative Inquiry. 2011, 17 (6): -P. 511–521.
3. Miles M.B., Huberman A.M. Qualitative data analysis: An expanded source book (2nd ed.). / Thousand Oaks, CA: Sage, 1994.
4. Смолянинова О.Г. Инновационные технологии обучения студентов на основе метода Case Study // Инновации в российском образовании: СПб.; -М.: ВПО, 2000.
5. Чикер В.А. Методология и методы социально психологических исследований. – СПб., 2010. –С. 135.

6. Березов Т.Т., Коровкин Б.Ф. Биологическая химия. -М.: «Медицина», 1998. –С. 704.
7. Зельдович Б.З. Ситуационное обучение управленческим дисциплинам -М.: «Экзамен», 2008. –С. 544.
8. Barnes L. B., Chistensen C. R., Hansen A. J. Teaching and the case method Instructor's Guide. Harvard Business School Press.
9. Baxter P and Jack S. (2008) Qualitative Case Study Methodology: Study design and implementation for novice researchers, in The Qualitative Report, 13(4): 544-559
10. Case Study Handbook: How to Read, Discuss, and Write Persuasively About Cases (Paperback) William Ellet, Harvard Business Press Books, 2007. -P. 256.

*Amonova H.I., Madjidov A.A.
Buxoro davlat tibbiyot instituti*

TIBBIY TA'LIM UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYASIDA KUZATILAYOTGAN ISTIQBOLLI MASALALAR

Annotasiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda vrachlar va tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini ham mamlakatimizda, ham etakchi xorijiy klinikalarda oshirish bo'yicha ta'sirchan tizim yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyati va O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslarida juda katta e'tibor qaratilganligini qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiyot, oliy ta'lim, ta'lim tizimi, Tibbiy ta'lim, Magistratura, ta'limning uzluksizligi, uzluksiz ta'lim tizimi, xalqaro ta'lim standartlari, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlari

Tibbiyot sohasini zamonaviy fikrlaydigan, chuqur bilimli, mas'uliyatni his etadigan, har jihatdan etuk kadrlar bilan ta'minlash masalasiga bugun davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muqim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida "Tanqidiy taqlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir raqbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" mavzusidagi ma'ruzasida vrachlar va tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini ham mamlakatimizda, ham etakchi xorijiy klinikalarda oshirish bo'yicha ta'sirchan tizim yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini aytib o'tgan edi. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari bilan o'tkazgan uchrashuvlarida ham bu masalaga aloqida to'xtalib o'tgan edi. O'tgan davr mobaynida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan mazkur sohada juda katta ishlar, tizimda o'zgarishlar amalga oshirildi. Islohotlar natijasida respublikada faoliyat yuritayotgan tibbiy ta'lim sohalari va mutaxassisliklari tasnifi muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda va hozirgi zamon talablariga mos keladi.

Tibbiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatura va magistrlik mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim sohalari ro'yxati printsipial va oliy ta'lim muassasalarining o'zlari mustaqil ravishda inventarizatsiya qilishlarini talab etar edi. Tahlillar va qayta qurilgan ichki tuzilmalar har bir oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi va ilmiy-pedagogik salohiyatiga muvofiq ravishda mazkur ro'yxatning shakllanishini ta'minlashni kun tartibiga qo'ygan edi. Ixtisoslashgan o'qituvchilarning etishmasligi (ayniqsa, yangi ochilgan yo'nalishlarda), talabga javob bermaydigan laboratoriya qurilmalari va o'qituvchilarning ortiqcha ishlar bilan (qog'oz to'ldirish) shug'ullanishlari oqibatida, ayrim yo'nalishlarda mutaxassis tayyorlash sifati pasayib ketgan edi. Har bir oliy ta'lim muassasasi uchun mutaxassisliklar ro'yxatini takomillashtirish va bir vaqtning o'zida jamiyatda o'zini oqlagan yo'nalishlarda kontingentni ko'paytirish bu – hech qanday ortiqcha xarajatlarsiz ta'lim sifatini oshirishning muhim omili bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasalari ichki tuzulmasini erkin isloh qilish, islohotlarning maqsadlar bilan uzviy bog'lanmaganligi, profilning o'ziga xosligi va bu borada dunyo ijobiy tajribasining

hisobga olinmaganligi kabilar ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini sezilarli darajada pasaytirdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018 yil 1 fevralda Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali ochildi. Bu kun vohaliklar qayotida yangi bir o'zgarish yasadi, xalqning orzusi ushaldi. Talabalarning etuk malakali mutaxassis vrach bo'lib etishishlari uchun Toshkent tibbiyot akademiyasi bilan hamkorlikda innovatsion texnologiyalar asosida onlayn ma'ruzalar tashkil etildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining respublikamizdagi ko'zga ko'ringan taniqli professor-vrachlari sohaning turli yo'nalishlari bo'yicha talabalarga bilim bermoqda.

Ta'kidlash joizki, o'tgan davr mobaynida ikki bosqichli asosda mutaxassislar tayyorlash tizimida magistrlar tayyorlashga aloqida e'tibor qaratish kerak bo'ldi. Magistrlar tayyorlash borasida barchaga ma'lum muammolar mavjud bo'lib, oddiy qilib aytganda, bu soha juda ham muvaffaqiyatli chiqmadi. Buning asosiy sababi, qabulning kamligi, iste'molchilarning tor doiradagi mutaxassisliklarga talabi bo'lmagani holda, ixtisosliklarning haddan ziyod kichik qismlarga bo'linib ketishi kabilar sabab bo'ldi. Bakalavriatura shakllanib kelayotgan bir sharoitda magistrlar tayyorlashdagi kamchilik va nuqsonlar milliy ta'lim maqomini sezilarli darajada pasaytirdi. Mutaxassisliklarning har bir kursida 3-5 nafargina magistrantning ishtiroki ma'ruza va boshqa mashg'ulotlarning to'laqonli o'tkazilishini raqbatlantirmaydi.

Magistratura, aslini olganda, o'qituvchining talaba bilan individual ishlashiga asoslanadi, lekin magistrantlarda mustaqil ishlash malakasi to'la shakllanmagan, o'qituvchilarda esa, magistrantlar bilan individual ishlashda izchillik va printsiptiallik etishmaydi. Davlatimiz raqbari boshchiligida 2017 yilning 5 yanvar va 7 fevral kunlari sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan bo'lgan uchrashuvlarda, shuningdek, 2017 yilning 30 mart kuni o'tkazilgan videosektor majlisida tibbiyot xodimlarini tayyorlash masalasiga alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas. Garchi, eng zamonaviy texnikalar, so'nggi texnologiyalar sohaga kiritilsada, binolar rekonstruktsiya qilinib, mukammal boshqaruv tizimi shakllantirilsada, kadrlar masalasida oqsash bo'lsa, soha rivojida kutilgan natija bo'lmaydi. Tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, endilikda vazirlik sog'liqni saqlash mutaxassislarini qayta tayyorlash, shuningdek, oliy malakali ilmiy-pedagogik tibbiy kadrlarni tayyorlash, tibbiyotni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga professor-o'qituvchilarni, bakalavriat va magistratura talabalarini keng jalb qilishga ham mas'ul hisoblanadigan bo'ldi.

Tibbiy ta'lim sohasida davolash ishi yo'nalishida o'qish muddatlarining qisqartirilgan ta'lim tizimiga o'tilishi, o'quv soatlarining takomillashtirilishi va maqsadli qabul yo'lga qo'yilishidan tibbiyot kadrlari etishmovchiligi qoplanishi 15 foizga tezlashtiriladi, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishiga erishiladi, shuningdek, tibbiy ta'lim xalqaro standart talablariga moslashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslarida quyidagilarga juda katta e'tibor qaratilgan:

Birinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida tizimli tadbirlarni amalga oshirish;

Ikkinchidan, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va innovatsion o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish, klinika va o'quv bazasi faoliyatida nazariy bilim hamda amaliyotning uyqunligini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratish;

Uchinchidan, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarini tibbiyot amaliyotidagi mavjud muammolarning echimiga qaratish, tibbiy ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" kontseptsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

To'rtinchidan, ta'lim muassasasi ilmiy salohiyatini muntazam ravishda oshirib borish, professor-o'qituvchilar va ilmiy izlanuvchilarning nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishlarini ta'minlash

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni. Lex.uz. O'RQ – 637-son. 23.09.2020 yil
2. “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli qarori;
3. “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 5 maydagi PQ-2956-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2019 yil 6 may PQ-4310-sonli qarori.
6. «Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 2020 yil 7 aprel PQ-4666-sonli qarori
7. Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot kadrlarini tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 27 sentyabr 769-son qarori.
8. Topildiev V.R. Oliy ta'lim tizimini isloh qilishning me'yoriy-huquqiy ta'minoti xususida ayrim mulohazalar. //Zamonaviy ta'lim/ Soveremennoe obrazovanie. 2017 yil №6. B.8-14
9. Zadumkin K.A. Regionalnaya innovatsionnaya sistema: teoriya i praktika formirovaniya/ K.A. Zadumkin, I.A. Kandakov; pod. ruk., prof. V.A. Ilina- Vologda: Vologodskiy nauchno – koordinatsionno`y sentr SEMI RAN, 2008 g. s 45.
10. D.A.Shevchenko. «Konkurentosposobnost vuzov. Texnologiya sozdaniya, sprovojdeniya i prodvjeniya sayta vuza». – Moskva, 2013.

*Шукуров И. Б., Исмамова Р.А.
Бухарский государственный медицинский институт
Ithom.Boltaevich62@gmail.ru*

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКОЙ ХИМИИ

Аннотация. Обучение биохимии в медицинских вузах относится к числу актуальных проблем общей подготовки врачей всех специальностей. Поскольку биохимические методы исследования для врача являются значительным источником диагностической информации, недостаточное умение интерпретировать результаты биохимических анализов практическими врачами может стать источником серьезных диагностических ошибок.

Ключевые слова: методы «обратной связи», ситуационные задачи, перестройки учебного процесса, мотивация студентов, образовательные технологии, врачебные компетенции.

Понимание сути и взаимосвязи биохимических процессов в организме способствует формированию клинического мышления современного специалиста. Традиционная форма преподавания биохимии будущим врачам характеризуется разрывом между теоретическим блоком знаний и возможностью использовать их в практической деятельности врача, и поэтому требует перестройки учебного процесса, что существенно на фоне большого количества специальной информации. В настоящее время основной тенденцией в реформировании современного образования является внедрение компетентностного подхода. В наши дни невозможно быть полноценным специалистом лишь воспроизводя однажды выученное. Рабочая программа по биологической химии

предусматривает перечисление в вводной ее части профессиональных компетенций, на формирование которых изучение дисциплины должно быть нацелено с самых ранних этапов. Биологическая химия вносит вклад в формирование важнейших врачебных компетенций, немалую долю из них составляют и компетенции, связанные с умением производить целенаправленный поиск, сбор и обобщение информации. Внедрение компетентностного подхода требует перестройки всего образовательного процесса и всего перечня используемых образовательных технологий. С учетом современных тенденций в образовательном процессе должны преобладать не традиционные способы подачи материала, а методы, активизирующие творческую деятельность студента и формирующие активный подход в изучении предмета.

